

SHUKUROV RUSTAM ESHONKULOVICH

**SHAXSNING PSIXOLOGIK
HIMOYA MEXANIZMLARI VA
DINDORLIK TIPLARINING
O'ZARO BOG'LIQLIGI**

UDK: 335.22.114
KBK: 81.2(ŷ3-92.3)

R.E.Shukurov.

Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligi/
R.E.Shukurov – Toshkent. "Innovative Academy RSC" 2025.– 149 bet.

Mas'ul muharrir:

Akbarov Nurislom Axtamjon o'g'li

Taqrizchilar:

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi Sh.M.Xolmurotova
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent D.M.Bohqulova

Ushbu monografiyada shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligi nazariy hamda empirik jihatdan tadqiq qilindi. Tadqiqot jarayonida himoya mexanizmlarining shaxs xulq-atvoridagi namoyon bo'lish xususiyatlari, diniy ong va dindorlik tiplarining shakllanish omillari, ularning o'zaro ta'sir qonuniyatlari psixologik va sotsiologik yondashuvlar asosida ilmiy tahlil qilindi. Olingan natijalar shaxsning diniy-ma'naviy qarashlarini sog'lom yo'nalishda shakllantirish, yoshlarni destruktiv diniy ta'sirlardan himoya qilish va jamiyatda barqaror diniy-ma'rifiy muhitni qaror toptirishga xizmat qilishi mumkin. Monografiya psixologiya, dinshunoslik va sotsiologiya yo'nalishlarida ilmiy izlanish olib borayotgan mutaxassislar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida psixologiya, pedagogika va diniy-ma'rifiy tarbiya fanlarini o'qitishda foydalanish uchun qo'llanma sifatida ahamiyatlidir.

Monografiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Psixologiya va pedagogika kafedrasida 2025-yil 29-iyundagi 10-sonli bayonnoma qarori, institut ilmiy kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnoma qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-09-649-5

© Shukurov R.

© "Innovative Academy RSC" nashriyoti, 2025

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINI O'RGANISH BO'YICHA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI	8
1.1-§. Ongsizlik psixologiyasida himoya mexanizmlarining o'rganilishi.....	8
1.2-§. Himoya mexanizmlari tiplari va ularning psixologik xususiyatlari.....	24
1.3-§. Dindorlik tushunchasining psixologik mazmun-mohiyati.....	34
1.4-§. Dindorlik tiplarining psixologik tasnifi.....	45
II BOB. PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	51
2.1-§. Psixologik himoya mexanizmlarini tadqiq etishning metodologik asoslari, metodikalalar va birlamchi ma'lumotlar tahlili.....	51
2.2-§. Shaxs xususiyatlarini tadqiq etishning metodologik asoslari va o'tkazilgan metodikalarning dastlabki statistik tahlili natijalari.....	65
2.3-§. Dindorlik tiplarini tadqiq etish metodikalari va birlamchi ma'lumotlar tahlili.....	72
III BOB. PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARI ORASIDAGI BOG'LIQLIKNI EMPIRIK O'RGANISH NATIJALARI	91
3.1-§. Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligini o'rganishning amaliy jihatlari.....	91
3.2-§. Shaxs xususiyatlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqlik jihatlari.....	97
3.3-§. Psixologik himoya mexanizmlari va diniy faollik tiplarining bog'liqlik jihatlari.....	103
3.4-§. Himoya mexanizmlari dindorlik tiplarini belgilovchi omil sifatida.....	106
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	114
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	118
ILOVALAR.....	128



SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

KIRISH

Jahonda so'nggi yillarda geosiyosiy va geostrategik manfaatlar to'qnashuvi negizida insoniyat kelajagini tinch va barqaror taraqqiyotini ta'minlash ko'proq insonlarning diniy xulq-atvor va psixologik himoya mexanizmlari omillariga bog'liq masalalarga e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. Bunga asos sifatida globallashtirish sharoitida «...diniy ong transformatsiyasi, diniy addiksiya, dinning mohiyatini to'g'ri anglab yetish borasidagi kognitiv buzilishlar...» sababli yuzaga kelayotgan mafkuraviy buzilishlar va psixologik himoya mexanizmlari tufayli shakllangan destruktiv xulq-atvor namunalari butun insoniyatni tashvishga solishi muqarrar bo'lgan davrda diniy fanatizm va uning psixologik omillari, rivojlanish mexanizmlarini tadqiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda yoshlarning diniy ongi va xarakter xususiyatlari natijasida shakllanuvchi xulq-atvor namunalari jamiyat tomonidan maqbullangan me'yorlarga mos shakllantirish masalalariga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari ta'sirida shakllanuvchi xulq-atvorni psixozanaliz nuqtai nazardan o'zaro bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash, shaxs xulq-atvori bilan bog'liq muammoli vaziyatlardan xalos bo'lishning ijtimoiy-psixologik ta'sir usullarini, shaxsning xulq-atvorini og'ishlarsiz vujudga kelishida ta'lim-tarbiya va diniy e'tiqodiga ijtimoiy muhit ta'sirini ilmiy tadqiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor kuchaymoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda «ilm – din – jamiyat» uchligi ijtimoiy hayotning alohida muammosi hisoblanib, «...har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash...» ga xizmat qilishi, mazkur masalada ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolarning e'tiqod erkinliklarini ta'minlash, diniy ta'lim olish va diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishining zarur me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, yoshlarda dindorlik tiplari, diniy dunyoqarash va shaxs xususiyatlarining shakllanishi omillarini chuqur tahlil etish, yoshlar o'rtasida din bilan bog'liq

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

tushuncha, tasavvurlarni har tomonlama o'rganishga oid istiqboldagi vazifalarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyat va shart-sharoitlar yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida». 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 5 iyuldagi O'RQ-699-son «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni va shu faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari psixologiya fanida ustuvor tadqiqot mavzularidan hisoblanib, respublikamiz olimlaridan A.G.Ayrapetova, B.M.Botirov, B.R.Kadirov, V.M.Karimova, S.R.Sadridinov, G'.B.Shoumarov, P.S.Ergashev, K.B.Qodirov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan M.A.Abramov, F.V.Bassin, F.B.Berezin, B.D.Karvasarskiy, B.M.Kusenok, S.Moskovich, Yu.P.Tobalov va boshqalar tomonidan psixologik himoya mexanizmlari hamda dindorlik tiplarini introsixik moslashuv mexanizmlari, ongli harakatlardan bosh tortish, guruh yoki olomonning ruhiy energiya manbai, qo'llab-quvvatlash motivi, shaxsning xulq-atvor motivatsiyasi tadqiq etilgan.

Xorij mutaxassislaridan A.Adler, E.M.Areba, V.Vundt, U.Djeyms, M.Klayn, T.A.Prout, P.Rikardo, K.Rojers, B.Simon, Uzeyir Ok, L.J.Frensis, Z.Freyd, A.Freyd, E.From, G.Xoynzad, K.Xorni, X.Shaunburg, E.Erikson, K.Yung va boshqalar tomonidan himoya mexanizmlarini va ularning dindorlik tiplari bilan bog'liqlik jihatlarini aniqlash masalalari tadqiq etilgan.

Shuningdek, mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati ham alohida e'tiborga loyiqdir. Bugungi kunda diniy qadriyatlar, shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ijtimoiy muhitda ko'plab yangicha

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

talqinlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, diniy e'tiqodning turli shakllari, dindorlikning individuallashtirilgan tipologiyasi, psixologik himoya mexanizmlarining shaxs xulq-atvorida namoyon bo'lishi nafaqat psixologiya, balki sotsiologiya, dinshunoslik, falsafa va pedagogika fanlari kesishmasida ham dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylanmoqda. Zero, shaxsning diniy ongidagi transformatsiyalar nafaqat uning individual psixik holati, balki ijtimoiy munosabatlar tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur monografiyada shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy-nazariy asosda yoritish, mavjud tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yangi konseptual yondashuvni ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot jarayonida zamonaviy psixologik maktablarning nazariyalari, xususan, Z. Freyd va A. Freyding psixoanalitik konsepsiyalari, E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi, K. Yungning kollektiv ongsizlik haqidagi g'oyalari hamda K. Rojersning shaxsga yo'naltirilgan terapiya modeli asos sifatida tahlil qilinadi.

Amaliy jihatdan esa, yoshlarning dindorlik tiplarini aniqlash, ularda diniy ongning ijtimoiy jihatdan maqbul darajada shakllantirish, destruktiv diniy ta'sirlardan himoya qilish hamda sog'lom diniy-ma'rifiy muhitni qaror toptirishda psixologik himoya mexanizmlarining imkoniyatlarini ochib berish tadqiqotning muhim vazifalaridan biridir. Shu orqali mazkur monografiya nafaqat nazariy, balki ijtimoiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy izlanishning metodologik asosini dialektik yondashuv, tizimli tahlil, komparativ psixologiya, eksperimental tadqiqot metodlari va psixoanalitik tahlil tashkil etadi. Shu bilan birga, tarixiy-taqqoslama va empirik kuzatish metodlari yordamida shaxsning diniy ongidagi o'zgarishlar va psixologik himoya mexanizmlarining uyg'unlashuv jarayonlari o'rganiladi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Natijada, shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslash orqali diniy ong va xulq-atvorda yuzaga keladigan muammolarni barqaror ijtimoiy rivojlanishga moslashtirish imkoniyati yuzaga chiqadi.

Mazkur monografiyaning ilmiy izlanish predmeti shaxsning **psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligini** nazariy va empirik jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda psixologik himoya mexanizmlarining psixoanalitik maktab doirasida shakllangan konsepsiyalari, shuningdek, dindorlikning psixologik va sotsiologik tipologiyalari o'zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Shu orqali diniy ongning shakllanish jarayonida himoya mexanizmlarining qanday rol o'ynashi va ular shaxs xulq-atvorini ijtimoiy normalar doirasida qanday yo'naltirishi ochib beriladi.

Monografiyaning birinchi bobida – **“Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarini o'rganish bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili”** – mavjud ilmiy yondashuvlar, nazariy konsepsiyalar va terminologik asoslar tahlil qilinadi. Unda ongsizlik psixologiyasi doirasida himoya mexanizmlarining o'rganilishi, ularning turli tiplari va psixologik xususiyatlari yoritilib, diniy ong va dindorlik tushunchasining mohiyati hamda ularning psixologik tasnifi chuqur ilmiy sharh etiladi. Bu bob mazkur tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Ikkinchi bob – **“Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarini tadqiq etishning metodologik asoslari”** – tadqiqot metodologiyasi, qo'llangan metodikalar va birlamchi ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini o'z ichiga oladi. Unda psixologik himoya mexanizmlarini o'rganish metodlari, shaxs xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik vositalar hamda dindorlik tiplarini empirik tadqiq etish usullari asoslab beriladi. Bu bobda, shuningdek, dastlabki statistik tahlillar natijalari keltirilib, keyingi tadqiqot bosqichlari uchun ilmiy asos yaratiladi.

Uchinchi bob – **“Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari orasidagi bog'liqlikni empirik o'rganish natijalari”** – monografiyaning markaziy qismi bo'lib, unda olingan natijalar tahlil qilinadi. Xususan, psixologik himoya mexanizmlarining dindorlik tiplariga ta'siri, shaxs xususiyatlari bilan dindorlik

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

tiplarining bog'liqligi hamda diniy faollik shakllari bilan himoya mexanizmlarining o'zaro aloqadorlik jihatlari amaliy dalillar asosida yoritiladi. Shu bilan birga, himoya mexanizmlarining dindorlik tiplarini belgilovchi muhim omil sifatida ko'rilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Tadqiqot natijalari shaxs xulq-atvorini diniy e'tiqod va psixologik omillar uyg'unligida anglash imkonini berib, jamiyatda sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish, yoshlarning destruktiv diniy oqimlarga nisbatan immunitetini mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy tarbiyani psixologik asoslar bilan boyitish jarayoniga nazariy va amaliy hissa qo'shadi. Shu bois, mazkur monografiya psixologiya, dinshunoslik, sotsiologiya va pedagogika fanlari chorrahasida amalga oshirilayotgan tadqiqot sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

I BOB. PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINI O'RGANISH BO'YICHA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI

1.1. Ongsizlik psixologiyasida himoya mexanizmlarining o'rganilishi

Ma'lumki, insonlar hayoti davomida turli xil noqulay vaziyatlar va ko'ngilsiz voqealardan o'zlarining «Ego» sini muhofaza qilishlari uchun himoyaning turli xil shakllaridan foydalanishga harakat qiladilar. Psixoanaliz yo'nalishi nuqta'i nazaridan bu kabi «Ego»sini himoyalovchi vositalar, shaxslarda ma'lum bir himoya mexanizmlari tiplari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ushbu himoya tiplaridan tashqari psixologiyada din ham shaxsni himoya qiluvchi mexanizm sifatida qaraladi. Bunga oid ilmiy farazlar ko'plab olimlarning nazariyalarida ham o'z aksini topgan.

Yigirmanchi asrning oxirlariga kelib «Psixologik himoya mexanizmlari» tushunchasining shaxslararo va guruhlararo munosabatlar jarayoniga ta'sir jihatlari o'rganilib, ular shaxsning ichki muhitidan ijtimoiy-psixologik muhitga olib chiqildi. Nazariy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, psixologik himoya to'g'ridan-to'g'ri o'rganib bo'lmaydigan psixikaning ongsizlik maydoniga xos bo'lgan jarayon sifatida

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

talqin etiladi. Chunki, ular individual va aks etishi xilma-xil bo'lgan mexanizmlar hisoblanadi. Ularning barchasi shaxs psixikasida ongsiz tarzda namoyon bo'ladi.

Ongsizlik tushunchasi psixologiyada eng qadimiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Dastlab bu tushuncha Platon, Dekart, Kant va Gegel kabi faylasuf olimlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Ular o'z qarashlarida «Ongsizlik» tushunchasining falsafiy jihatlari to'g'risida mulohaza yuritganlar. Psixika tuzilishini «Ongsizlik» orqali izohlashga urinish esa o'rta asr nemis faylasufi N.Kuzanskiy tomonidan amalga oshirilgan. Faylasuf psixika asosini shaxs emotsiyalari va aqldan tashkil topgan deb izohlaydi va ularni ongsizlik holati bilan bog'lashga harakat qiladi. Emotsiyalar tanani to'liqlantiradi va uni xohish istaklarga yo'naltiradi. Buning natijasida esa ehtiros darajalari yuzaga keladi. Xohish-istaklarni qondirish jarayonida esa shaxs ongsizlik holatini ham boshdan kechiradi. Bu vaqtda esa mazkur holat shaxs uchun mavhum bo'lib qoladi. Shaxs faqatgina aql tufayligina emotsiyalarning ehtirosli istaklarini tartibga soladi va mavhumliklarni bilish va anglashga harakat qiladi. Agar bu jarayonda ong ishtirok etmasa mazkur istaklarni tartibga solish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

B.Spinoza o'rta asr faylasuf olimlaridan birinchi bo'lib shaxs xulq-atvorini tahlil qilgan holda ongsiz tarzda yuzaga keluvchi himoya mexanizmlarini o'z ta'limotida ilgari suradi. Olim «Etika» borasidagi ta'limotida psixologik himoya g'oyasini shakllantiradi. Ushbu ta'limotda «Shaxs psixikasi tananing harakat qilish imkoniyatini susaytiradigan yoki uni cheklaydigan narsa, voqea va hodisalarni sezganda mazkur mavjudlikni iloji boricha istisno qiladigan vositalarni xotirlashga intiladi. Chunki, har doim insonlar o'zlari yoqtirgan narsalar haqida o'ylashga va ularni qabul qilishga intiladilar. «Ego»siga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'luvchi narsalarni esa inkor etishga harakat qiladilar» kabi tushunchalar ilgari suriladi. Bu ta'limotdan esa, shaxs ongsiz ravishda salbiy oqibatlariga olib keluvchi tushunchalarni o'rniga ijobiyarlari bilan almashtirish orqali «Ego»sini himoya qilishini ko'rishimiz mumkin.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Xususan, antik va klassik falsafada ongsizlik rad etish natijasida hosil bo'luvchi falsafiy kategoriya hisoblanadi. Unda ongsizlik bu ong mavjud bo'lmagan voqelik sifatida e'tirof etiladi.

Demak, o'rta asr falsafasida olimlar tomonidan ongsizlik va shaxsning psixologik himoya mexanizmlari kabi tushunchalar borasida ham o'ziga xos bo'lgan nazariyalar shakllantirganligiga guvoh bo'lamiz.

Himoya mexanizmlari borasidagi tushunchalarning ilm-fanda mustahkam o'rinni egallashiga psixoanaliz yo'nalishi vakillarining hissasi juda katta hisoblanadi.

«Himoya» atamasi, psixoanaliz nazariyasidagi psixodinamik yo'nalishning eng dastlabki ifodasi hisoblanadi. Xususan, bu atamani birinchi bo'lib Z.Freyd 1894 yilda o'zining «Himoya neyropsixozlari» asarida bayon etib o'tgan. Keyinchalik bu atama olimning «Ego» «Id»dan va tashqi tomondan keladigan salbiy axborotlar va hodisalarga qarshi kurashuvchi kuch sifatida yana ko'plab asarlarida paydo bo'la boshlaydi.

Z.Freyd psixologik himoya mexanizmlari borasidagi o'zining fundamental asosini nevroz kasalligi bilan og'rikan bemorlarni davolash jarayonida aniqlagan va uni salbiy psixologik holatlar ta'sirida yuzaga keladigan qaytariluvchi kasallik ekanini ta'kidlab o'tgan.

Olim 1890–1897 yillarda psixopatologiya borasidagi ilk g'oyalarini ilgari surdi. Shuningdek, isterik xarakter holatlarning psixologik omillarini batafsil o'rganadi va nevrozlar psixikasi mexanizmining yadrosi bo'lgan himoya tushunchasini taqdim etadi va uni «Siqib chiqarish» deb ataydi. Z.Freyd dastlab barcha himoya mexanizmlarini tiplarga ajratmasdan hammasini «Siqib chiqarish» deb ataydi. Mazkur tushuncha keyinchalik himoya mexanizmlari tiplaridan biri sifatida anglanila boshlangan.

Shuningdek, olim xavotir tuyg'usini ham himoya mexanizmi deb ataydi. Z.Freyd xavotirni libido energiyasining noadekvatligi bilan chambarchas bog'lagan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarida bu moslashuvchan himoya mexanizmi bo'lib, tanani tahdid haqida ogohlantiradigan va «Ego»ga mazkur tahdidga maqbul tarzda javob berish imkoni sifatida qaraydi. Shu asnodan insonning tug'ilishini xavotir tuyg'usining

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

birlamchi manbai sifatida qaraydi. Buning sababini ona qornidagi embrion tug'ilgandan so'ng yangi begona muhitga duch kelishi va onadan ajralishni boshdan kechirishi unda xavotir tuyg'usini shakllanishida deb biladi. Shunga muvofiq xavotirning uch turini ajratib ko'rsatadi:

1. Tashqi muhitdan kelib chiqadigan real tahdidga javoban vujudga keladigan haqiqiy xavotir.

2. «Ego», «Id» impluslarini boshqara olmaslik natijasida kelib chiqadigan nevrotik xavotir.

3. «Super-ego» tomonidan jazo xavfiga javoban yuzaga keluvchi axloqiy xavotir.

Shunga ko'ra, xavotirning asosiy vazifasi shaxsning individual instinktiv mayllarini anglash uchun ogohlantirish, maqbul shakllarda va ijtimoiy qulay sharoitlarda ularni qoniqishini tartibga solishdir. Olim shaxsda yuzaga keladigan xavotirni psixologik himoya sifatida tushuntiradi. Chunki, shaxsda bu mexanizm bo'lmasa unda psixologik va fiziologik o'zgarishlar kelib chiqadi. Shuning uchun u himoyaning manbaini xavotir deb hisoblaydi.

Z.Freyd psixologik himoya mexanizmlari orasida siqib chiqarish himoya mexanizmi ko'plab nevrotik va psixosomatik kasallik alomatlarining asosiy sababi, deb hisoblagan. Bundan ko'rinib turibdiki, Z.Freyd qarashlarida psixologik himoya mexanizmlari salbiy xususiyat sifatida baholanadi.

Z.Freyd ta'limotiga ko'ra himoya mexanizmlari psixikaning uch tuzilishi bo'lgan «Super-ego», «Ego» va «Id»ning o'zaro munosabatlari ta'sirida yuzaga keladi. Bu yerda:

- «Super ego» – shaxsga ota-ona va boshqa yaqinlari tomonidan uning ongiga singdirilgan qadriyatlar tizgini hisoblanadi.

- «Ego» – ongli qobiqda qaror qabul qiluvchi mexanizm hisoblanadi.

U psixikada idrok etuvchi, xotirada qoluvchi, motorika va reallik tamoyiliga binoan harakat qiluvchi, o'ylovchi va rejalashtiruvchi vazifalarni bajaradi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

«Id» – shaxsda ongsiz faoliyatni boshqaruvchi mexanizm orqali yuzaga keladi. «Id» bu bizning nafsimiz hisoblanadi. U tug'ma, har doim lazzatlanish tamoyiliga binoan harakat qiluvchi, o'z impulslarini zudlik bilan va to'la qondirilishini talab etuvchi, mantiq, axloq va toqatni tushunmaydigan, vaqt chegarasini anglamaydigan, vujud jihatlari bilan uzviy bog'liq bo'luvchi vazifalardan kelib chiqib aniqlanadi. «Id» doimo «Ego»ga buyruq beradi. «Super-ego» esa taqiq qo'yadi. Natijada «Ego» «Id» ning ehtiyojlarini qondirish jarayonida himoya mexanizmlari yuzaga keladi.

Z.Freydning so'nggi asarlarida himoya mexanizmlarini shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida tashqi va ichki mojarolarni zaiflashtiradigan hamda ularni individual xulq-atvorni tartibga soladigan barcha mexanizmlarning umumiy nomi ekanligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, bu psixikaning muvozanatlashish, moslashish va tartibga solish kabi funksiyalari bilan bog'liqdir.

«Psixologik himoya» borasidagi nazariyalarning keyingi rivojlanish tarixi Z.Freydning qizi A.Freyd bilan chambarchas bog'liqdir. Uning nazariyasi psixologik himoya mexanizmlari borasida olib borilgan ishlarni tizimlashtirishga xizmat qiladi. U o'z tadqiqot ishlaridan kelib chiqib himoya mexanizmlarining birinchi aniq ta'rifini berib o'tgan. A.Freyd himoya mexanizmlariga qo'yidagicha ta'rif beradi. Himoya mexanizmlari – bu «Ego»ning faoliyati hisoblanadi. U impulsning haddan tashqari faolligi yoki ularga tegishli bo'lgan xavf-xatarlarning «Ego»ga ta'siri sezila boshlaganda harakatga keluvchi mexanizm hisoblanadi. Ular psixikada ongni ogohlantirmagan holda avtomatik tarzda faoliyat olib boradi.

Uning g'oyalari himoya mexanizmlari nazariyasiga ba'zi o'zgarishlarni kiritdi. Bundan tashqari u himoya mexanizmlarini perseptual, intellektual va ixtiyoriy jarayon deb atadi.

Keyinchalik himoya mexanizmlari faqat nevroz kasalligiga chalingan shaxslar psixikasining elementi sifatida emas, balki har qanday inson psixikasining ongli qismi bo'lgan «Ego»ning vazifasi sifatida qarala boshlandi. Shundan so'ng, psixologik himoya mexanizmlari ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining ob'ekti sifatida o'rin oldi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

A.Freyd, shuningdek, bolaning rivojlanish bosqichlariga aloqador bo'lmagan himoya mexanizmlari borligini ham ta'kidlab o'tadi. Ular ziddiyatlar bilan bog'liq bo'lib, shaxs ushbu vaziyatlarga duch kelgan vaqtda ular harakatga kela boshlaydi. Bunday himoya mexanizmlariga regressiya kiradi.

A.Freyd himoyani «Nevrozga olib keladigan mojarolarda «Ego» tomonidan qo'llaniladigan barcha usullarning umumiy jamlanmasi» deb ta'riflagan. Olim nazariyasiga ko'ra, himoya mexanizmlari – bu «Ego»ning haddan tashqari tashqi va ichki ta'sirga duchor bo'lganda yoki u uchun xavf xatar boshlanganda namoyon bo'luvchi faoliyatidir. Ular ong bilan kelishmagan holda avtomatik tarzda ishlaydi.

Psixologik himoya fenomeni rivojlanishiga katta hissa qo'shgan neofreydizm yondashuvdagi taniqli shaxs Karl Yung [49] hisoblanadi. U shaxs psixikasining darajalari nazariyasini taklif qildi. K.Yung bo'yicha shaxs psixikasi ong, shaxsiy ongsizlik va jamoaviy ongsizlik kabi uchta darajani o'z ichiga oladi:

Bu darajalarning ichidan faqat ong – shaxs xatti-harakatlarini va kechinmalarini ratsional tartibga soladi.

Ba'zi bir kechinmalar va xatti-harakatlar ratsionallik jihatini anglatmaydi va ular ongdan chiqarib tashlanib ongsizlikka aylanadi.

Jamoaviy ongsizlik esa barcha individlarga xos bo'lgan xatti-harakatlar tug'ilishdan odamga berilgan ongsiz determinantlar to'plami bilan belgilanadi. Inson atrofdagi dunyoga moslashgandan so'ng, har xil yuqori psixik funksiyalardan foydalanadi. Biroq, ba'zi holatlarda moslashish yuz bermaydi, shuning uchun faollashtirilgan funksiyalar bardosh bermaydi va ongsizlik maydoni talab qilinadi. Bularning barchasi esa shaxsning psixologik himoya mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Ba'zi tadqiqotchilar psixologik himoya tushunchasiga nisbatan u odamda sodir bo'layotgan haqiqiy aqliy jarayonlarni qay darajada tavsiflaydi? degan savolni qo'yish orqali murojaat qilishadi. Masalan, R.S. Vallersteynning ta'kidlashicha, «Himoya mexanizmi – bu ongning faoliyat uslubini ko'rsatadigan, xatti-harakatlar, his-tuyg'ular, g'oyalari, ta'sirlarning istalmagan xohishlarni qanday to'xtatib turishini.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

chalg'itishini, sekinlashtirishini yoki boshqa yo'l bilan o'zgartirilishini tushuntirib beradigan tushunchadan boshqa narsa emas. Himoya – bu xulq-atvorning bevosita shakllari, ta'sirchanlikning namoyon bo'lishi va aqliy faoliyatdir».

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida hayot kechirayotgan har bir shaxs umri davomida ko'plab qiyin vaziyatlarni boshdan kechiradi. Bilim va tajriba asosida, ular imkon qadar stressni yengishga va ruhiy holatlarini yaxshilashga harakat qilishadi [38]. Z.Freyd tadqiqotlarini K.Xorney faol ravishda davom ettirdi. Olim himoya mexanizmlari muammosiga o'zining nazariyalaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Uning nazariyasida asosiy e'tibor «Bazal xavotir» tushunchasiga qaratiladi. «Bazal xavotir» individ uchun xavfli bo'lgan muhitda yolg'izlik va nochorlik hissining kechishi hisoblanadi. Bu bolalarning himoya ehtiyojlarini qondirish natijasida va atrofdegilar bilan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bu kabi noqulaylikdan xalos bo'lishda individ nevrotik himoya mexanizmlarini ishlab chiqadi. K.Xorney quyidagi himoya mexanizmlarini tavsiflaydi:

- muhabbatga intilish – inson umri davomida doimo kimgadir yoqishga harakat qiladi. Barcha narsalarga o'zining mustaqil fikri bilan emas, balki boshqalarning qarashlari bilan yondashadilar. Doimo birovga yoqishga harakat qiladilar. Muhabbatga intilishga moyilligi bor shaxslar nazdida, agar men kimgadir yoqsam demak, u hech qachon menga zarar yetkazmaydi degan fikrda bo'ladilar. Bunday shaxslar o'zlarini boshqalarga bo'lgan muhabbatlari orqali himoya qiladilar. Ammo, bu insonni o'zligidan kechishga olib keladi. O'zini istak-xohishlarini namoyon eta olmaydi va psixikasida salbiy oqibatlarini yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi;

- hokimiyatga intilish – bu tushuncha ham himoya mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur himoya tipiga mansub insonlar hokimiyatni egallab turgan lavozimidan foydalanib boshqalarga buyruq berish orqali boshqaradilar. Ular bunga hokimiyatsiz erisha olmaydilar. Chunki, hokimiyat ularda mavjud kamchiliklarni yashiradilar va qondirilmagan ehtiyojlarini qondirilishiga sababchi bo'ladilar. Ular, odamlar agar bizdan qo'rqib turishsa, bizga zarar yetkiza olmaydi, degan fikrda bo'ladilar;

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

- bo'ysunish – ayrim insonlar ma'lum bir insonlarga tobe bo'lish orqali o'zlarini himoya qiladilar. Ular, agar men kimgadir itoat qilsam, u menga zarar yetkazmaydi degan tushunchada bo'ladilar.

Keyingi tadqiqot ishlarida K.Xorney shaxsni himoya qilish mexanizmlarining 10 turini tavsiflab, ularni boshqa odamlarga nisbatan munosabati asosida shaxslarga yo'nalganlik, shaxslarlar tomonidan yo'nalganlik va shaxslarga qarshi yo'nalganlik kabi umumiy uchta kategoriyaga ajratadi.

K.Xorney so'zlariga ko'ra, har kim hayoti davomida bu strategiyalarning u yoki bu darajalarini qo'llaydi. Biroq, ushbu strategiyalarni qo'llash shaxsga ziddiyatlarni yuzaga keltirish mumkin. K.Xorney tushunchasiga ko'ra, bu ziddiyatli nevrozning asosini «Bazal xavotirni» tashkil qiladi.

Shunday qilib, «Bazal xavotir» hamma narsaning markazida yotadi, ya'ni inson strategiyalar va himoya mexanizmlari yordamida xulq-atvorini boshqarishga harakat qiladi, ammo ularni qo'llash uni bazal to'qnashuvga olib keladi va agar odam ular o'rtasida to'g'ri muvozanatni topa olmasa, nevrozning rivojlanishi sodir bo'ladi.

G.S. Sullivan fikricha, inson hayoti davomida biologik va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga harakat qiladi. Bolalik davrida shaxs xavotir xavfini pasaytirish va xotirjamlikni ta'minlash uchun ma'lum bir tajribaga ega bo'lishi kerak, ammo tajribaning yo'qligi tartibsiz xatti-harakatlarning shakllanishiga olib keladi. Ehtiyojni qondirish va xavotirni kamaytirish o'z-o'zini va boshqalarni hurmat qilish hissini uyg'otadi. O'zligiga zid bo'lgan voqea va hodisalar xavotirlarni kuchaytiradi. Shundan so'ng, shaxsni himoya qilish mexanizmlari paydo bo'ladi, degan nazariyani yoqlab chiqadi. G.Sullivan psixologik himoya masalalarini rivojlantirgan neofreydizm tendensiyasining yana bir vakilidir. Uning so'zlariga ko'ra, himoyalananayotgan inson o'z atrofidagi noqulaylik omillariga diqqat qaratmaydi. Aksincha, o'zi xohlagan narsalargagina e'tibor qaratadi va natijada «Tanlangan diqqat» jarayoni shakllanadi. Tanlangan diqqat – bu psixikani shikastlantiradigan atrof-muhitdan ajratib turishdir. Sullivan so'zlariga ko'ra, tajovuz psixologik himoyaning asosiy o'lchovidir.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Agressiyaning namoyon bo'lishi dushman emas, balki himoya, «Reaktiv» xarakter hisoblanadi.

K.Xorney, G.Sullivan va qisman A.Freydning asarlari klassik psixoanaliz yo'nalishlarida emas, balki gumanistik psixologiyaning umumiy nomi ostida birlashtirilgan psixologiyada, yangi uslubiy tamoyillarni hisobga olgan holda shakllangan.

Freyddan keyingi psixologik himoya mexanizmlari rivojlanishi bo'yicha salmoqli iz A.Adler tomonidan qoldirildi. Olim individual psixologiyaga asos soldi. A.Adler shaxs rivojlanishining asosiy hal qiluvchi determinanti ustunlikka intilishdir, deb hisoblaydi. Biroq, bu intilish har doim ham amalga oshmasligi mumkin. Chunki, turli sabablarga ko'ra inson o'zini zaif his qiladi. Ushbu tuyg'udan xalos bo'lish maqsadida har xil himoya mexanizmlariga murojaat qiladi.

XX asrning 50 yillari gumanistik psixologiyasi doirasida yangi psixologik yo'nalish ekzistensial psixologiya yo'nalishi shakllana boshladi. Ushbu yo'nalish shaxsning asosiy muammolari haqidagi qarashlar borasida inqilob qilgan eng yosh yo'nalishlaridan biridir. Bu yo'nalish Shopengaurning ratsionalizm falsafasi, Nisshening «Hayot falsafasi», Bergsonning intiutizm falsafasi, Vandelbandning kantianizmi, Gusserlyaning fenomenologiyasi, Yaspersning ekzistensializmi, Shellerning antropologiyasi, Rikurning germeneytik va falsafiy asoslarida tarkib topadi. Zamonaviy ekzistensial psixologiya bugungi kunda sub'ektiv idrokdagi vaqt, hayot, o'lim muammosi, erkinlik va javobgarlik, shaxs tanlovi muammosi, yolg'izlik, sevgi va muloqotning ob'ektiv-sub'ektiv muammosi va mavjudlik ma'nosini qidirishning psixologik asoslari kabi muammolarni hal qiladi:

Ekzistensial psixologiyaning asosiy predmeti – inson hayotining ma'nosi, unga erishish va yo'qotish shartlari hisoblanadi. Yondashuv vakillari psixologik himoya mexanizmlarini o'z «Ego»sidan, erkinligidan va javobgarligidan qochish sifatida talqin etadi.

E.Erikson – bu ekzistensial yo'nalishning taniqli vakili va shu bilan birga psixoanalizning ijodiy tadqiqotchisidir. Erikson «Shaxs identitligi» tushunchasini

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

ilgari suradi va u orqali tashqi dunyo bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatuvchi ma'lum bir markaziy sifatni tushunadi.

Bu esa shaxsning egotsentrik yo'nalishi, jamiyat bilan o'zini identifikatsiyalash va inson qadriyatlarini va ijtimoiy roli kabi parametrlarda ifodalanadi.

Shaxs egotsentrizmi unga o'zini anglash, xatti-harakatlarini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Vaqt, zamon va muhitga qarab u ham o'zgarib boraveradi. Bu esa psixologik moslashuv mexanizmi sifatida faoliyat olib boradi. Shaxsning o'zgaruvchan muhitga mos ravishda o'zini o'zgartira olmasligi nevrozga olib keladi. Binobarin, shaxs nafaqat o'zining rivojlanishi tufayli, balki jamiyatda mavjud vaziyatlarga qarab ham o'zgaradi. Biroq, shaxs jamiyatga moslasha olsa va yuqori maqsadlar sari intilsa undagi har bir o'zgarish nevrozga olib kelmaydi.

Olim sog'lom insoning hayotida muhim rol o'ynaydigan «Himoya mexanizmlari» muammosini quyidagicha izohlaydi: xulq-atvorni himoya mexanizmlari yordamida tartibga solish salbiy oqibatlariga olib keladi. Chunki, himoya mexanizmlari xatti-harakatlar erkinligini cheklaydi va uni oldindan o'rnatilgan model bilan belgilaydi, inson bunday modellarning quli bo'lib qoladi, insonning xatti-harakatlarini buzadi va boshqarish va tartibga solish funksiyasi yo'qotadi.

Agar shaxsning himoya jarayonidagi xatti-harakatlari ongli tartibga solinsa, muammoli vaziyatning asl mohiyati ham tan olinadi. Unga nisbatan faoliyat motivatsiyasining o'zgarishi yangi maqsadlarning shakllanishiga olib keladi va ularni amalga oshirish vositachiligida himoya harakati tiplari shakllanadi.

60 yillarda K.Rojers nazariyasi AQShda keng ommalashdi. Faol psixoterapevtik amaliyot bilan shug'ullanuvchi K.Rojers bizni ongsiz shaxs faoliyati va himoya mexanizmlari masalalariga yangicha qarashga majbur qilgan bir qancha empirik dalillarni ochib berdi. Ushbu dalillarni tushuntirish uchun K.Rojers keyinchalik «Mijozlarga yo'naltirilgan psixoterapiya» deb nomlangan o'ziga xos konsepsiyani yaratdi. K.Rojers terapevt va mijozning o'zaro munosabatlariga insonparvarlik bilan yondashishni targ'ib qildi va shaxs tuzilishini organizm, hayot tajribasi va ongli «Ego» obrazi qismlarga ajratdi.



SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

K.Rojersning shaxs tuzilmasi modelida himoya tushunchasini tahlil qilish, «Ego» va hayot tajribasining o'zaro aloqalari nisbati bilan belgilanadi. Agar tajriba va «Ego» o'rtasida nomuvofiqlik bo'lsa, unda tajribaga ongni kiritishga xalaqit berish, undan o'zini himoya qilishga moyilligi bor bo'ladi. Bunday vaziyatlarda odam bezovtalik, tahdid, nomuvofiqlik kabi hissiyotlarga duchor bo'ladi. Natijada «Ego»da o'z tuzilishini saqlab qolish istagi paydo bo'ladi. Shu tarzda himoya mexanizmlari tiplari shakllanadi. Psixologik himoya «Ego»ning yaxlitligini saqlab qolish vazifasini bajaradi, ammo bu nomuvofiqlik manbai hisoblanadi. Tajribaga o'tgan qarama-qarshi ma'lumotlar, inson o'zi ustida ishlashi uchun muhimdir. Psixoterapevtning roli vaziyatni qayta ko'rib chiqishda, nizolardan qochish va tahdidlarni bartaraf etishda yordam berishdir. Ammo bularning barchasi shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Psixoterapiya seansi davomida psixoterapevt to'liq xavfsizlik, bemorning shaxsiyatini so'zsiz qabul qilish holatini yaratadi. Buning oqibati empatiyaning paydo bo'lishi, himoyani olib tashlash va o'zlik tarkibiga tajribani o'zlashtirish bilan yakun topadi.

Favqulodda vaziyatlarda himoya xatti-harakatlarining eng keng qamrovli empirik tahlillaridan biri V.Frankl tomonidan berilgan. Avstriyalik psixolog psixologik himoyani moslashuvchan shaxs xususiyati sifatida qabul qilishga qarshi chiqdi. Patologik kasalliklar bilan shug'ullanadigan V.Frankl logoterapiya yo'nalishini yaratdi. Franklning fikricha, barcha nevrozlar insonning hayot mazmuni yoki boshqa qadriyatlarni yo'qotishidan kelib chiqadi. V.Frankl hayotning semantik tavsifiga ma'naviyat, erkinlik va javobgarlik kabi uchta muhim tarkibiy qismni kiritadi.

Insonning asosiy maqsadi o'zidagi reallikni ko'rish uchun hayotdan ma'no va mazmun topishdir. Ushbu istak doimiy stress, faol harakatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Agar inson hayotning ma'nosini zavq sohasida topsa, unda bu hayotning ma'naviyatini va shaxs muvozanatini buzishi mumkin. Bunda V.Frankl Z.Freydning «Ehtiyojlarning qondirilishi. bu shaxsda muvozanatni saqlashning kalitidir» degan g'oyasiga qarshi chiqadi. Agar, inson hayotning ma'nosizligi va bo'shliq tuyg'usiga

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

ega bo'lsa, unda yagona najot bu xususiyatning o'ziga xosligini his qilish, uning ichki qiymatini topishdir. Buning yordamida odam o'ziga ishonch hosil qiladi.

V.Frankl shaxslarning atrofdagi voqealarni ta'siri tufayli yuzaga kelayotgan tahdidlarini bartaraf etish uchun himoya mexanizmlaridan foydalanishni salbiy mexanizm sifatida baholaydi. Bu holat shaxsda noto'g'ri idrok jarayonini vujudga keltiradi va real voqelikni buzib ko'rsatadi. Buning oqibatida shaxs xulq-atvorida salbiy xatti-harakatlar shakllanadi. Ruhiyatida kechadigan bunday qarama-qarshilik jarayonlari nevrozning paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada ko'plab insonlar qiyinchiliklarni yengib o'tish o'rniga ulardan uzoqroq yurishni afzal ko'radilar.

V.Frankl XX asrning 60 yillariga kelib, G'arb jamiyatida odamlar orasida o'z hayotining mazmunini yo'qotish holati keng tarqalganini ta'kidlaydi. Frankl ushbu hodisani jamiyat rivojlanishining asosiy omillari bilan bog'laydi va hodisaning tarixiy ildizlarini tahlil qilishga harakat qiladi. Hayot ma'nosini yetishmasligi odamda maxsus og'riqli holatni keltirib chiqaradi, uni Frankl «Ekzistensial vakum» deb ataydi. Bunday holatning paydo bo'lishi ruhiy kasallikka, depressiyaga, surunkali somatik kasalliklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ekzistensial vakum urushdan keyingi davrda G'arbiy Yevropa va AQShda keng tarqalgan o'ziga xos «Noogen nevrozlar»ning paydo bo'lishiga olib keladi. Olim ushbu patologiyani tahlil qilish mobaynida aqliy sog'lom va nosog'lom insonlar o'rtasidagi tafovutni aniqlaydi. Unga ko'ra, aqliy sog'lom inson hayotning ma'nosini doimiy ravishda izlaydi. Bu uning aqliy salomatligi belgisidan darak beradi.

V.Frankl tushunchasidan farqli o'laroq, E.Bern psixologik himoya tushunchasi va u bilan bog'liq bo'lgan xulq-atvor tuzilmalarini shaxsning ijtimoiy mavjudligini belgilovchi omil deb biladi. E.Bern fikricha, inson o'zini muvozanatda ushlab turishga intiluvchi stressli energetik tizimdir. Muvozanat va stressni yengillashtirga bo'lgan ehtiyojni E.Bern xohish-istak deb ataydi. Inson o'z xohish-istaklarini imkon qadar ziddiyatsiz qondirishga intiladi. Energiya muvozanati tiklangach, zo'riqish kamayadi. psixik darajada bu bezovtalik tuyg'ularini yo'q qilish bilan namoyon bo'ladi. Har kim hayoti davomida o'z modellarini to'playdi, ularni Ye.Bern «Hayot senariysi» deb atadi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ushbu senariy doirasidagi harakatlar sub'ektni dunyoning xavf-xatarlaridan himoya qiladi. Bu kabi hodisalarni tahlil qilishning Bunday tahlil uchun eng maqbul usul sifatida Ye.Bern «Tranzaksion tahlil» nazriyasini ishlab chiqadi. Psixoanaliz nazariyasiga o'xshash holda Ye.Bern shaxs psixikasini quyidagi uch komponentga ajratadi (1.1-jadval).

1.1 - jadval

Shaxs psixikasining komponentlari

E.Berning shaxs psixikasi komponentlari	Z.Freydning shaxs psixikasi komponentlari
Bola	Id
O'spirin	Ego
Ota	Super Ego

Bu Z.Freyd uchligi («Id», «Ego», «Super-ego») bilan aloqador ekani shubhasiz. Ekzistensialistlar psixoanalizda mavjud bo'lgan himoya mexanizmlari mohiyatini tushunish bilan birga ular himoyaning «o'z tajribalarini e'tiborsiz qoldirish» va «Erkinlikdan qochish» kabi turlarini ham aniqlaydilar.

Ekzistensializm da shaxs uchun eng muhim jihat uning erkinligi va mustaqilligi hisoblanadi. Ular esa mas'uliyatsiz amalga oshmaydi. Inson qanchalik shaxsiy erkinlik va mustaqillikka ega bo'lsa, shunchalik o'zi uchun javobgarlikni oladi. Bu shaxs mavjudligining birinchi paradoksidir. Mutlaq erkinlikka intilish – bu o'z taqdiri uchun katta mas'uliyat sari intilishdir. Mas'uliyat bir xil erkinlikni cheklashning o'ziga xos shakli bo'lib, u erkinlik oshgani sayin kuchayib boradi. Inson ijtimoiy mavjudotdir va jamiyatda yashaydi. Xuddi shu erkinlik huquqiga ega bo'lgan kishi jamiyatning boshqa a'zolari bilan to'qnashuvga duch keladi. Birining mutlaq erkinligi har doim boshqasining mutlaq erkinligiga zid keladi. Bu shaxs mavjudligining ikkinchi paradoksidir. Bunday vaziyatda odamning jamiyat bilan ziddiyatli munosabati «Erkinlikdan qochish» himoya mexanizmini kiritishga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu mexanizmdan foydalanish ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Agar inson ushbu

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

himoYA usulidan foydalanganda o'zini qulay his qilsa, demak bu ijobiy himoya hisoblanadi. Agar ichki noqulaylik, norozilik hissi bo'lsa, demak, bu «Erkinlikdan qochish»ning salbiy natijasidir.

Shunday qilib, ekzistensial yo'nalishda «Psixologik himoya» tushunchasi shaxs erkinligi va hayot ma'nosini anglab yetishdan voz kechtiruvchi konstruktivlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Himoya hodisasi o'zidan, jamiyatdan, ob'ektiv qadriyatlardan va sub'ektiv tashvishlardan voz kechish kabi bir necha jihatlariga ega hisoblanadi. Ushbu muammolarning yechimiga asoslanib, ekzistensial psixologiyada «Himoya mexanizmlari» tushunchalari joriy qilingan.

Rus psixolog olimlarining ilmiy tadqiqotlarida psixologik himoya mexanizmlari psixologik tushuncha sifatida bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Z.Freydning asarlarini qattiq tanqid qilish natijasida yuzaga kelgan uzoq tanaffusdan so'ng, 1969 yilda F.V.Bassinning «Men va psixologik himoya kuchi to'g'risida» maqolasi sovet materialistik psixologiyasi nuqtai nazaridan psixoanalitik nazariyani qayta tiklashga turtki bo'ldi. Unda muallif psixoanalizning bir qator asosiy postulatlariga qo'shilmaydi (ong va ongsizlik muhosasiga) ammo, himoya mexanizmlarini o'ziga xos uslubda ko'rib chiqadi. Uning fikriga ko'ra, psixologik himoya mexanizmlari shaxsning normal vazifasidir, ular hatto ongning to'liq xabardorligi bilan ham ishlashlari mumkin. Shuning uchun, psixologik himoya mexanizmlarining asosiy maqsadi xatti-harakatlarning disorganizatsiyasini oldini olish va stressni kamaytirish uchun shaxs munosabatlari tizimini qayta qurishdir.

Bassin fikriga ko'ra, psixologik himoya nafaqat ongli va ongsizlik o'rtasidagi ziddiyat doirasida, balki turli xil emotsional rang-barang munosabatlar o'rtasidagi ziddiyat doirasida ham xulq-atvor buzilishlarini oldini olishga xizmat qiladigan normal mexanizmdir.

Muallif psixologik himoyani «Mazmunli tajribalar» to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan «Ma'nolar»ni o'zgartirish hodisasi sifatida ko'rib chiqadi. Ziddiyatning o'zi nafaqat ongsizlik va onglilik kurashining natijasidir, balki emotsional jihatdan muhim tajribalarning to'qnashuvi natijasi hamdir. Shunday qilib,

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

psixologik himoya munosabatlarni o'zgartirish, shaxsning psixik faoliyatini qayta qurishdir.

B.V. Zeygarnik shaxslarda nomukammallik tuyg'usini tahlil qilib, uni «Himoya choralari»ning asosi sifatida qaraydi. Uning fikricha, nevroz va somatik kasalliklarda va frusturatsiya holatidagi bir qator alomatlar bemor tan olishni istamaydigan himoya choralaridir. Biroq, himoyaning ongsizligi ko'pincha insoning xulq-atvorini o'zgartirish va shaxsiy maqsadlariga nomuvofiqlik usulidir hamdir.

Aksincha, B.D. Karvasarskiy psixologik himoya inson uchun emotsional, kognitiv va xulq-atvor munosabatlarining disadaptiv tarkibiy qismlari ahamiyatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ongsiz jarayon ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ushbu jarayonning asosiy vazifasi shaxslararo munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan zararli oqibatlar ta'sirini susaytirishdir. Psixologik himoyaning barcha mexanizmlari yuzaga kelgan muammolarni samarali hal qilishda ongli harakatlardan bosh tortish sifatida qaraladi.

F.B. Berezin «Shaxsning psixologik va psixofiziologik moslashuvi» asarida psixologik himoyani intrapsixik moslashuv mexanizmlari deb ham ataydi va ularning quyidagi ko'rinishlarini taqdim etadi:

- 1) tashvish yoki unga sabab bo'lgan omillarni anglashga xalaqit berish;
- 2) ong uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan tendensiyalarning o'zgarishi;
- 3) impuls darajalari ta'sirini kamaytirish;
- 4) mayllar darajalari ta'sirini pasaytirish (asosiy ehtiyojlarni qadsizlanishi).

Shaxsni himoya mexanizmlarini o'rganish somatik kasalliklarning psixologik tomonlarini o'rganish munosabati bilan tibbiy psixologiyada ayniqsa dolzarbdir. Hozirgi vaqtda ushbu sohada o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar natijasida quyidagi model shakllantirildi. Psixologik himoya mexanizmlari somatik kasallik bilan birga keladigan psixo-travmatik omillar ta'siri ostida kuchga kiradi. Shaxsni yetarli darajada

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

psixologik himoya qilish tizimi psixogen kasalliklarning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi, kasallik va davolanishga moslashishi mumkin.

Tadqiq etilayotgan masala mamlakatimiz psixologiya fanida yangi tushunchalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini endi yetishib chiqayotgan yosh olimlar ishlarida ko'rishimiz mumkin. Xususan, S.R. Sadridinov pedagogik faoliyat tizimida psixologik himoya mexanizmlarining ijtimoiy psixologik jihatlarini tadqiq etgan.

Umuman olganda, psixologik himoya mexanizmlarining shaxs psixikasiga ijobiy yoki salbiy ta'siri borasidagi fikrlar xilma-xilligiga qaramay, uning yuzaga kelish omillari psixoanalizdagi psixika tuzilmasining o'zaro qarama-qarshiliklari hisoblanadi. Bu esa tasavvuf ta'limotida ilgari surilgan g'oyalar bilan ham o'xshashlik jihatlarida aks etadi. Ya'ni:

Super ego – Nafsi mulhima

Ego – Nafsi lavvoma

ID – Nafsi ammora

«Id» bu bizning nafsi ammoramizdir. Nafsi ammora insonni insoniyligidan, musulmonlarni musulmonligidan ayiradigan eng katta ofat hisoblanadi. Uning sifatlariga kufr, shirk, g'aflat, jaholat, gunohlarga sho'ng'imoq, kibr, hirs, baxillik, g'azab, hasad, nafrat, shahvat kabi sifatlar kiradi. Nafsi ammora o'z sifatlarini nafsi mulhimadan qondirishni talab qiladi. Nafsi lavvoma bu nafsning ikkinchi martabasi bo'lib, bu nafsi ammoraning bir oz isloh qilingan shaklidir. Kufr va shirkdan o'zini qanchalar qutqazgan bo'lsa ham boshqa yomon sifatlar unda mavjud bo'lgani uchun ozgina bo'sh qo'yilsa, nafsi ammoraning domiga tushib qoladi. Nafsi ammora sifatlarining qondirilishiga nafsi mulhima qarshi chiqadi. Natijada nafsi lavvoma himoya mexanizmlaridan foydalana boshlaydi. U doimo nafsi lavvomani tergap turadi. Nafsi mulhimaning sifatleri ilm. tavoze, tavba, sabr, shukr, qanoat, bardosh hisoblanadi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Yuqorida keltirilgan nazariyalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki psixologik himoyani ayrim olimlar ijobiy mexanizm sifatida qarasar ayrimlari esa salbiy mexanizm sifatida e'tirof etadilar.

Bizning fikrimizcha, individning ijtimoiylashuv jarayoni bosqichlarida ta'lim va tarbiya to'g'ri shakllantirilmasa, psixologik himoya mexanizmlari «Ego»ni qo'rquvdan, noqulayliklardan va ko'ngilsiz voqealarning ta'sirlaridan vaqtinchalik himoya qiladi, biroq ular voqelikdan uzilishga, kuch-quvvatni uyg'otishga, fe'l-atvordagi noxush o'zgarishlarga va somatik buzilishlarga olib keladi.

Himoya mexanizmlari qo'rquvdan ozod etadi-yu, ammo insonni erkidan mahrum qiladi, ichki ziddiyatlardan ozod etib, tashqi ziddiyatlarga duchor qiladi.

1.2. Himoya mexanizmlari tiplari va ularning psixologik xususiyatlari

Kundalik hayotda «Himoya» so'zini ko'p qo'loqqa chalinadi va undan aksariyat odamlar foydalanadi. «Himoya» so'zini eshitganimizda birinchi bo'lib ko'z oldimizga ma'lum bir ko'ngilsizliklardan bizni himoya qiluvchi vositalar keladi. Misol uchun to'satdan yomg'ir yog'ib qolsa birinchi bo'lib undan qanday himoalanishni o'ylaymiz va atrofdan soyabonni qidira boshlaymiz. Yosh bolalar esa «Himoya» degan so'zni eshitsa ko'z oldilariga birinchi bo'lib ota-onalari keladi. Ular yosh bo'lganliklari va o'zlarini-o'zlari himoya qilishga imkoniyatlari yetmaganliklari sababli ota-onalari ularning himoyachisi hisoblanadi. Ammo, psixologik himoya mexanizmlari bulardan tubdan farq qiladi.

Z.Freyd fikriga ko'ra, psixologik himoya mexanizmlari shaxsning intrapsixik dinamikasining asosiy mexanizmi hisoblanadi. Chunki ongsiz va ongli jarayonlar o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'lganda himoya mexanizmlari ularni murosa qilishga undaydi. Ularning faollashishi psixikadagi chuqur o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ilmiy tadqiqot ishlarida olimlar psixologik himoya mexanizmlariga shaxslarda xulq-atvor ko'rinishlarini namoyon qiluvchi xususiyat sifatida qaraydilar. Shuning uchun shaxslarda mavjud bo'lgan xulq-atvor ko'rinishlari himoya

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

mexanizmlariga asoslanadi. Ana shunday olimlar sirasiga Z.Freydni misol tariqasida keltirish mumkin.

Z.Freyd xulq-atvorning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali birinchilardan bo'lib himoya mexanizmlarini ajratib ko'rsatdi. Uning fikriga ko'ra, himoya mexanizmlari ong chegaralaridan tashqarida sodir bo'ladigan o'ziga xos himoya jarayonidir. Ular emotsional ziddiyatlarni hal etish, zo'riqishlardan xalos bo'lish va xavotirni yo'qotish maqsadida ongsiz va avtomatik tarzda ishga tushadi.

Shaxs jamiyatdagi faoliyati davomida ko'plab potogen omillarga sabab bo'luvchi ko'ngilsiz holatlarga duch keladi. Ong shaxsda turli xil noxushliklar keltirib chiqarishni rag'batlantiradi. Shaxs esa ulardan xalos bo'lishga intilib, noxush ma'lumotlarni ongsizlik maydoniga o'tkazadi. Ammo siqib chiqarilgan bu ma'lumotlar shaxsga bosim o'tkazadi va xulq-atvorda o'zini namoyon qilishga intilib, onglilik va ongsizlik o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Z.Freyd fikriga ko'ra, himoya mexanizmlarining o'ziga xos tiplari (himoya xulq-atvori tiplari) va psixik kasalliklar o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Masalan: siqib chiqarish isteriklar mexanizmi; regressiya, izolyatsiya – obsessiya alomati; proeksiya paranoya alomatidir.

Bugungi kunda himoya mexanizmlari tiplarining soni bo'yicha turli xil qarashlar mavjud. Z.Freyd shaxs psixikasini himoya qiluvchi to'qqiz xil mexanizm borligini ta'kidlagan. Uning nazariyasiga ko'ra, ushbu barcha himoya mexanizmlari siqib chiqarish mexanizmiga asoslangan. Siqib chiqarish ong osti-impluslari bosimi ostida shaxs xulq-atvorini tartibga soluvchi mexanizmlar qatorida birinchi hisoblanadi.

A.Freyd birinchi bo'lib himoya mexanizmlarining tiplarini batafsil bayon qildi va ularni o'n besh xil tiplarga ajratgan. L.I. Vasserman esa psixologik himoya mexanizmlarini o'ttiz to'rt xil tiplarga ajratadi. Plutchik va Kellerman psixologik himoya mexanizmlarini 8 xil tipga bo'ldi. Shuningdek, bugungi kunda himoya mexanizmlarining barchasi to'rtta katta guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh – ong qabul qilmaydigan his-tuyg'ular, istaklar va fikrlarni yo'q qilishga qaratilgan mexanizmlarni birlashtiradi. Ularga siqib chiqarish va rad etish kiradi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ikkinchi guruh – ong qabul qilishni istamaydigan his-tuyg'ular, istaklar va fikrlarni o'zgartiradigan yoki buzib ko'rsatadigan mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Ularga ratsionalizatsiya, o'rnini to'ldirish, proeksiya va identifikatsiya kabi himoya mexanizmlari kiradi.

Uchinchi guruh esa o'z ichiga salbiy kuchlanishlarni chiqarib tashlashga olib keluvchi himoya mexanizmlarini oladi. Ularga kompensatsiya, giperkompensatsiya, sublimatsiya va somatizatsiya kabi mexanizmlar misol bo'ladi.

To'rtinchi guruhga manipulyatsiya qilishga imkon beradigan mexanizmlar kiradi. Ular esa regressiya, fantaziyalash kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

AQShlik tadqiqotchi P.Kramer psixologik himoya ontogenezini o'rganib, ularni quyi himoya mexanizmlari va oliy himoya mexanizmlari quyidagi turlarga ajratadi.

Primitiv psixologik himoya (inkor etish, siqib chiqarish, regressiya, almashtirish) motor va sensor mexanizmlarning amal qilishi bilan bog'liq bo'lib, bola tomonidan nizoli vaziyatda emotsional holatni yengillashtirish uchun qo'llanilishi kuzatilishini ko'rsatib o'tgan.

Biz endi ushbu guruhlar tarkibiga kiruvchi asosiy himoya mexanizmlarining batafsil tavsifini keltirib o'tamiz. 3.Freyd nazariyasiga ko'ra, siqib chiqarish asosiy himoya mexanizmi bo'lib, barcha mexanizmlarning asosi hisoblanadi.

Siqib chiqarish. Siqib chiqarish – yoqimsiz yoki bezovta qiluvchi ma'lumotlarni ongli ravishda ong osti holatiga o'tkazish mexanizmi hisoblanadi. Bu qabul qilinmaydigan motiv yoki eng yoqimsiz vaziyatni ondan chiqarib, ichki nizolardan xalos bo'lishning eng universal usulidir. Inson xavotir uyg'otayotgan haqiqatni unutadi, hech narsani sezmaydi, ko'rmaydi va eshitmaydi. Siqib chiqarish ba'zan «Motivatsiyali unutish» deb ham ataladi. Bunday holda, noxush voqealar ondan chiqarilmaydi, balki ularni keltirib chiqaruvchi sabablar o'rtasidagi aloqalar faol ravishda yo'q qilinadi. Ammo, siqib chiqarilgan hislar va impulslar yo'q bo'lib ketmaydi. Ular o'zlarining quvvatini va faolligini ongsiz ravishda saqlab qoladilar. Natijada esa onglilik holatiga o'tmaslik uchun shaxsdan doimo psixik quvvatni sarflashni talab etib turadilar. Bu jarayon shaxsning xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

qiladi. «Id» mayllarini yuzaga chiqarmaslik uchun sarflanayotgan quvvat shaxsning ijtimoiy faolligi imkoniyatlarini susaytiradi. Natijada esa isterik shaxslar shakllanadi.

Siqib chiqarishni yuzaga keltiruvchi quyidagi determinantlar mavjud:

- mayllar kuchliligi;
- vaziyatni qondirish uchun Super-ego taqiqining kuchsizligi;
- impulsni sublimatsiya qilish usullarining yetishmasligi;
- inson o'zining kuchi orqali qo'rquv, xavotir va nizoni yenga

olmasligi.

Bu determinantlar «Ego»ning kuchsizligidan darak beradi va «Id»ning taqiqlangan talablariga qarshi turishda yordamga ehtiyoj sezadi. Bunday holda siqib chiqarish o'z vazifasini bajarishga kirishadi. Agar mayllarni to'g'ridan-to'g'ri qondirishning iloji bo'lmasa, ular siqib chiqarilib, ong ostiga o'tkazib yuboriladi. Biroq, mayllar bilan kelgan barcha energiya ongsizlik holatiga tushadi. Shuning uchun mayllar yana o'zlarini qondirilishini talab qilishdan to'xtamaydilar va shaxsning xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadilar. Siqib chiqarishning asosiy qonuni mayllar impulsni qanchalik kuchli bo'lsa, siqib chiqarish kuchi ham shunchalik kuchli bo'lishi kerak.

Shaxs avvalo ichki mayllarni siqib chiqaradi, ammo tashqi reallik ham ushbu mexanizm ta'siriga tushadi. Bunday holda, tashqi muhit ta'sirida yuzaga kelgan holatlarning og'riqli nuqtalari individ tomonidan beixtiyor-buziladi. Bu jarayonlarning bo'lishiga asosiy sababchi kuch «Super-ego» hisoblanadi. «Super-ego» odamni bezovta qiluvchi ma'lumotlarga befarq qiladi. Haqiqatni bostirish o'tmishdagi ismlarni, shaxslarni, vaziyatlarni, voqealarni unutishda namoyon bo'ladi.

Agar siqib chiqarish muvaffaqiyatli chiqsa, aybdorlik hissi olib tashlanadi, psixologik farovonlik qaytadi. Buning badalini shaxs o'zini hurmat qilishning axloqiy me'yorlarini pasaytirish orqali to'laydi. Agar siqib chiqarish ro'y bergan bo'lsa, ammo, shaxsda aybdorlik hissi olib tashlanmasa, unda «Ego»da yuzaga kelgan keskinlik fobiya, qo'rquv kabi nevrotik reaksiyalarni qeltirib chiqarishi mumkin.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Regressiya. Insonlarga ko'pincha ko'ngilsiz, yoqimsiz hodisalarni bartaraf etish juda qiyindek tuyuladi. Shunda ularni bartaraf etishda kurash va iroda kuchiga ehtiyoj sezmaslik uchun o'zini yanada o'jizroq qilib ko'rsatishga harakat qilishadi. Bunday holda, regressiya mexanizmi ishga tushadi va odamlar ibtidoiy xulq-atvor shakllariga qaytadilar. Z.Freydning fikriga ko'ra, mazkur himoya mexanizmi teskari rivojlanish yo'li, ya'ni psixik rivojlanishning oldingi bosqichiga qaytishidir. Masalan, ko'p yillar davomida chekmagan va bu odatni o'ziga zararli deb bilgan odam qattiq stress holatida to'satdan sigareta olib, chekishni boshlashi mumkin. Regressiya ko'pincha kasallikni simulyatsiya qiladi. Hayotda o'zlariga munosib joy topa olmagan ba'zi odamlar aslida kasal bo'lmasalar ham, o'zlarini kasaldek tutishlari mumkin. Buning sababi shundaki, ular o'zlaridagi kamchiliklarni atrofidagi insonlarning yordami bilan to'ldirish uchun ongsiz ravishda o'zlarini baxtsiz va omadsiz his qilishadi. O'zini o'jiz va zaif his qilgan bola ota-onasining rahm-shafqatidan umid qiladi. Biroq, kattalar bunday qila olmaydilar. Natijada o'z maqsadiga erishmoqchi bo'lgan insonlar ongsiz ravishda kasal bo'lib oladilar. Shunda atrofidagi insonlar unga achinishni boshlaydilar, homiylik qiladilar va xatolarini kechiradilar. Ammo, kasal bo'lib olish muammoni bartaraf etishga yordam bermaydi. Aksinsa, shaxsni azob-uqubatlarga duchor qilishi mumkin. Psixologik sabablar fojeali yakunga olib kelishi mumkin. Organizm hal qilinmagan psixologik muammolar qurboniga aylanadi. Bu ham ongsiz ravishda sodir bo'ladi va shaxs uchun qulaylik yaratadi. Agar kasal bo'lib olish kutilgan natijani bermasa, unda regressiya bolalik xulq-atvorining shakllariga qaytishni keltirib chiqaradi. Bu o'zini tuta olmaslik, norozilik, beparvolik shakllarida ifodalanadi.

Proeksiya. Proeksiya o'zining his-tuyg'ulari, istaklari va mayllarini boshqa odamga ongsiz ravishda o'tkazishda ifodalangan asosiy himoya mexanizmlaridan biri. Ushbu mexanizmnining mohiyati o'zi uchun yoqimsiz his-tuyg'ularini ongsiz ravishda rad etish va ularni boshqa odamga berish hisoblanadi. Bunday holda, ularning qabul qilinishi mumkin bo'lmagan ichki tuyg'ulari uchun javobgarlik tashqi holatlarga, ya'ni odamlarga, narsalarga va vaziyatlarga yuklanadi. Proeksiya himoya mexanizmidan foydalanmoqchi bo'lgan odam, ko'pincha, ma'lumotni cheklaydi va o'zini tanqid

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

qilmaydigan anglash darajasiga olib keladi. Proeksiya mexanizmi ko'plab shaxs xususiyatlari va tuzilmalari asosida yotadi. Bu mexanizm inson o'zining nuqsonlari va gunohlarini boshqa insonlarga berib, o'zini oqlamoqchi bo'lishi bilan xarakterli hisoblanadi. Ichki kechinmalar sub'ekt tomonidan unga bog'liq bo'lmagan tashqi holatlar sifatida talqin etiladi. Ko'pincha proeksiyaning ob'ektlari insonning atrofidagi yaqinlari bo'lishadilar. Inson o'zidagi muammolarini sabablarini boshqalardan izlab topishga moyil bo'ladi. Bundan tashqari, u o'zining haq ekaniga chin dildan ishonadi.

Proeksiya himoya mexanizmiga misol qilib, G'afur G'ulomning «Shum bola» asaridagi bir voqeani misol qilib olish mumkin. Shum bola va uning do'sti Omon bozorda narsalarini sotib bo'lgandan so'ng, Omonga qo'y olish uchun mol bozoriga borishadi. Bozorda ular bir ko'ngilsiz voqea guvohiga aylanib qoladilar. Qo'shni mahallada yashovchi Sulton o'g'ri bozorning o'rtasida, musulmonlar pulimni oldirib qo'ydim, deb qichqirar va yonidagi bir begunoh yigitni aybdor qilib qo'rsatar edi. Aslida esa Sulton o'g'ri o'zidagi salbiy xislatni bir begunoh yigitga proeksiya qilardi.

Proeksiya himoya mexanizmidan foydalanish bolalar uchun odatiy hol bo'lib, ular bundan juda ko'p foydalanadilar. Ular nomaqbul xatti-harakatlarni amalga oshirib qo'yganda, buni kim qildi? degan savol bilan murojaat qilsangiz, ular ongsiz ravishda o'zi qilgan xatosini sizga yoki boshqa yaqinlaridan biriga proeksiya qiladi. Proeksiya «Men obrazini» saqlashga imkon berishi bilan ijobiy hodisa sanaladi. Hayotning muayyan tamoyillarini shakllantiradi. Qahri qattiq inson o'zgalarning mehribonligiga ishonmaydi. Yolg'onchi odam boshqalarning rostgo'yiligiga shubha qiladi.

O'rnini to'ldirish. O'rnini to'ldirish himoya mexanizmida ijtimoiy doiralarda ixtilof tug'dirayotgan impulslar (odatda agressiv), unga haqiqatan taalluqli kishidan uning o'rnini bosuvchiga (ramziy ma'noda kam tahdid tug'diruvchi sifatida idrok etiluvchi) ko'riladi. Faqatgina «Men» uning nimaligini belgilaydi: haqiqiy ob'ektmi yoki uning o'rnini bosuvchi. Id va Super-Ego impuls qondirilishiga intiladilar, xolos.

Shuningdek, qondirilmagan ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan keskinliklarni bartaraf etish maqsadida inson harakatni erishib bo'lmaydigan narsadan erishib bo'ladigan narsaga o'tkazadi. O'rnini to'ldirish energiya sifatini saqlaydi va mayllarni qondirishni

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

ta'minlaydi, ammo boshqa o'rnini to'ldiruvchi narsalarga energiyani sarflaydi. Bu tajovuzkor shaklda tanatos yoki libidoning energiyasini faollashtirish ob'ektlarini almashtirishdir. Qondirilmagan ehtiyojni qondirish uchun odam har qanday, ko'pincha ma'nosiz harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Agar frustratsiyani yuzaga keltiruvchi omilni yo'q qilishning iloji bo'lmasa, sub'ekt o'zi tajovuz predmetiga aylanadi. Bunday holatni bartaraf etish bir qator jismoniy va ruhiy alomatlarini keltirib chiqaradi:

- terlash, yurak aritmi, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, qon bosimning buzilishi, yurak kasalliklari, gastrit, oshqozon yarasi, dermatit;

- asabiylashish, e'tiborning buzilishi, depressiya, nomukammallik komplekslari, xavotirning kuchayishi, autizm.

- O'rin almashtirishning ekstremal shakli noqulaylik tug'diradigan vaziyatda faollikni rad etish hisoblanadi. Faollikdan qochish, boshqasiga o'tish bilan qoplanishi mumkin. Faollikdan butunlay qochish bu o'lim yoki o'z joniga qasd qilish bo'ladi.

Rad etish. Rad etish bu yoqimsiz bo'lgan ma'lumotni e'tiborsiz qoldirishdir. Bu mexanizmning mohiyati tashvish keltiruvchi ma'lumotlardan uzoqroq yurishga intilish hisoblanadi. Mazkur mexanizmdan foydalanayotganda shaxs o'zi uchun salbiy bo'lgan har qanday ma'lumotlarni qabul qilmaydi. Bu ko'pincha ustanovkalarga, belgilangan talablarga va axloqiy me'yorlarga zid bo'lganda sodir bo'ladi. Rad etish natijasida shaxsning obro'si, mavqei va ijobiy o'zini o'zi qadrlashiga nisbatan tahdid yo'q qilinadi. Ushbu usul qayta ishlangan ma'lumotni keskin ravishda buzadi va odamga yetarli baho berishga imkon bermaydi. Har qanday odamning u uchun kutilmagan va juda yoqimsiz yoki hatto fojiali yangiliklarga bo'lgan birinchi reaksiyasi «Yo'q! Bu bo'lishi mumkin emas!» deb qarshilik ko'rsatishdir. Rad etish yoqimsiz ma'lumotni e'tiborsiz qoldirishda namoyon bo'ladi. Inson buni sezmaydi, eshitmaydi, qabul qilishdan bosh tortadi va shunga ko'ra, bu voqealarning hech birini anglamaydi. Shu yo'sinda yoqimsiz kechinmalardan xalos bo'ladi. Bu mexanizm ibtidoiy himoya mexanizmi tiplaridan biri hisoblanadi. Rad etish ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar biror kishi xavf haqida o'ylamasa, uni rad etsa, u holda qahramonlik qilishi

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

mumkin. Shuningdek, xavfning haqiqiy darajasini qabul qilishdan bosh tortish shaxsning ong, xotirjamlik va yetarlicha harakat qilish imkoniyatini saqlashga imkon beradi.

Ratsionalizatsiya. Intellektualizatsiyaning bir ko'rinishi ratsionalizatsiya hisoblanadi. Ratsionalizatsiya – bu ma'lumotlarning faqat ma'lum qisminigina anglash va fikrlashda foydalanish bilan bog'liq ximoya bo'lib, unga ko'ra insonning o'z xatti-harakati yaxshi nazorat qilinadi va ob'ektiv sharoitlarga mos keladi. Bunday holda, vaziyatning qabul qilinmaydigan qismi ongdan olib tashlanadi, maxsus tarzda o'zgartiriladi va undan keyin o'zgargan shaklda qabul qilinadi. Ushbu himoya turi orqali insonlar o'zlarining shaxsiy yoki ijtimoiy jihatdan qabul qilinmaydigan fazilatlari, istaklari, harakatlarini oqlash uchun ishonchli dalillardan foydalanadilar. Ratsionalizatsiya himoya mexanizmi sababli agar shaxs biror-bir narsaga erishsa, qo'lga kiritgan narsasining va o'zining xatti-harakati qiymatini oshirib yuboradi. Aksincha, u kutgandek natijaga erishmasa, o'zini xatti-harakatlarini oqlash maqsadida erisha olmagan narsani qadr-qiymatini pastga ura boshlaydi. Agar ratsionalizatsiya tipi o'z vaqtda ishga tushmasa, shaxsda tashvish va pushaymonlik hislarini yuzaga chiqaradi. Qachonki, u istagan narsasini ololmasa va bundan xafa bo'lsa, «Men aslida buni uncha xohlamagan edim», deya o'ziga taskin berib, ularni qadrsizlantirishga yoki obro'sizlantirishga tushadi. Ushbu himoya turiga moyil bo'lgan shaxslar o'z majburiyatlarini e'tiborsiz qoldiradilar.

Kompensatsiya. Kompensatsiya himoya mexanizmida inson o'zidagi mavjud bo'lgan kamchiliklar tufayli kelib chiqadigan ruhiy zo'riqishlardan xalos bo'lish maqsadida boshqa sifatlarini rivojlantiradi.

Adler kompensatsiya himoya mexanizmining turli shakllarini ko'rib chiqadi va uning namoyon bo'lishining turli darajalarini aniqlaydi. A.Adler turli xil turmush tarzini yaratadigan bir nechta kompensatsiya turlarini aniqlaydi:

a) muvaffaqiyatli kompensatsiya. Ijtimoiy manfaatlar bilan ustunlikka erishish hisoblanadi. Bu himoya psixik energiya nuqtai nazaridan eng maqbul turmush-tarzi hisoblanadi;

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

b) giperkompensatsiya. Hayotga bir tomonlama moslashish hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, shaxs sifatlarining nomukammal jihatlari kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni ham oshirib yuboradi va natijada kuchli himoya reaksiyalarini vujudga keltiradi.

s) «Kasallikka moyillik». Shaxs odatiy kundalik turmush-tarziga moslasha olmaydi. Natijada, nokummallik hissi paydo bo'ladi. Bu esa shaxsning vaziyatga bo'lgan bahosini o'zgartiradi va uni o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli o'zi uchun imkonsiz deb hisoblaydi. Kamchiliklarni oqlash uchun kasallik alomatlarini rivojlantiradi. Aynan ushbu moslashuv shakli nevrozning paydo bo'lishi nuqtai nazaridan eng xavflidir. A.Adler nevrotik alomatlar muvaffaqiyatsiz kompensatsiya shakllari sifatida qaralishini ta'kidlaydi.

Giperkompensatsiya – bu psixikaning himoya mexanizmi bo'lib, u ongsiz ravishda haqiqiy va o'ylab topilgan kamchiliklarni bartaraf etishga urinishdan iborat. Bu atama Z.Freyd tomonidan kiritilgan va keyinchalik hayot strategiyasi sifatida tushunilgan va A.Adlerning individual psixologiyasida markaziy fenomenlardan biriga aylangan. Odatda giperkompensatsiya o'zini insonning kamchiliklarini «qoplab bergandek» faoliyatga tatbiq etiladigan qo'shimcha harakatlar shaklida namoyon qiladi. Masalan, nogiron odam uchun sport bilan shug'ullanish giperkompensatsiya mexanizmi bo'ladi. Agar kompensatsiya uchun sarflangan harakatlar yetarlicha katta bo'lmasa, bu giperkompensatsiya deb ataladi.

Giperkompensatsion xatti-harakatlar shakli jihatidan juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan, ko'r insonning musiqachi bo'lishga intilishi, jismonan zaif bo'lgan odamning boshliq bo'lishga intilishi, qiyin sohada muvaffaqiyatga erishishga urinish, boshqa sohada muvaffaqiyatga erishishga intilish. Giperkompensatsiya himoya mexanizmi kompensatsiyadan farqli ravishda ruhiy zo'riqishlardan xalos bo'lishni maqsad qilmaydi. Aksincha, inson o'zidagi mavjud bo'lgan kamchiliklar tufayli kelib chiqadigan ruhiy zo'riqishlardan xalos bo'lish maqsadida o'z sifatlarini atrofdagi insonlardan ustun bo'lish uchun rivojlantirishga harakat kiladi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Islom dinida qo'rquv psixologik himoya mexanizmi sifatida talqin qilingan bo'lib, Naqshbandiya tariqatining yirik shayxlaridan bo'lmish hazrat Amir Kulol (q.s.) xavfu va rajo haqida shunday deganlar:

Murg'i iymonro du par: xavfu rajost,

Mug'ri beparro paridan xatost

Mazmuni: Iymon qushida ikki qanot bor: biri xavf va ikkinchisi rajo. Mo'min kishi umidsiz qo'rquvga, qo'rqusiz umidga tushmasligi kerak. Agar bu ikkisidan biri bo'lmasa, inson yo ortiqcha umidsizlikka tushadi, yo qo'rquvni unutib, oqibat zalolatga botadi. Shuning uchun mo'min kishining gunohlardan qo'rqib qochishi, faqat savobli ishlarga qo'l urishi eng maqbul yo'ldir.

Qo'rquv deganda «xavfulloh» va «xashyatulloh» deb ataladigan Allohdan qo'rqish tuyg'usi anglashiladi. Zero, bu qo'rquv orqasida jahannam azobi va Jannatdan mahrumlik iztirobi yotadi:

- Allohdan qo'rqish;
- oxiratdan qo'rqish;
- man qilingan ishlarni qilishdan qo'rqish;
- iymonni boy berishdan qo'rqish;
- salbiy qo'rquvlar;
- dunyoviy narsalarni boy berishdan qo'rqish;
- dushmandan qo'rqish;
- o'limdan qo'rqish.

Yuqorida keltirilib o'tilgan himoya mexanizmlarining turlari va ularning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagicha xulosalarga kelish mumkin. Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari Psixika apparatining tuzilmaviy modeli bo'lgan «Super-ego», «Ego» va «Id» o'rtasidagi munosabatlar zahirida yuzaga keladi. Ya'ni, «Id» tomonidan yuzaga kelayotgan qo'rquvni susaytirmoqchi, bartaraf etmoqchi yoki uni yengib o'tishga harakat qilmoqchi bo'lgan «Ego»ning himoyaviy funksiyalari hisoblanadi.

1.3. Dindorlik tushunchasining psixologik mazmun-mohiyati

Dindorlik ijtimoiy-psixologik tushuncha sifatida shaxs rivojlanishida va hayot faoliyati davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki dindorlik inson bilan vujudga kelgan, u bilan mavjud va shu shaklda davom etuvchi bir iymon va e'tiqod masalasidir. Inson tabiatan dindor bo'ladi. Dindorlik insonning fitratida mavjud bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Inson dindorlikka mansub bo'lgan kechinmalar bilan tug'iladi. Shuning uchun ham inson hayoti davomida qaysidir dinga e'tiqod qiladi ya'ni ishonadi. Ularning ongida e'tiqod qiluvchi narsalar din hisoblanadi. Shuning uchun biz insonlarni dindor yoki dindor emas degan farqlarga ajratishimiz bu borada yanglish mulohazalar namoyon bo'lishiga olib kelish ehtimolini beradi. Shu boisdan ham jahon miqiyosida ilm-fanni rivojlantirish uchun olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida shaxs dindorligiga oid masalalar o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bugungi kunda dindorlik ko'plab fanlarning xususan, falsafa, psixologiya va sotsiologiya kabi fanlarning o'ziga xos yo'nalishlarida o'rganiladi.

Dindorlik so'zining o'zagi «din» hisoblanadi, falsafiy lug'atlarda dinga quyidagicha ta'rif berilgan. Din – bu dunyoqarash, insonlarning atrof'dagi haqiqatlarga bo'lgan munosabati va g'ayritabiiy bir Kuch borligiga ishonishga asoslangan munosib xulq-atvor hisoblanadi.

Din o'z ta'sir vositalaridan kelib chiqib insonlarni dindorlikka yo'naltiradi. Shaxs esa o'zida dindorlik xususiyatlarini shakllantiradi. Bu esa qadimdan D.Yum, I.Kant, V.Gegel, S.Kerkegor singari faylasuf olimlar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan.

I.Kant falsafasining dinga bo'lgan munosabati uning «Sof aqlga nisbatan tanqid» asarida yoritilib berilgan. Olim asarida insonning aqli ko'plab narsalarning mohiyatini anglab yetishga qodir emasligini ta'kidlaydi. Inson faqatgina haqiqiy olamning o'zaro ta'siri va inson qobiliyati natijasida vujudga keladigan hodisalarning mohiyatini bilishi mumkin. Allohning mavjudligini va ruhning o'lmasligini isbotlash va ularni anglab yetish mumkin emas, degan xulosaga keladi. Bizlar esa unga ishonib ma'lum bir axloqiy me'yorlar talabini bajaramiz. Allohga intilish insonning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatdir, chunki shu yo'l tufayligina inson axloqiy idealga erishishi

mumkin. Diniy ongning mazmuni Alloh axloqiy qonunlar yaratuvchisi degan tushunchaga xizmat qilish hisoblanadi. Din esa inson tomonidan barcha axloqiy burchlarni Xudoning amrlari sifatida tan olishdan iboratdir hamda axloqiy burchlar insonni dindorlik sari yetaklaydi. deb ta'kidlaydi.

Gegel falsafasiga ko'ra, dindorlik va uning mohiyatini o'ziga xos fikrlash tizimi sifatida qaraladi. Insonning asosiy vazifasi Allohning haqiqatlarini mantiqiy tushunish hisoblanadi.

Psixologiyada dindorlik tushunchasining mohiyatini anglab yetishda birinchilardan bo'lib o'z tadqiqot ishlarini olib borgan olim amerikalik faylasuf va psixolog U.Jeyms hisoblanadi. U.Jeyms nazariyasi dindorlikning vujudga kelishini o'rganish uchun «Diniy tajriba»ni tadqiq qilish g'oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, diniy tajriba muayyan shaxsning ichki psixik olamida joylashgan. Insonlar millati, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, ularning barchasida o'z diniy tajribalari bor. Ammo bu tajriba insonlarda turli darajalarda mavjud bo'ladi. Ulardan ba'zilari o'z ruhiyatlarida ilohiyotga juda moyil bo'ladilar. Ular ko'proq ruhan ilohiyot bilan uyg'unlashib ketishga qobiliyatlidirlar. Masalan, xristianlik, islom dinlaridagi avliyolar, buddaviylikdagi bothisatvalar bunga yaqqol misol bo'la oladilar. Boshqalari oddiy dindorlar hisoblanib, yuqoridagi qobiliyatdan kamroq bahramand bo'lgan insonlardir. Yana bir toifadagilar esa o'zlarida umuman ilohiy chaqiriqni his qilmaydiganlar, ya'ni ular e'tiqodsiz kishilardir.

U.Jeymsning aytishicha, diniy tajriba barcha dinlardagi e'tiqod qiluvchilarda – buddaviy, xristian, musulmon bo'lishidan qat'i nazar bir xildir. U holda diniy aqidalar, oqim va mazhablar qanday kelib chiqdi? degan savol paydo bo'ladi. U.Jeyms mana shu joyda ijtimoiy voqelikning ta'siriga murojaat etadi. Uning fikricha, kishilar muayyan ijtimoiy yashash sharoitlari - tug'ilgan joyi, oilasining diniy e'tiqodiga ko'ra buddist, xristian yoki musulmon bo'ladilar. Ammo, ijtimoiy ta'sirlar shaxsning diniy hayoti uchun ikkinchi darajali va kam e'tiborga loyiqdir. Hal qiluvchi o'rinni bevosita va bilvosita hissiyot va ichki kechinmalar o'ynaydi. Xuddi mana shu fikrdan U.Jeyms ilgari surgan dinning davolash funksiyasi haqidagi nazariya kelib chiqadi. Dindorlik

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

o'zida inson uchun foydali ta'sirlari bo'lgan muayyan psixologik mexanizmlarni mujassam etgan. Dinda insonni chidab bo'lmas darajada azob berish yoki hech kim hadya etolmaydigan mustahkam, haqiqiy baxt ato etish kabi mo'jizakor kuch bor.

Shuningdek, olim o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida birinchi bo'lib dindorlikni ongsizlik tushunchasi bilan bog'lagan. Uning ta'kidlashiga ko'ra, dindorlik shaxsning hissiyotlari, harakatlari va tajribalarini o'zida jamlovchi xususiyat hisoblanadi. Ya'ni, shaxsning dindorlik xususiyatlari ularning tajribasida va emotsional sohasi zahirida paydo bo'ladi. Chunki, dinning kelib chiqishi bevosita emotsional tajribaga asoslanadi va shundan keyingina diniy hamda falsafiy g'oyalar tizimiga aylanadi. Din U.Djeyms aytganidek, shaxsning his-tuyg'usi, harakati va tajribasi, shuningdek u Xudo sifatida hurmat qiladigan narsalarga munosabatidir.

E.Fromm fikriga ko'ra inson tabiatidagi eng asosiy dixotomiya bu hayot bilan o'lim o'rtasidagi kurash hisoblanadi. Fromm o'z ta'limotini «Gumanistik psixologiya» deb nomladi va bunga oid bir necha asarlar yozdi. Uning insonparvarlik an'anasi inson dindorligining tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bu yangi ilmiy istiqbollardan biri hisoblanar edi. U inson dindorligining mohiyatini ma'lum bir tarixiy davr madaniyati ta'siri nuqtai nazaridan tushuntirish mumkin, degan fikrni ilgari suradi.

Eksperimental psixologiyaning asoschisi bo'lgan V.Vundt dindorlikning shakllanishini ibtidoiy va diniy bo'lmagan sub'ektiv voqealardan kelib chiqadigan evolyusion jarayonning ajralmas qismi deb hisoblaydi. Dindorlik shaxsda «Bizning dunyomiz inson hayotining eng yuqori maqsadlarini amalga oshiradigan g'ayritabiiy narsalarning bir qismidir» degan tushunchani shakllatiradi.

S.Xol biogenetik nazariyasiga ko'ra, individual psixologik rivojlanish inson madaniyati va dinini rivojlanishining evolyusion yo'nalishini umumlashtiradi. Xoll diniy tuyg'ularni go'dakning dastlabki oylarida rivojlanishini taxmin qiladi. Bu esa go'dakda ishonch, minnatdorhilik, qaramlik va muhabbat kabi tuyg'ularni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu kabi munosabatlar dastlab onaga qaratilgan bo'ladi. Keyinchalik Allohga qaratiladi. Dastlabki diniy rivojlanish ko'pincha uzoq

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

muddatli diniy infantilizmga olib keladi, shuning uchun bolaning o'zgaruvchan ehtiyojlari va qiziqishlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishni hisobga olgan holda diniy ta'lim juda ehtiyotkorlik bilan qurilishi kerakligi ta'kidlanadi. Olim tabiatga bo'lgan munosabatni har bir millatning birinchi dini ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun bu tabiat ilmi bolalarga, albatta, berilishi kerak, deb o'ylaydi. Ta'limning vazifasi esa bolaning tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatini qo'llab-quvvatlashdir.

Psixologiya fanida ham mazkur tushuncha uning turli yo'nalishlari doirasida o'rganilib chiqilgan. Xususan, dindorlik tushunchasi borasida psixoanalitik yondashuv vakillaridan Z.Freyd va K.G. Yung kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Z.Freyd o'zini nihoyatda dinga nisbatan neytral shaxs sifatida namoyon qilishiga qaramay, uning psixoanalitik nazariyasida dindorlik tushunchasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. «Totem va tabu» asarida ibtidoiy jamiyatda dinning kelib chiqishi to'g'risida farazlar ilgari suriladi. Dindorlik Edip kompleksidan kelib chiqadi va tabiat kuchlari oldida odamning o'zligini yengib o'tish usuli sifatida talqin etiladi. Shuningdek, Z.Freyd diniy ta'limotlarni illyuziya sifatida baholaydi va dindorlikni «Ilohiy kuchlar majmuasi» bilan bog'laydi. Dindorlik psixikaning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan kelib chiqishi ta'kidlab o'tiladi.

Z.Freydning nazariyasi ikkita postulatga asoslanadi:

- 1) dindorlik – bu kollektiv nevroz;
- 2) dindorlik – bu nevrozga qarshi jamoaviy ravishda ishlab chiqilgan vosita.

Olimning qarashicha, dindorlikni ham, nevrozni ham vujudga keltiruvchi umumiy asos bu shaxsning ijtimoiy tabiatidir. Z.Freyd fikriga ko'ra, dindorlik ma'lum bir himoya funksiyasini bajaradi, agar jamiyatda din bo'lmasa, unda yuzaga keluvchi voqea va hodisalarning patogen va salbiy ta'siri juda sezilarli bo'lgan bo'lur edi.

K.Yung mazkur tushuncha borasida turli xil qarashlar tizimiga ega bo'lgan. Olim jamoaviy ongsizlik nazariyasini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, diniy tajribaning chuqur ildizlari shu yerda jamlangan bo'ladi. Bu eng chuqur qatlam bo'lib, u yerda insonning aniq ifoda etilgan individualligi emas, balki uning ongsiz ravishda umuminsoniy ongi kengayib boradi, unda barcha shaxslar bir xilda bo'ladi. Olim diniy

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

ramzlar va obrazlarni eng muhim arxetiplar qatoriga kiritadi. «Arxetip» deganda u butun insoniyat avlodiga oid eng umumiy bo'lgan, ichki immanent xususiyatlarni tushunadi. «Arxetip – shunday simbolik timsoliy formulaki, anglanmagan holatda ishga tushadi va hech qachon anglanmaydi». Boshqacha aytganda, yungcha «Arxetip»lar inson holatining shakliy timsollari yoki majoziy andozalaridir. Ular asosida aniq mazmunga ega bo'lgan obrazlar shakllanadi. Inson o'z hayotiy faoliyati davomida bu timsollarga tayanadi. Yungning «Arxetip»lari inson ruhiyatining eng tubida yotgan ruhiy kechinmalardir. Ular nafaqat alohida individning, balki butun insoniyatning ko'p ming yilliklar davomida olib borgan hayotga moslashuvi va kurashi natijasida shakllangan. Bunday arxiak timsollar o'zida qadimiy ruhiy mazmunni saqlab qoladi. Qizig'i shundaki, Yung ularni faqat insongagina emas, balki butun tirik mavjudotga tegishli, deydi. Olim fikricha, dindorlik psixik salomatlik va hayotning mazmunli bo'lishiga yordam beradi. U dindorlikning zamirida shaxsni yuqori kuchlarga bo'ysunish aks etishini va uni psixologik fenomenga aylantirish kerakligini ta'kidlaydi. Olim diniy e'tiqod va marosimlar ongsiz ravishda shaxsni yashiringan xavflardan himoya qilishini ta'kidlaydi. O'z nazariyalarida dindorlikning psixologik himoya jihatlarini ham ochib beradi.

Har qanday ilmiy nazariya mavhum xarakterga ega hisoblanadi. Diniy dogmalar esa obraz orqali irratsional voqea va hodisalarni ifoda etadi. K.G. Yung fikricha, diniy dogma bu ob'ektiv psixikaning spontan va avtonom faoliyatidir. Ushbu dogma emosional jihatdan rang-barang bo'lib, asrlar davomida o'zgarib borgan. Shu sabablarga ko'ra, bu bir-birining o'rnini bosadigan va hissiy omilni hisobga olmagan ilmiy nazariyalarga qaraganda psixologik himoyaning yanada samarali vositasidir. Har qanday dinning asosiy ramziy shakllari axloqiy va intellektual munosabatni ifodalaydi. Dinning o'zi bu qadriyatlarining ta'siri nuqtai nazaridan eng kuchli munosabatlar tizimidir. Din ilohiy kuchga ega bo'lgan juda katta energiyani sarflaydi. K.G. Yung fikriga ko'ra, agar shaxs biron bir e'tiqodni rad etsa, bu energiya boshqa bir e'tiqod qilinishi kerak bo'ladigan narsani topishi kerak bo'ladi. Shuningdek, K.G. Yung

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

dindorlik psixologik hodisa bo'lib, haqiqat yoki diniy e'tiqodning soxta bo'lishidan qat'i nazar, o'rganishga loyiq ekanligini aytib o'tadi.

K.G. Yungning nazariyasiga tayangan V.A. Mazilov psixikaning ob'ektiv mavjudligini va u o'ziga xos rivojlanish mantig'iga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu metodologik asosga ko'ra psixikaning rivojlanishi dindorlik kabi xususiyatning paydo bo'lishiga olib keladi.

Gumanistik yo'nalish vakillaridan hisoblangan E.Fromm va V.Frankl o'z ilmiy tadqiqotlarida dindorlikning transendental mohiyatini e'tirof etadilar.

Gumanistik yo'nalish vakillaridan biri E.Fromm dindorlikning quyidagi ta'rifini beradi. Dindorlik insonga mazmunli mavjudlikni anglatadigan guruh tomonidan birgalikda harakat qiladigan har qanday qarashlar tizimi hisoblanadi. Dindorlik nafaqat g'oyalar, fikrlash tizimi, balki shaxsning tuzilishida ildiz otgan o'ziga xos «Emotsional matritsa»ga ega bo'lgan hodisasi hamdir. E.Fromm diniy umuminsoniy mukammal tushuncha hisoblab, uni har qanday madaniyatning asosi sifatida tushunishni taklif etadi.

S.Moskovich nafaqat dindorlikni shakllantirishga jamiyatning ta'sirini, balki dindorlikning ijtimoiy-psixologik jarayonlarga ta'sirini ham ko'rib chiqadi. S.Moskovichning ta'kidlashicha, dindorlik nafaqat insonning, balki guruhning va olomonning ruhiy energiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Dindorlik yuqish va taqlid mexanizmlari orqali yuzaga keladi.

V.Frankl dindorlik tushunchasiga hayot mazmunini izlash sifatida qaraydi. Uning fikricha, zamonaviy shaxsning muammosi lazzat hissini izlash yoki ma'lum bir mavqe yoki obro'ga intilish emas, balki hayot mazmunini topish istagi hisoblanadi. Agar inson o'z mavjudligining ma'nosini aniqlashga urinmasa, u holda nevroz holatiga duch keladi. Dindorlik mavjudlik, yolg'izlik, azoblanish va o'lim kabi hodisalarning mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradi.

Yu.P. Tobalov dinning psixoterapevtik funksiyasiga alohida e'tibor beradi. Olimning tadqiqot natijalariga ko'ra, ibodat-koping mexanizm sifatida dindorlikning o'ziga xos bo'lgan xususiyatidir. Biroq, uning shaxsga ta'sir mexanizmi birma-bir

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI


aniqlanmagan va hozirda turli xil olimlar tomonidan har xil yo'llar bilan o'rganilmoqda. Yu.P. Tobalov tadqiqotlarida odamlarning pravoslav diniga o'tishining asosiy motivi –qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik, tinchlik, gunohlarga tavba qilish va shu orqali najot topish zarurati ekanligini ta'kidlagan.

K.K. Platonov dindorlik emotsiya va hissyotlar kategoriyalariga tayanib belgilanishini ta'kidlaydi. U buni bilimning illyuziyasi va ushbu bilim mahsulini real deb qabul qilish bilan birga kechadigan maxsus tuyg'u sifatida tavsiflaydi.

D.N. Ugrinovich o'zining yondashuvida din va dindorlik tushunchalarini marksistik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Uning fikricha, dindorlikning kelib chiqishi ijtimoiy munosabatlar sohasida yotadi. Shuning uchun ham u dinning mohiyatini tushunish va dindorlikni shakllantirish uchun ijtimoiy-psixologik tahlilning ahamiyati va muhimligini ta'kidlaydi. Dindorlik fenomenini tushunish uchun ijtimoiy psixologiyaning muhim ahamiyatini ta'kidlab o'tadi. Bir qator mualliflar singari D.N. Ugrinovich oilaning diniy shaxs genezisidagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Oilada insonning ijtimoiy dunyoqarash yo'nalishlari yotadi. Bunda ota-ona va bola munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, dindor oila bolada dindorlikni rivojlanishini belgilaydigan ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarni yaratadi. Muallif o'z yondashuvida dindorlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik shartlarini ontogenezdagi shaxsning shakllanish bosqichlari bilan bog'laydi.

B.S. Bratus dindorlik bilan bir qatorda e'tiqod tushunchasidan ham keng foydalanadi. O'z asarlarida diniy va diniy bo'lmagan e'tiqodning o'zaro bog'liqligi dialektikasi, shaxsning nevrotik rivojlanishidagi turli-xil e'tiqod shakllarining o'ziga xosligini ochib beradi. Muallif diniy aqidaparastlikning ijtimoiy-psixologik va umumiy psixologik asoslarini ta'kidlab o'tadi.

B.S. Bratus N.V.Inin bilan birgalikda e'tiqod shakllari tasnifini ishlab chiqadi. Diniy hodisalar faollik va xabardorlik parametrlari koordinatalari tizimida ko'rib chiqiladi (1.1-rasm.).



SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

1.1-rasm. N.V.Inin va B.S. Bratusning e'tiqod shakllari tasnifi

E'tiqod olimlar tomonidan ma'no shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan umumiy psixologik hodisa sifatida qaraladi. Diniy e'tiqod imonning alohida holati sifatida namoyon bo'ladi. Shunga muvofiq, dindorlik B.S. Bratus tomonidan umumiy va ijtimoiy psixologiyaning kategoriya apparatlariga kiritilgan.

M.A.Abramov tadqiqotlarida dindorlik shaxsning xulq-atvor motivatsiyasi tizimida tahlil qilinadi. Olim dindorlikni hayot faoliyatining turli jabhalarida, xususan oilada xulq-atvor motivi sifatida qaraydi. Tadqiqotchi diniy motivatsiya o'zlarini dindor deb hisoblamaydigan yoki diniy e'tiqodlarga qarshi bo'lgan insonlarda ham bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday toifaga mansub insonlarda diniy motivatsiya hayotining qiyin vaziyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday holatda mazkur insonlarda dindorlik xulq-atvorning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Olim butun umri davomida shaxs axloqiy qarashlari dinamikasini qayd etadi. Ushbu o'zgarishlarga oilaviy munosabatlar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Aynan oila individni idrok etishning diniy yo'nalishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga oilada o'zaro munosabatlarga shaxsning qadr-qimmatini ta'sirida namoyon bo'ladigan teskari aloqa ham mavjud bo'ladi.

O'z tadqiqotlarida T.A. Kazansev imonning turli-xil tuzilish modellarini va uning shakllanish mexanizmlarini o'rganadi. Olim e'tiqodni «Ratsional dalillardan tashqari axborotlar mazmunini filtrlash va qabul qilishga imkon beradigan kognitiv, qadriyatlar, motivatsion ustanovkalar va affektiv elementlar tizimi», deb tushunadi. Tadqiqotchi ta'kidlashicha, e'tiqod – bu shaxs va ijtimoiy guruh o'rtasida bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladigan ijtimoiy-psixologik hodisadir.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Dindorlikning shakllanish sabablarini tushunib yetishda rus psixologiyasida uchta yondashuv mavjud.

Makroiijtimoiy yondashuv. Makroiijtimoiy yondashuv jamiyatga xos axloqiy me'yorlar tizimining ta'sirini, ushbu jamiyatning urf-odatlarini belgilaydi. Ushbu yondashuv ikkita nazariyani o'z ichiga oladi. Birinchisi, V.Rayxning «Insonning jinsiy quvvatini cheklash» nazariyasi. Ikkinchisi D.Ugrinovichning «Haqiqatni sun'iy ravishda illyuziyalar bilan almashtiruvchi» nazariyasi.

Yu.P. Tobalovning mikrosotsial yondashuvi. Ushbu yondashuv tarkibiga ikkita nazariya asos bo'ladi. Bunda dindorlik «Edip kompleksi» bilan bog'lanadi. D.Olshanskiyning dindorlikni shakllanishiga «Vnusheniya ta'siri» nazariyasi.

B.M. Kusenok o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida dindorlik xususiyatlari aql bilan emas, hissiyotlar bilan boshqarilishini ta'kidlaydi. V.Vundt mazkur emotsiyalarni diniy tuyg'ular deb ataydi va intellektual emotsiyalar toifasiga kiritadi. B.M. Kusenok dindorlikning psixoterapevtik ta'sirini illyuziya sifatida baholab, diniy tuyg'ularni intellektual emotsiyalar tarkibidan ajratish haqida fikr bildiradi. Tarixda dindorlikning stressga ta'siri to'g'risida qarama-qarshi dalillar mavjud. Masalan, XX asrning 70-80 yillarida, odatda, dindorlik stressni yengishga yordam bermaydi, aksincha, uni yanada kuchaytiradi, deb qabul qilingan. Keyingi o'n yil ichida vaziyat o'zgardi. Din oz bo'lsa-da, mafkuraviy bosimni boshdan kechira boshladi, dinga yo'nalgan odamlar soni ortadi. Dinning ba'zi afzalliklari, xususan uning hissiy stressni kamaytirishga ijobiy ta'siri tan olinadi. B.M. Kusenok bu fikrdan farqli o'laroq turli xil ruhiy holatlarga ega bo'lgan odamlarning dinga murojaat qilishini hisobga olib, insonning dindor bo'lishi uni stressli sharoitlardan xalos etmaydi balki, ularni kuchaytiradi va diniy fanatizmga olib keladi deb ta'kidlaydi.

Psixologik adabiyotlarda dindorlik tushunchasi bilan bir qatorda ma'naviyat tushunchasi ham ko'p ishlatiladi. Ushbu tushuncha, psixologiya fanining kategoriyalaridan biriga aylanib ulgurgan. Psixologik tizimlar kontekstida V.V. Znakov, V.D. Shadrikov va A.N. Jdan kabi olimlar ma'naviyat tushunchasining psixologik tahlilini amalga oshirganlar.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ma'naviyat ko'pincha shaxsning diniy yo'nalganligi bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda ma'naviyatni empirik ma'lumotlarga tayangan holda shaxs xususiyati sifatida o'rganishga harakat qilinadi. V.V. Znakov ma'naviyatni o'rganish jarayonida u haqiqiy psixologik, falsafiy, madaniy va diniy jihatlarini aniqlaydi.

V.D. Shadrikov yondashuvida dindorlik ma'naviyat shakllaridan biri sifatida qaraladi. O'z navbatida, ma'naviyat insonning shakllanishidagi yetakchi faol kuchdir. Ma'naviyatning kelib chiqishi va dinning rivojlanishini tahlil qilgan V.D. Shadrikov ularni bir biriga o'zaro yaqin tushunchalar degan xulosaga keladi. Uning nuqtai nazari bo'yicha ma'naviyat ko'proq imonning emas, balki axloqning xususiyatidir. Biroq, ijtimoiy axloq va din bir vaqtning o'zida vujudga keladi. Din ma'naviyatning yagona manbai emas, ma'naviyat sevgi orqali vujudga kelishi mumkin. U o'z tahlilida faqat ma'naviyat va dindorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash bilan cheklanmagan balki dinning ma'naviyat bilan o'zaro munosabatini har tomonlama ko'rib chiqqan. Dunyoviy ma'naviyat va e'tiqod ma'naviyatini bir-biriga bog'liqligini e'tirof etib o'tgan. Ma'naviyatning ushbu ikki shaklini o'zaro ta'sir dinamikasi ularning birlashmasidan asta-sekin tafovutga yo'naltirilgan. Ushbu ikki shaklning tafovuti hozirgi paytda dunyoviy ma'naviyat hali ham ko'p jihatdan imon ma'naviyati bilan bog'liq ekanligini isbotlaydi.

Ba'zi tadqiqotchilar dindorlik tushunchasiga «Koping mexanizm» sifatida qaraydilar. Mk.Fadden ta'kidlashicha, din emotsional xotirjamlikni ta'minlaydi, salbiy kechinmalarni yengishga yordam beradi, hissiy xotirjamlik va quvonch hissini bag'ishlaydi. Uning ta'kidlashicha, insonlarning ijtimoiy va diniy faolligi emotsiyalarni keltirib chiqaradi. Emotsional omil diniy guruhlar dinamikasining markazga yo'naltirilgan tendensiyalariga yordam beradi. Diniy guruhlarda qatnashish paytida dindorlar boshdan kechiradigan hissiyotlarning aksariyati ijobiy xarakterni kasb etadi. Qo'rquv, ayb, xavotir kabi salbiy hissiyotlar diniy guruhlarda reaksiyaga kirishadi, bu esa guruh a'zolari jozibadorligini oshiradi. Fadden Edvards nazariyasi bilan birdamlikda sevgini diniy kontekstda asosiy tuyg'u deb biladi. Xususan, bu

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

nazariya dastlab islom dinida insonning Allohga bo'lgan munosabatida ham o'z aksini topgan.

R.Gud va B.Spilkalar fikriga ko'ra, dindorlik inqirozli vaziyatlarni yengish uchun muhim resurs bo'lishi mumkin. Bunda olimlar «Koping mexanizm»ning rolini alohida ta'kidlab o'tadilar. Mazkur koping jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

Ushbu jarayonning birinchi bosqichi insonning mavjud vaziyatni baholashidir. Agar sodir bo'layotgan hodisalar stressli xarakterga ega bo'lsa va insonning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, unda inson ularga qarshi kurashish yo'llarini izlaydi. Shaxs bunday vaziyatda Xudodan nohaq xatti-harakatlari uchun jazo olishi mumkin.

Muammoni zudlik bilan hal qilish «Koping mexanizm» jarayonidagi ikkinchi qadamdir. Diniy yo'nalgan inson qiyin vaziyatlarni yengish uchun turli ishlarni amalga oshiradi. Ushbu faoliyatlar namunasi ibodatdir. Diniy faollik an'anaviy ravishda stressni boshqarishning ijobiy mexanizmi sifatida qaraladi, ammo ba'zi psixologlar buni faqat hissiyotlarni boshqarish usuli deb bilishadi. Ayrim olimlar, dindorlikni «Koping mexanizm» deb hisoblashadi va diniy e'tiqod yaqin kishining o'limi kabi jiddiy fojeadan omon qolishning deyarli yagona usuli bo'lishi mumkin, deb hisoblashadi. Qanday bo'lmasin, dindorlik qiyin hayotiy vaziyatlarni, shu jumladan emotsional darajada koping funksiyasini bajarishi mumkin.

Dindorlikning psixologik xususiyatlari borasida mamlakatimiz olimlari ham o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, A.A. Ayrapetova «Yoshlarda salbiy diniy ustanovkalarni shakllantiruvchi shaxs xususiyatlari» deb nomlangan dissertatsiya mavzusida dindorlikning psixologik xususiyatlar va salbiy diniy ustanovkalarni shakllanishiga sabab bo'luvchi shaxs xususiyatlari, stereotiplari va ustanovkalarni o'rgangan. M.X. Djumaniyazova «Talabalar diniy dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» dissertatsiya mavzusida diniy dunyoqarash va diniy dunyoqarashda kommunikativ hamkorlik shakllari va muloqotda diniy e'tiqodli shaxsning yo'nalganligini tadqiq etgan.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

1.4. Dindorlik tiplarining psixologik tasnifi

Bugungi kunda zamonaviy davr taraqqiyotida insonlarning dinga bo'lgan qiziqishlari tobora ortib bormoqda. Olimlar esa bu jarayonni inson dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Chunki, hozirgi jamiyatda o'zini shaxs sifatida biluvchi har bir inson dinga bog'liq bo'lgan tushuncha va fikrlardan qochib keta olmaydi, hattoki bu insonlar hayotining asosiy mazmuni ham bo'lib qoladi. Shaxslarning dinga bo'lgan qiziqishlari ularda dindorlik tiplari va ularning xususiyatlarini shakllantiradi.

Zamonaviy din psixologiyasida dindorlik, uning tiplari va xususiyatlari bog'liq tushunchalarning rivojlanishi G.Olport tomonidan ilgari surilgan g'oyalari bilan boshlanadi. Uning nazariyasining asosiy tushunchasi dinga ichki va tashqi yo'nalganlik bo'lib, bu dinga maqsad va vosita sifatida yondoshishni anglatadi. Ushbu tushuncha din psixologiyasida yigirma yildan ortiq vaqtdan beri muhim ahamiyat kasb etib shu kungacha nazariya va amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

Tashqi dindorlik tipi – shaxs moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida dindan vosita sifatida foydalanishga harakat qiladilar. Ya'ni, tashqi dindorlik tipiga mansub shaxslar o'zlarini jamiyat orasida iloji boricha dindor qilib ko'rsatishga urinadi. Ko'proq shariat doirasida kiyinadi va atrofdagi insonlardan ajralib turishni lozim topadi. Bu tipdagi insonlar bu kabi xatti-harakatlarining asosiy sababi jamiyatda o'z o'rnini topish, saqlash yoki obro'-e'tiborga sazovor bo'lish ehtimolini beradi.

Shuningdek, tashqi diniy yo'nalganlikka mansub shaxslar dindan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga moyil bo'ladilar. Ular dindan ishonch qozonish, emotsional qo'llab-quvvatlash, jamiyat oldida ma'lum bir ijtimoiy mavqega erishish kabi turli maqsadlar yo'lida foydalanadilar.

Dinga ichki diniy yo'nalganlikka mansub shaxslar uchun din asosiy motiv va eng yuqori qadriyat hisoblanadi. Ular dinni boshqa ehtiyojlaridan ustun qo'yadilar va ular bilan uyg'unlikda yashashga harakat qiladilar. O'z xatti-harakatlarini diniy

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

normalar va qoidalarga bo'ysundirishga harakat qiladilar. Ichki diniy yo'nalganlik shaxslarda ajralmas axloqiy sifatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'lportdan so'ng ham juda ko'plab olimlar dindorlik xususiyatlari va tiplari bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari zamonaviy ilm-fan miqiyosida yangi nazariyalar yaratilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu olimlar qatoriga Yu.V. Shcherbatixni kiritishimiz mumkin. Olim o'z nazariyasida individual dindorlikni sakkizta tipga ajratadi.

1. Dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish (dindorlikning gnoseologik ildizlari va idealistik falsafaga moyillik);
2. Sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar;
3. Dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash;
4. Dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish;
5. «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi;
6. Dunyoni vujudga keltirgan Oliy Kuch, ya'ni Yaratuvchi Zotning mavjudligini tan olish;
7. Diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash;
8. Dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash (snoska).

Dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashuvchi shaxslar dinni mohiyatini falsafiy nazariya sifatida tushunadilar. Din va unda keltirilgan haqiqatlar borasida cheklanmagan erkin fikrda bo'ladilar. Ular dinning haq yoki botil ekanligi masalasi bilan mashg'ul bo'lish emas, diniy hukmlarning mantig'i va mohiyatini ochib berishdir. Bu maqsad bilan ular, eng avvalo Xudoning mavjudligi bilan bog'liq dalillarning tanqid yoki tahlilini qiladi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi masalasini ko'rib chiqadilar.

Dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashuvchi shaxslarning boshqa dindorlik tiplariga yo'naluvchi shaxslardan ajratib turuvchi jihat bu, undagi hukm berish, xulosa yasash xususiyatidir. Shuningdek ular insonning diniy haqiqatlar bilan bo'lgan bog'liqligi borasida fikr yuritadilar. Ushbu dindorlik tipiga mansub shaxslarning diqqat

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

markazida Xudoning borligi, sifatlari, yaratuvchi-koinot munosabati, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg'ambarlik va vahiy kabi keng miqyosda metafizik bir xarakterga ega masalalar asosiy o'rinni egallaydi.

Shuning uchun ham, mazkur tipga mansub shaxslarda din bilim olish faoliyati jarayonida vujudga keladi. Boshqa tomondan, dinning gnoseologik asoslari o'z-o'zidan uning jamiyatda mavjudligini oldindan belgilamaydi, chunki ular faqat ma'lum ijtimoiy sharoitlar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Dinning gnoseologik ildizlari, insonning bilim jarayonlari (g'oyalar, fikrlar) va hissiy jarayonlar (his-tuyg'ular, tajribalar, kayfiyat) kabi psixik jarayonlarni va holatlarni shakllantirish shartlari hisoblanadi.

Yu.V. Shcherbatix nazariyasiga ko'ra dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarovchi va dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor beruvchi tiplar aslida mazmunan bir xil ma'noni anglatadi. Mazkur tiplar G.Olportning ichki dindorlik tipining xususiyatlariga mos keladi.

Ushbu tiplarga mansub shaxslar hayotda qiyin vaziyatlarga duch kelishganda dindand himoya vositasi sifatida foydalanadilar. Diniy amallarni ijtimoiy-madaniy an'ana sifatida rasmiy tarzda bajaradilar. Chunki bu bilan ular jamiyatda ijtimoiy mavqeini tiklashga va ma'lum imtiyozlarga ega bo'lishga harakat qilishadi. Ular ko'proq dindorlikning tashqi belgilariga ahamiyat berishadilar. o'zlarining dindor shaxs ekanligini anglatish niyatida insonlar orasida tasbeh o'giradilar, ayollar hijob o'raydilar, erkaklar soqol qo'yadilar, doimo do'ppi kiyib yuradilar. Ular o'z maqsadlariga yetganliklaridan so'ng, bu amallarni yana tark etish ehtimoli ham mavjud bo'ladi. Mazkur tip D.Batsonning «Dinga maqsad sifatida yo'naluvchi shaxslar» turlariga ham mos keladi.

Yu.V. Sherbatix nazariyasiga ko'ra, dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvchi zot mavjudligini tan olish va diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglashga yo'naluvchi tiplar ham mazmunan bir xil ma'noni anglatadi. Hamda mazkur tiplar G.Olportning tashqi dindorlik tipining xususiyatlariga mos keladi.

Mazkur tiplarga yo'nalgan shaxslar uchun din motiv va eng yuqori qadriyat hisoblanadi. Ular dinni boshqa ehtiyojlaridan ustun qo'yadilar va ular bilan uyg'unlikda yashashga harakat qiladilar. O'z xatti-harakatlarini diniy normalar va qoidalarga bo'ysundirishga harakat qiladilar. Ichki diniy yo'nalganlik shaxslarda ajralmas axloqiy sifatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoni vujudga keltirgan yagona zot Allohni borligini uning buyuk va rahmdil ekanligini tan oladilar. Alloh taologa bo'lgan muhabbati kuchli bo'ladi. Nafsi yoqtirgan barcha narsalarni tark qilishga moyil bo'ladilar. Alloh taolo uni kuzatib turganini qalbdan his qiladi va Undan haqiqiy hayo qiladi. Ma'siyat va gunoh narsalarni biladi.

«Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi nomi bilan ataluvchi tip boshqa individual dindorlik tiplaridan tubdan farq qiladi. Bu tipga mansub xususiyatlar diniy bilimlarning o'zgartirilgan shakli hisoblanadi va soxta ilmiy ong sifatida qaraladi.

«Soxta ilm»ga qiziqishi moyil bo'lgan shaxslarda haqiqiy ilmiy belgilarning ramzlari va tushunchalari yolg'on, xayoliy va haqiqatga mos kelmaydigan tushunchalar bilan o'rin almashadi. Ular telepatiyaga, ya'ni bir masofadan turib o'z fikrlarini boshqa insonga uzatishiga, insonning koinotdan kuch-quvvat va axborot olishiga, burjlarga asoslangan bashoratlarga va o'zga insonlarning quvvatini so'rib olish mumkinligiga, kuchli manfiy biomaydon sohibi bo'lgan «energetik vampirlar» mavjudligiga ishonadilar.

Yu.V. Sherbatix nazariyasidagi oxirgi tip dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash hisoblanadi. Mazkur tipga moyil shaxslar dinni axloqiy me'yorlar namunasi sifatida tushunadilar. Diniy me'yorlar insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini, atrofdagi insonlarga va o'ziga bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar hisoblanadi.

Shuningdek, din ular uchun shaxslarning hayot prinsiplari, qarashlari, e'tiqodlari, oila a'zolari, shaxslararo munosabatlarni aniqlovchi va tartibga soluvchi normalar jamlanmasidir. Din dastavval ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar, qadriyatlar va

normalarning shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'sir qiladi. Chunki, ma'naviy xulq-atvor me'yorlari din zamirida shakllanadi.

Shaxslarning dindorlik xususiyatlari borasida zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlar qatoriga D.O. Smirnovni ham kiritishimiz mumkin. Olim o'z ilmiy tadqiqot ishida «Diniy faollik»ni sub'ektning Alloh bilan o'zaro ilohiy munosabatini amalga oshirishga qaratilgan hamda g'ayritabiiy narsalarga ishonishda yuzaga keladigan diniy kechinmalar, diniy xulq-atvor va xatti-harakatlar hisoblashini ta'kidlaydi. «Diniy faollik» murakkab va ko'p komponentli psixologik komponent sifatida tavsiflanadi. Shunga muvofiq, olim shaxslarning diniy faolliklarini astenik diniy kechinmalar, stenik diniy kechinmalar, dindorlik ostonadagi diniy kechinmalar, diniy tabiiy-ilmiy dunyoqarash va diniy xatti-harakatlar tiplariga ajratadi.

Astenik diniy kechinmalar. Astenik kechinmalarga moyilligi yuqori bo'lgan shaxslar Alloh olidida o'zlarini nomukammal, gunohkor va o'jiz bir qul sifatida o'z his-tuyg'ularini namoyon etadilar. Bunday his-tuyg'ular ko'pincha insonni axloqiy shakllanishiga turtki beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi va dindorlikning shakllanishida asosiy manba sifatida qaraladi.

Stenik diniy kechinmalar. Stenik diniy kechinmalarga moyilligi yuqori bo'lgan shaxslar Alloh bilan chuqur his-tuyg'ular orqali munosabatga kirishadilar. Bunday jarayonda inson ushbu his-tuyg'ular orqali kuch-quvvat, motivatsiya va ilhom oladi. Bu esa insonni hayoti davomida juda muhim omillar qatoriga kiradi. Qachon inson tushkun va qiyin vaziyatga tushib qolsa bu kuchlar ularni yana yashashga undaydi.

Diniy tabiiy-ilmiy dunyoqarash tipi. Mazkur tip diniy teistik dunyoqarashni ifodalaydi. Bu diniy e'tiqodning ratsional jihati bo'lib, Alloh, jannat, do'zax va ruh kabi diniy ramzlarni hayotiy narsalar sifatida e'tirof etish imkonini beradi. Past ko'rsatkich tabiiy fan dunyoqarashini, tushunarsiz hodisalarni fan nuqtai nazaridan tushuntirishga moyilligini ko'rsatadi, bunday odamlar diniy simbolizmni imonlilarning sub'ektiv tajribalari mahsuli yoki haqiqat bilan aloqasi bo'lmagan xayol sifatida qabul qiladilar.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Diniy xatti-harakatlar. Yuqori moyillik diniy amallarni amalga oshirish jarayonida individual tajribada aks etadi. Diniy faoliyat insonlarning diniy amallarni bajarish maqsadida diniy marosimlarda (Juma, janoza va I layit namozlari) qatnashishi, ro'za tutishi va Makkani ziyorat qilishi kabi amallar orqali namoyon bo'ladi.

Psixologik jihatdan olimlarning nazariyalariga ko'ra shaxslar ichki va tashqi motivatsiyaga, diniy xarakterga va diniy faolliklariga nisbatan turli xil dindorlik tiplariga bo'linadi. Bu xoh islom, xoh xristian yoki budda dinlari vakili bo'lishidan qat'i nazar mazkur tiplar ularning barchasi uchun xos bo'ladi. Dindorlik tiplari shaxslarning diniy xulq-atvor va dunyoqarashini shakllantirish uchun asosiy vosita. Bu esa bizga shaxsning xulq-atvor xususiyatlarini anglashimiz va ular haqida ma'lum bir taxminiy xulosalarga kelishimiz uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

«Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining nazariy tahlili» deb nomlanuvchi bobda keltirilib o'tilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

1. Psixoanaliz yo'nalishiga ko'ra, himoya mexanizmlari bir tomondan nevroz va psixosomatik kasalliklarning asosiy sababchisi hisoblansa, boshqa tomondan esa ular shaxsning qiyin vaziyatlarda moslashuvchan mexanizmlari sifatida qaraladi.

2. Bizning fikrimizcha, individning ijtimoiylashuv jarayoni bosqichlarida ta'lim va tarbiya to'g'ri shakllantirilmasa, psixologik himoya mexanizmlari «Ego»ni qo'rquvdan, noqulayliklardan va ko'ngilsiz voqealarning ta'sirlaridan vaqtinchalik himoya qiladi, biroq ular voqelikdan uzilishga, kuch-quvvatni uyg'otishga, fe'l-atvordagi noxush o'zgarishlarga va somatik buzilishlarga olib keladi. Himoya mexanizmlari qo'rquvdan ozod etadi-yu, ammo insonni erkidan mahrum qiladi, ichki ziddiyatlardan ozod etib, tashqi ziddiyatlarga duchor qiladi.

6. Dindorlik shaxsning emosional sohasiga bog'liq bo'lib, u ham psixologik himoya vositasi hisoblanadi. Dindorlik shaxsni ruhiy tushkunliklardan xalos etadi va uni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida talqin etiladi. Faqat bu himoya mexanizmi voqelikdan uzilishga, kuch-quvvatni uyg'otishga, fe'l-atvordagi noxush o'zgarishlarga

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

va somatik buzilishlarga olib kelmaydi. balki muammolarni bartaraf etib insonning hayotiga ma'no-mazmun bag'ishlaydi.

II BOB. PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

2.1. Psixologik himoya mexanizmlarini tadqiq etishning metodologik asoslari, metodikalar va birlamchi ma'lumotlar tahlili

Hozirgi vaqtda jamiyatimiz hayotida shaxsning psixologik xususiyatlarini ob'ektiv empirik metodlar asosida o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ob'ektiv metodlar insonda mavjud bo'lgan va hayoti davomida shakllangan xulq-atvor, individual xususiyatlar va emosional holatlar haqida aniq ma'lumotlar olishning asosiy vositalari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini o'rganish ham ma'lum bir metodlar yordamida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga kuzatish, so'rov, test, kontent tahlil va boshqa usullar kiradi. Bu kabi metodlarning har biri o'ziga xos bo'lgan metodologik asosga ega bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning metodologik asosi uning ko'lami, rivojlanish tendensiyasi, nazariy va amaliy ahamiyatini belgilovchi vosita hisoblanadi. Muayyan ilmiy muammoni tadqiq etish bo'yicha yagona metodologik asosning mavjud emasligi tadqiqotchilarni turli ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalarni umumlashtirish imkoniyatidan mahrum qiladi. Shuningdek, tadqiqot predmetini aniqlashda har xil ziddiyatlarni vujudga keltiradi va ilmiy ma'lumotlarni umumiy qonuniyatlar darajasida muhokama qilishga imkon bermaydi. Metodologik prinsiplar, yondashuvlar tadqiqot ishida nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan muammolarni yaxlit fan tizimida ko'rib chiqishga undaydi.

Bugungi kunda shaxsning psixologik himoya mexanizmlari borasida tadqiqot ishlarini olib bormoqchi bo'lgan har bir ilmiy izlanuvchi psixoanaliz yo'nalishiga e'tibor qaratmasdan keta olmaydi. Chunki himoya mexanizmlarini empirik

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

o'rganishga qaratilgan metodikalarning metodologik asoslari psixoanaliz nazariyalariga borib taqaladi.

Psixoanaliz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu boradagi dastlabki tadqiqot ishlari Z.Freyd tomonidan olib borilgan. Ammo olim tomonidan taklif qilingan psixikaning ierarxik tuzilishi shunchalik yaxlit, murakkab va o'ziga xos uyg'unlikni qamrab olgan bo'lsa ham, u amalda keyingi rivojlanish bosqichiga o'ta olmagan hisoblanadi. Shuning uchun shaxsni psixoanaliz doirasida tadqiq etish va o'rganish tadqiqotchilar orasida ommalashib ketgan.

Vaqt o'tishi bilan psixoanaliz yo'nalishida Z.Freyddan tashqari boshqa ko'plab olimlar yetishib chiqa boshladi. Ular himoya mexanizmlarining shaxs rivojlanishidagi ahamiyati yuqori darajada ekanligini isbotlab berishdi. Biroq, psixologik himoya ularning nazariyalarida ham e'tibordan biroz chetda qoldi. Ushbu holatning yuzaga kelishiga shaxs psixikasida himoya mexanizmlarining o'rni past baholash va klassik psixoanalizda taklif qilingan psixologik himoya mexanizmlariga illyuziya sifatida qaralishi kabi sabablarni asos qilib keltirishimiz mumkin.

Bu kamchiliklar esa psixologik himoya mexanizmlarining ayrim masalalarini batafsil bayon qilishda metodologik jihatdan chalkashlik va noaniqliklarni vujudga keltirdi.

Bugungi kunda ham psixologik himoyani o'rganish metodologik jihatdan eng qiyin yo'nalishlardan biridir. Buning sababi, tadqiqotchilar o'rtasida norma hamda patologiyada nechta va qanday himoya mexanizmlarining borligi to'g'risidagi kelishuvning mavjud emasligidir. Bu omillar esa bizning ushbu hodisa borasidagi zamonaviy qarashlarda ma'lum bir inqiroz mavjud, degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Zamonaviy psixolog olimlarning ta'kidlashicha, psixologik himoya mexanizmlarini faqat tizimli ravishda batafsil tahlil qilib o'rganish mumkin. Tizimlilik prinsipi psixologik himoyani kategoriya nuqtai nazaridan o'rganish sohasini belgilaydi. Mazkur muammoni tizimli ravishda ko'rib chiqish uchun esa shaxs

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

borasidagi nazariyalar. shaxsning konstruktiv tuzilish qonuniyatlari, faoliyat nazariyalari va stress nazariyalari omillari asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, barcha himoya mexanizmlarini tahlil qilishning umumiy metodologik asosi bu ko'ngilsiz vaziyatlardan shaxsni u yoki bu tarzda xalos etuvchi turli xil yondashuvlarni birlashtirishdir.

Himoya tushunchasini o'rganishning murakkabligi, noaniqligi va nomuvofiqligi metodologik tomondan namoyon bo'ladi. Uning ong osti bilan bog'liqligi va shaxsga oidligi diagnostika ishlarida qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham, psixologik himoya borasidagi chalkashliklar va noaniqliklar bu tushunchani empirik jihatdan o'rganish va diagnostika qilish uchun yetarli darajada to'g'ri metodologik bazani ishlab chiqishga imkon bermaydi.

Z.Freyd birinchi bo'lib klassik psixoanalizda «Erkin assotsiatsiyalar» va «Xayollar va tushlardagi yashirin intilishlarni tahlil qilish» metodikalarini qo'llagan holda nevrozlarda shakllangan psixologik himoya mexanizmlarini aniqlagan.

A.Freyd himoya mexanizmlarini o'rganishda otasidan farqli ravishda «Kuzatish» metodidan foydalangan.

Z.Freyd va A.Freyddan so'ng olimlar tomonidan himoya mexanizmlarini aniqlaydigan yana boshqa ko'plab metodikalar yaratildi. Ushbu metodikalarning barchasini quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin: Birinchi guruh – proektiv, ya'ni idrok etish usullari metodikalari hisoblanadi. Bunga «Meta-kontrakt texnikasi» metodikasi, «Genetik idrok ob'ekti munosabatlari» va quyidagi metodikalar kiradi:

Ushbu metodikalar g'arbda juda mashhur va tadqiqotchilar orasida keng miqyosda foydalanib kelinadi. Ammo proektiv metodikalarning ham o'ziga xos kamchiliklari mavjuddir. Bu kamchiliklar natijalarni qayta ishlashni standartlashtirish imkoniyatining mavjud emasligi, natijalar tahlilining sub'ektivlikka bog'liqligi va natijalarni me'yoriy natijalar bilan solishtirish imkoniyatining mavjud emasligida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, natijalar haqiqiyliigi va ishonchligining yo'qligi ham uning kamchiliklaridan biri hisoblanadi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ikkinchi guruhga – kuzatuv usuliga asoslangan metodlar kiradi. Bu turga Q-saralash metodini kiritishimiz mumkin.

Uchinchi guruhga – o'z-o'ziga hisobot berish vositalari turiga kiruvchi metodikalar kiradi.

Ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

a) «Himoya mexanizmlari jamlanmasi» metodikasi qisqacha DMI deb nomlanadi;

b) «Hayot stili indeksi» metodikasi qisqacha LSI deb yuritiladi;

Tadqiqotchi olimlar tomonidan yuqorida keltirilib o'tilgan ma'lumotlarni hisobga olgan holda shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishimizda R.Plutchik va G.Kellermannning «Hayot stili indeksi» metodikasidan foydalanishni lozim topdik. Bu shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini bevosita aniqlovchi metodikalardan biri va proektiv metodikalarda mavjud bo'lgan kamchiliklardan xoli hisoblanadi. Pantileev va Vizginaning fikriga ko'ra, bu turdagi metodikalar respondentning xulq-atvorini belgilaydigan o'ziga xos shaxslararo mexanizmlarni ishga soladi. Bu esa og'zaki tarzda o'ziga-o'zi hisobot berish jarayoni hisoblanadi.

Metodika tarixi. Dastlab olimlar himoya mexanizmlarini diagnostikasi ishlarida proektiv tadqiqot usullaridan keng foydalangan. Ammo proektiv metodlar yordamida barcha himoya mexanizmlarini tizimli ravishda aniqlash mumkin emasligini hisobga olib, bir qator tadqiqotchilar sub'ektning bevosita himoya mexanizmlarini aniqlaydigan testlar yaratishga harakat qilishgan. Ushbu tadqiqotchilarga R.Plutchik va H.Kellermanlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. 1979 yil ushbu olimlar tomonidan «Psixologik himoya mexanizmlari metodikasi (Hayot stili indeksi)» metodikasi yaratilgan.

Mazkur metodika shaxsdagi himoya mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Metodikaning qulayligi nazariy asoslanganligi, validligi, ko'p o'lovchilarni aniqlashga yo'naltirilganligi va sodda tuzilishga egaligiga qarab baholanadi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

So'rovnomanini tuzishda mualliflar psixologiya, psixoanaliz va umumiy psixologiya yo'nalishlari nazariyalaridan foydalangan. Ushbu manbalardan 16 ta psixologik himoya mexanizmlarining xususiyatlarini aniqlashgan va ular «Ego» himoyasining asosini tashkil etgan. Ular jumlasiga «Impulsiv xulq-atvor», «Kompensatsiya», «Rad etish», «O'rmini to'ldirish», «Fantaziya qilish», «Identifikatsiya», «Intellektualizatsiya», «Introeksiya», «Izolyatsiya», «Proeksiya», «Ratsionalizatsiya», «Reaktiv hosila», «Regressiya», «Siqib chiqarish», «Sublimatsiya» kabi himoya mexanizmlari kiradi. So'ngra mazkur mezonlarni aniqlaydigan savollar tarkibi shakllantirilgan. Mualliflarning ushbu savollarga bergan javoblari sinalluvchilar himoya mexanizmlarining muayyan modellarini aks ettiradi, deb taxmin qilingan. Dastlab metodika tarkibidagi savollar soni jami 224 tani tashkil etib, 16 ta himoya mexanizmlarini o'z ichiga olgan. Dastlabki natijalar qayta ishlagandan so'ng, so'rovnomadagi savollar soni 184 taga qisqartirilgan. Faktorli tahlil qilish natijasida so'rovnoma mezonlari 16 tadan 8 taga kamaytirilgan. Shundan so'ng, so'rovnomanini baholash uchun ekspertlar guruhiga topshirilgan. Ekspertlar xulosasiga tayanib mualliflar tomonidan eng muhim bo'lgan savollar tanlab olindi va so'rovnomaning oxirgi varianti 97 ta savoldan iborat bo'lib 8 himoya mexanizmlarini aniqlashga qaratildi.

Metodikaning mazkur nazariyalarga asoslanishiga bir nechta sabablar mavjuddir. R.Plutchik va G.Kellermannning «Hayot stili indeksi» metodikasi R.Plutchikning psixoemotsional nazariyasi va G.Kellermannning shaxs tuzilmasi nazariyasiga asoslanadi. Mazkur nazariyalar individning emotsiyalari darajasi, himoyalari va psixik kasalliklarga irsiy moyilliklari kabi turli darajalar o'rtasidagi bog'liqlik munosabatlarini taklif etadi.

G.Kellerman nazariyasi psixoanalitik va sotsiobiologik tushunchalarga tayanadi. U himoya mexanizmlari va emotsiyalarning o'zaro bog'liqligi haqidagi qoidalarda aks etadi. Muayyan himoya mexanizmlari muayyan emotsiyalarni tartibga solish uchun mo'ljallangan. Sakkizta asosiy hissiyotlar bilan o'zaro aloqada bo'lgan sakkizta asosiy

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

himoya mexanizmlari mavjud. Sakkizta asosiy himoya mexanizmlari qutblilik va o'xshashlik xususiyatlarini namoyon etadi.

R.Plutchikning emotsiya nazariyasi 1962 yil monografik tadqiqot ishlarini olib borish davomida ishlab chiqilgan. Ushbu nazariya xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan va guruh jarayonlari infratuzilmasini ochishda foydalanilgan. Bu shaxsning ichki holatlari va psixologik himoya mexanizmlari to'g'risidagi g'oyani shakllantirishga imkon berdi. Hozirgi vaqtda nazariyaning asosiy postulatlarini taniqli psixoterapevtik yo'nalishlar va psixodiagnostik tizimlarga kiritilgan. Emotsiya nazariyasining asoslari evolyusion moslashishga asoslangan kommunikatsiya va yashash mexanizmlari, genetik asosga ega bo'lgan holat, turli sinflarning aniq hodisalariga asoslangan gipotetik shakllanishlari, xulq-atvor gomeostazini qo'llab-quvvatlaydigan barqarorlashtiruvchi fikrlarga ega voqealar zanjiri, emotsiyalar o'rtasidagi munosabatlar uch o'lchovli tarkibiy model sifatida ifodalanishi va xarakter xususiyatlari yoki tiplari bilan bog'liqligi kabi oltita postulatda jamlangan:

Moslashtirish. Keyinchalik mazkur metodika mualliflari bilan aloqa o'rnatgan Ye.B. Klubov 1991 yil uni ruslarning ijtimoiy-madaniy muhitiga moslashtirgan. Moslashtirish jarayoni 5 yil davomida V.M. Bexterev nomidagi institutda olib borilgan. Metodikani moslashtirish davomida olingan natijalar qayta ishlangandan so'ng 97 ta savoldan 92 ta savolga qisqartirilgan. Himoya mexanizmlari mezonlari soni esa o'zgarmagan.

Shundan so'ng, S.R. Pantileev va Ye.Yu. Jilinalar ham 2009 yili shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qiluvchi metodikani ruslarning ijtimoiy-madaniy muhitiga moslashtirganlar.


Biz ham o'z tadqiqot ishimizda R.Plutchik va G.Kellermannning [99] shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini aniqlaydigan «Hayot stili indeksi» metodikasidan foydalandik.

Metodika umumiy 92 ta savoldan iborat. Mazkur savollar sakkizta «Ego» himoyalarini aks ettiradi. Sakkizta «Ego» himoyalar sakkizta psixologik himoya mexanizmlarini tashkil etadi (1-ilova). Ularning qiymat ko'rsatkichlari

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

respondentlarning ijobiy javoblari miqdoridan kelib chiqib ifodalanadi. Ilmiy tadqiqot ishimizning ob'ekti mamlakatimizdagi oltita oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fan yo'nalishlarida tahsil olayotgan jami 309 nafar talabalar hisoblanadi.

Shaxsning psixologik himoya mexanizmlarining mazmun-mohiyatini anglab yetish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz bizni ular o'rtasida mazmunan o'zaro o'xshashlik xususiyatlari borligi to'g'risidagi fikr yuritishimizga sababchi bo'ldi. Aynan shu maqsadda ilmiy tadqiqot ishimizdan olingan natijalarni faktorli tahlil yordamida ular o'rtasidagi mazmunan o'xshashlik jihatlariga ko'ra ma'lum faktorlarga ajralish yoki ajralmasligini aniqlashga harakat qilib ko'rdik. Mazkur farazimiz natijalarini «Hayot stili indeksi» testi natijalarini faktorli tahlilida ko'rishimiz mumkin (2-ilova). Faktorli tahlil natijalariga ko'ra, talaba-yoshlarning sakkizta himoya mexanizmlarining barchasi jami mazmunan o'zaro bir-biriga o'xshashlari uchta faktorlarga birlashdilar (2.1-rasm).



2.1-rasm. Psixologik himoya mexanizmlarining funksional komponentlar bo'yicha differensiasiyalanish modeli

Shu boisdan biz ularni mazmuniy o'xshash jihatlari xisobga olgan holda birinchi faktorga «Javobgarlikdan ozod qiluvchi himoya mexanizmlari», ikkinchi faktorga «O'zini oqlashga yordam beruvchi himoya mexanizmlari» va uchunchi faktorga «Salbiy hissiyotlardan xalos qiluvchi himoya mexanizmlari» deb nom berdik. Mazkur faktorlarga bunaqa nom berishimizga bir nechta omillar sabab bo'ldi.

Birinchi omil regressiya va o'rnini to'ldirish himoya mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Chunki ularning ikkalasi ham shaxsning hayollarida va orzularida paydo bo'lish ehtimoli yuqoriligidan darak beradi. Mazkur ikki himoya mexanizmlarining mazmunan yana boshqa o'xshash jihatlari ham mavjuddir. O'rnini to'ldirish va regressiya himoya mexanizmlari ijtimoiy doiralarda ixtilof tug'dirayotgan impulslar yuzaga kelganda namoyon bo'ladi. Bu vaqtda regresiya himoya mexanizmi taraqqiyotning ilk bosqichlariga qaytish orqali «Men»ni himoya qiladi. Misol uchun biror bir vazifani bajarishni istamayotgan hodim bu vazifadan ozod bo'lish uchun

o'zini go'yoki yosh bola kabi uni bajarishni uddasidan chiqolmaydigan qilib ko'rsatadi.

O'rnini to'ldirish himoya mexanizmi ham ijtimoiy doiralarda ixtilof tug'dirayotgan impulslar yuzaga kelganda unga haqiqatan taalluqli kishidan uning o'rnini bosuvchi (ramziy ma'noda, shuningdek, kam tahdid tug'diruvchi sifatida idrok etiluvchi) boshqa bir insonga ko'chiriladi. Yosh bolalarcha alamini kimdandir olish, kimnidir ayblash (yosh bolalar ayb ish qilishganida buni kim qildi? degan savol bilan murojaat qilinsa ular aybni ukasi yoki singlisiga to'nkab qo'yadi, xodim o'z boshlig'idan dakki eshitsu uning alamini bilvosita xotini, bolalari yoki uyidagi hayvonlardan oladi) kabi xarakter xususiyatlari shakllanadi.

Ikkinchi omil o'zini oqlashga yordam beruvchi ratsionalizatsiya, proeksiya va giperkompensatsiya kabi himoya mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Mazkur himoya mexanizmlarining ham bir birlari bilan mazmunan o'xshash jihatlari mavjud.

Proeksiya taqiqlangan impulslar ta'sirida yuzaga kelgan xaqiqatga mos qaror topa olmaslik natijasida mavjud voqelik buzib idrok etiladi. Buning natijasida shaxs mazkur impulslar o'zidan emas tashqaridan kelayotgandek tuyula boshlaydi. Shuning uchun, bezovtalik tug'dirayotgan impuls tashqi olamga ko'chiriladi, inson o'zining xohish va mayllarini birovlarda ko'ra boshlaydi.

Ratsionalizatsiya shaxsiy yoki ijtimoiy jihatdan qabul qilinmaydigan fazilatlar, istaklari, harakatlarini oqlash uchun ishonchli dalillardan foydalanish natijasida yuzaga keladi. Mazkur dalillar idrok buzilishi natijasida yuzaga keladi. Ratsionalizatsiya himoya mexanizmi sababli agar shaxs biror-bir narsaga erishsa, qo'lga kiritgan narsasining va o'zining xatti-harakati qiymatini oshirib yuboradi. Aksincha, u kutgandek natijaga erishmasa, o'zini xatti-harakatlarini oqlash maqsadida erisha olmagan narsani qadr-qiymatini pastga ura boshlaydi. Qachonki, u istagan narsasini ololmasa va bundan xafa bo'lsa, «Men aslida buni uncha xohlamagan edim», deya o'ziga taskin berib, ularni qadrsizlantirishga yoki obro'sizlantirishga tushadi.

Giperkompensatsiya inson o'z kamchiliklarini boshqa sifatlari orqali qoplash natijasida sodir bo'ladi. Mazkur kamchiliklar aslida kamchilik emas insonning

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

tabiatiga xos bo'lgan mavjudlik hisoblanadi. Mazkur mavjudlik idrok jarayoni natijasida kamchilik sifatida anglanadi. Giperkompensatsiya kompensatsiyadan farqli ravishda nafaqat kamchiliklarni o'rmini to'ldiradi, balki odamni boshqalardan ustun qo'yishga undaydi. Giperkompensatsiya jamiyatda to'laqonli munosabatlarni rivojlantirishga imkon bermaydi, u asosan do'stona bo'lmagan fazilatlarini shakllantiradi. Ongsiz ravishda himoya qilish mexanizmi ruhiy buzilishlar, cheksiz depressiya, doimiy jismoniy va ruhiy charchoqlarga olib kelishi mumkin.

Uchinchi omil salbiy hissiyotlardan ozod etuvchi siqib chiqarish, rad etish va kompensatsiya himoya mexanizmlarini qamrab oladi. Mazkur himoya mexanizmlarining ham mazmunan o'xshash jihatlari mavjud. Siqib chiqarish va rad etish yoqimsiz yoki bezovta qiluvchi impulslar ong ostiga o'tkazish natijasida yuzaga keluvchi himoya mexanizmlari hisoblanadi. Bu mexanizmlar yoqimsiz yoki bezovta qiluvchi impulslarni izolyatsiya yoki inkor etish natijasida ularni yo'q qiladi.

Kompensatsiya himoya mexanizmi ham inson o'zidagi mavjud kamchiliklar sababli paydo bo'luvchi himoya mexanizmidir. Uning ham asosiy vazifasi faqatgina kamchiliklar tufayli kelib chiqadigan ruhiy zo'riqishlardan xalos bo'lish maqsadida ularni to'g'ri anglamasdan inkor etib insondagi boshqa sifatlarni rivojlantirish hisoblanadi. Shuningdek, kompensatsiya ma'lum bir kishining shaxsiy yoki jismoniy kamchiliklarini o'rmini to'ldirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha harakatlar sifatida namoyon bo'ladi. Qolaversa kompensatsiya jismoniy va ruhiy zo'riqishlarga sabab bo'luvchi faoliyat sohalari o'tkazadi. Misol uchun, bozorda chayqovchilik qilib, xaridorlarni aldab, mo'may daromad oladigan odam ko'pincha o'z aybini «yuvish» uchun muntazam diniy amallarni bajarib yuradi, Allohga tavba-tazarru qilib, mag'firat so'rab iltijo qilib turadi. Bu himoya mexanizmi giperkompensatsiyaga nisbatan xavflilik tug'dirmaydi.

Tadqiqot ishimizning vazifalaridan yana biri tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olingan talabalarning himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligi xususiyatlarini o'rganishdan iborat edi. Shu boisdan biz talaba-yigitlar va qizlarning himoya mexanizmlarini dindorlik tiplari bilan aloqadorlik jihatlari empirik jihatdan

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

aniqladik. Dastlab talaba-yigitlarning himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining bog'liqlik jihatlari o'rgandik (2.1. jadval).

2.1-jadval

Talaba-yigitlarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari (n=116)

Himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari	Falsa-fiy	Sirli	Qo'llab-quvvatlanish	Tashqi	«Sox-ta ilm»	Oliy kuch,	Ichki	Ma'na-viy xulq-atvor
Siqib chiqarish	-0,189*	-0,052	-0,093	0,006	0,001	-0,188*	-0,038	-0,077
Regressiya	0,007	0,096	0,030	0,028	0,122	-0,060	0,014	0,056
O'rmini to'ldirish	-0,097	0,149	-0,041	0,114	0,156	0,098	-0,006	0,173
Rad etish	-0,023	0,136	-0,109	-0,016	0,037	-0,084	-0,158	0,125
Proeksiya	0,073	-0,075	0,159	0,063	0,078	0,176	0,048	0,283**
Kompensatsiya	-0,127	0,100	-0,080	0,038	0,091	-0,030	-0,110	-0,023
Giperkompensatsiya	0,082	-0,032	0,004	0,066	0,071	0,029	-0,041	0,100
Ratsionalizatsiya	0,093	0,026	0,112	0,175	0,087	0,022	0,128	0,142

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$.

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi natijalarga ko'ra, talaba-yigitlarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari o'rtasida ham musbat, ham manfiy korrelyatsion bog'liqliklar aniqlandi.

Bunga ko'ra olingan ma'lumotlar talaba-yigitlarning salbiy hissiyotlardan xalos qiluvchi himoya mexanizmlaridan bo'lgan siqib chiqarish dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish ($r = -0,189$; $r \leq 0,05$) va dunyoni vujudga keltirgan Oliy Kuch, ya'ni Yaratuvchi Zotning mavjudligini tan olish ($r = -0,188$; $r \leq 0,05$) mezonlari bilan manfiy korrelyatsion munosabatlar aniqlandi.

Ushbu raqamlarning mazmuni shundan iboratki, dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish va dunyoni vujudga keltirgan Oliy Kuch, ya'ni Yaratuvchi Zotning mavjudligini tan olish kuchli namoyon bo'lgan talaba-yigitlarda siqib chiqarish himoya mexanizmi past darajada shakllangan bo'lar ekan. Boshqacha qilib aytilsa, siqib

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

chiqarish himoya mexanizmi kuchli namoyon bo'lgan talabalarda dinning asl mohiyatini tushunmaslik, dinga falsafiy yondasha olmaslik, diniy hukmlarning mantig'ini ochib berishda yetarlicha fikrlay olmaslik ehtimolidan darak beradi.

O'zini oqlashga yordam beruvchi himoya mexanizmlaridan proeksiya dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash ($r=0,283$; $r \leq 0,01$) dindorlik tipi bilan uzviy aloqadorlik aniqlandi. Mazkur dindorlik tiplari kuchli namoyon bo'lgan talabalarda proeksiya himoya mexanizmining yuqori darajasi shakllangan bo'lar ekan.

«Men»ning diniy impluslari proeksiyasi ro'y berayotganda ma'naviy xulq-atvor me'yorlariga zid keluvchi o'zidagi mavjud kamchiliklarni boshqa bir mo'min bandaga proeksiyalash imkonini beradi. Islom dinida bunga Imom Abu Dovudning «Mo'min mo'minning ko'zgidir» hadisini misol qilib keltirishimiz ham mumkin. Shaxs ko'pincha ma'naviy xulq-atvor namunalariga xos bo'lgan impulslarni ko'proq proeksiya qiladi. Mazkur impulslar proeksiya qilinganda atrofidagi insonlarning xatti-harakatlarini noto'g'ri idrok etish jarayoni sodir bo'ladi.

Individ o'zi qilmoqchi bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshira olmasa, o'zgalar bu ishlarni bajarayotgani uchun ularning xatti-harakatlarini qoralaydi. Ularga tajovuzkor munosabatda bo'ladi. Inson boshiga tushgan ko'ngilsizliklar sababli olam g'am-tashvishlar manba'ga aylanishi mumkin. Ammo, boshiga tushgan g'am-qayg'ular uchun o'zida aybdorlik hissini boshidan kechirmaydi.

Tadqiqot ishimizda talaba-qizlardan olingan natijalarni ularda mavjud himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari bilan bog'liqlik jihatlarini o'rganganimizda quyidagi aloqadorlik jihatlarini aniqlandi. Ilmiy tadqiqot ishimizda bu borasidagi aniq empirik ma'lumotlar quyidagi jadvalda aks etgan (2.2. jadval).

2.2-jadval

Talaba-qizlarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari ($n=309$)

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari	Falsafiy	Sirli	Qo'llab-quvvatlanish	Tashqi	«Soxta ilm»	Oliy kuch	Ichki	Ma'naviy xulq-atvor
Siqib chiqarish	0,011	-0,061	-0,131	-0,092	0,132	-0,076	-0,071	-0,008
Regressiya	0,081	0,152*	0,054	0,068	0,185*	0,034	0,142	0,081
O'rmini to'ldirish	0,083	0,132	-0,004	0,012	0,028	-0,003	0,112	0,000
Rad etish	0,093	-0,030	-0,019	0,097	0,046	0,120	0,070	0,037
Proeksiya	0,178*	-0,001	0,054	0,056	-0,040	0,166*	0,252**	0,103
Kompensatsiya	0,070	0,120	0,042	0,112	0,143	0,002	0,143	0,120
Giperkompensatsiya	0,299**	0,145*	0,180*	0,132	0,020	0,208**	0,248**	0,165*
Ratsionalizatsiya	0,132	0,012	0,034	0,030	0,023	0,053	0,247**	0,052

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$.

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi natijalarga ko'ra, talaba-qizlarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari o'rtasida ham musbat, ham manfiy korrelyatsion bog'liqliklar aniqlandi.

Bunga ko'ra olingan ma'lumotlar shaxsiy javobgarlikdan ozod qiluvchi himoya mexanizmlaridan bo'lgan regressiya sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar dindorlik tipi bilan ($r=0,152$; $r \leq 0,05$), «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi ($r=0,185$; $r \leq 0,05$) mezonlari bilan musbat korrelyatsion munosabatlar aniqlandi.

Mazkur raqamlar bizga, shaxs ijtimoiy doiralarda ixtilof tug'dirayotgan impulslarlardan himoyalashda namoz o'qib Allohdan ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishni so'rashga, din to'g'ri deb topgan yo'nalish orqali harakat qilib mushkullardan xalos bo'lishga irodasi yetmasligi yoki tushunmasligini ishora qiladi. Shu sababli boshiga tushgan musibatlardan forig' bo'lish uchun dinda joiz hisoblanmagan amallarni bajarishlari mumkin.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

O'zini oqlashga yordam beruvchi himoya mexanizmlaridan proeksiya dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish ($r=0,178$; $r \leq 0,05$), dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish ($r=0,166$; $r \leq 0,05$) va diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash ($r=0,252$; $r \leq 0,01$) kabi dindorlik tiplari bilan uzviy aloqadorliklar aniqlandi. Mazkur dindorlik tiplari kuchli namoyon bo'lgan talabalarda proeksiya himoya mexanizmining yuqori darajasi shakllangan bo'lar ekan.

Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, «Ego»ning diniy impluslari proeksiyasi ro'y berayotganda dinning mazmun mohiyatini, diniy o'zlikni anglash va diniy e'tiqodga aloqador bo'lgan kamchiliklarni boshqa bir mo'min bandaga ko'chirishlari mumkin. Boshqacha qilib aytganda inson Yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish, diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj borasida yuzaga keluvchi kamchiliklarini ongsiz ravishda atrofidagi insonlarning kamchiliklari deb biladi. Aslida esa ular o'zining kamchiliklari ekanligini anglab yetmaydi.

Giperkompensatsiya himoya mexanizmi dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish ($r=0,299$; $r \leq 0,01$), sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar ($r=0,145$; $r \leq 0,05$), dinga qo'llab-quvvatlash va taskin topish manbai sifatida qarash ($r=0,180$; $r \leq 0,05$), Oliy kuch, ya'ni Yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish ($r=0,208$; $r \leq 0,05$), diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash ($r=0,248$; $r \leq 0,01$) va dinga ma'naviy xulq-atvor meyorlari sifatida qarash ($r=0,165$; $r \leq 0,05$) singari dindorlik tiplari bilan musbat bog'liqlik aniqlandi.

Ushbu asosga ko'ra, giperkompensatsiya kompensatsiya himoya mexanizmidan farqli o'laroq talabalar ixtilof tug'dirayotgan impulslardan yoki gunohlari tufayli yuzaga kelgan ruhiy zo'riqishlardan himoalanish maqsadida ongsiz ravishda yuqoridagi dindorlik tiplariga yo'nalish ehtimolini beradi. Dindorlik xususiyatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yishga harakat qiladilar. Har bir diniy amallarini atrofidagi insonlardan ko'ra mukammalroq darajada ado etishga harakat qilishadilar.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ratsionalizatsiya himoya mexanizmidagi diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash dindorlik tipi bilan ($r=0,247$; $r \leq 0,05$) musbat korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi.

Bunga ko'ra, talaba-qizlar «ID» tomonidan xavf tug'diruvchi ko'ngilsizliklarni talaba-yigitlardan farqli ravishda diniy o'zlikni anglash orqali oqlashga harakat qilishadi. Bunga «Yo'qolgani xo'p bo'ldi, boshimga tor kelardi» o'zbek maqolini misol qilib keltirishimiz mumkin.

2.2. Shaxs xususiyatlarini tadqiq etishning metodologik asoslari va o'tkazilgan metodikalarning dastlabki statistik tahlili natijalari

Bugungi kunda shaxsning individual psixologik xususiyatlari psixologiya fanining barcha yo'nalishlarida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Chunki shaxs xususiyatlari – bu har xil vaziyatlar va vaqtlarda ma'lum bir tarzda aks etuvchi barqaror tendensiyalar hisoblanadi. Shaxs xususiyatlari – xulq-atvorda mavjud bo'lgan psixik tuzilmalar bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan turli vaziyatlarga nisbatan bir xil harakat qilish imkoniyatini belgilab beradi. Insonning ijtimoiy hayotga aloqasi bo'lmagan fiziologik va genetik xususiyatlari esa shaxs xususiyatlari tarkibiga kirmaydi.

Psixologiya fanida shaxsning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida eng ishonchli va ilmiy asoslangan ma'lumotlarni olish uchun ma'lum bir metodlarga murojaat qilish talab etiladi. Shaxs xususiyatlarini metodlar yordamida aniqlash kasbga yo'naltirishda, xulq-atvoridagi og'ishlarni psixologik korreksiya qilishda, shaxslararo munosabatlarda, insonlarning bir-birlarini tushunib yetishlarida yoki shaxsning boshqa jihatlari bilan o'zaro bog'liqligini anglashda yordam beradi.

Psixologiyada shaxs xususiyatlarini aniqlovchi metodikalarning ko'plab turlari mavjud. Ulardan biri Frayburg shaxs so'rovnomasi hisoblanadi. Frayburg shaxs so'rovnomasining metodologik asosi R.B. Kettel, S.Xetvey, Dj.Makkinli va G.Ayzenklarning shaxs nazariyalari hisoblanadi. Frayburg shaxs so'rovnomasining tuzilishi shakli R.B. Kettel «16 omilli shaxs so'rovnomasi», S.Xetvey va

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

J.Makkinlining «Minnesota ko'p omilli shaxs so'rovnomasi» hamda Ayzenkning «Shaxs so'rovnomasi» kabi metodlarni tarkibiy tuzilishi tajribasidan olingan.

Bugungi kunda mazkur metodikaning FPI-R va FPI-B kabi moslashtirilgan turlari mavjud. Metodikaning FPI-R shakli Germaniyada juda keng tarqalgan. Rossiya va bizning muhitda esa FPI-B shaklidan ko'proq foydalaniladi. FPI-B shakli metodikaning FPI-R shaklidan ikki barobar kam bo'lgan savollari bilan farq qiladi. FPI-B shaklida umumiy savollar soni 114 tani tashkil etadi. So'rovnoma tarkibidagi savollar tasdiqlash ko'rinishida bo'lib, sinaluvchilar ularga «Ha» yoki «Yo'q» javobini belgilash bilan kifoyalanadi. FPI-B so'rovnomasi asosan, ijtimoiy moslashuv va xulq-atvorni boshqarish, tartibga solish jarayonida muhim bo'lgan shaxs xususiyatlari va holatlarini diagnostika qilish uchun ishlab chiqilgan.

A.A. Kravlova va L.V. Kulikovning psixik holatlar va shaxslararo munosabatlar diagnostikasiga bag'ishlangan tadqiqotlariga ko'ra, FPI-B emotsional barqarorlik darajasi, shaxsning kommunikativ sifatlarini, ekstroversiya va introversiya kabi xususiyatlarni aniqlaydi. Bundan tashqari metodika psixik holatlar xususiyatlarini to'liqroq tushuntirishga imkon beradi. FPI-R shakli FPI-B dan farqli ravishda sinaluvchilardan turli xil topshiriqlarini hal etishga yo'naltirilgan. U psixosomatika, psixoterapiya, reabilitatsiya, surunkali kasalliklar diagnostikasi va tibbiyot psixologiyasida samarali foydalanib kelinadi.

Mazkur so'rovnoma Farenberg, Zarg, Gampel kabi nemis psixologlari tomonidan 1963 yilda ishiab chiqila boshlangan. So'rovnomaning birinchi versiyasi 1970 yilda nashr etilgan (ikkinchi va uchinchi nashrlari 1973 va 1978 yillar). U 222 ta savoldan iborat FPI-R – to'liq va 114ta savoldan iborat FPI-B – qisqartirilgan shakllaridan iborat.

FPI-B so'rovnomasi 1989 yilda Gamburg universiteti bilan ilmiy hamkorlik to'g'risidagi shartnomaga binoan. Leningrad davlat universiteti psixologiya fakultetida A.A. Kravlov va T.I. Ronginskiy tomonidan moslashtirilgan. Shu sababli, biz ham o'z ishimizda shaxsning psixologik xususiyatlarini aniqlashda A.A. Kravlov va T.I. Ronginskiy tomonidan moslashtirilgan «Frayburg shaxs so'rovnomasidan»

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

foydalandik. Tadqiqot ishimizda mazkur metodikani tanlab olganimizning asosiy sabablari metodikada shaxs xususiyatlari mavjudligidan tashqari ikkilamchi psixologik himoya mexanizmlari ham hisoblanadi va shaxsning psixologik himoya mexanizmlari insonlarning emotsional sohasiga asoslansa, shaxs so'rovnomasi ham xarakterning emotsional sohasiga asoslanadi.

So'rovnoma individual yoki guruhiy shaklda o'tkazish uchun mo'ljallangan va shaxslarda emotsional o'zgaruvchanlik, depressivlik, jizzakilik, asabiylik, tortinchoqlik, spontan agressivlik, reaktiv agressivlik, samimiylik, ekstroversiya-introversiya, mavkulinizm-feminizm, muvozanatlashganlik va muloqotmandlik kabi shaxs xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan (3-ilova).

Yuqorida sanab o'tilgan so'rovnoma shkalalariga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo'lsak ular ham mazmuniy jihatdan ikkita ya'ni salbiy va ijobiy shaxs xususiyatlariga differensatsiyalanishini ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan ilmiy farazimiz bizni talaba-yoshlarning shaxs xususiyatlarini faktorli aniliz tahlilini amalga oshirishga undadi. Buni qarangki, faktorli aniliz tahlili natijalariga ko'ra talaba-yoshlarning 12 ta shaxs xususiyatlari jami ikkita faktorga birlashdi (4-ilova).

Faktorli tahlil natijalariga ko'ra, talaba-yoshlarning o'n ikkita shaxs xususiyatlarining barchasi mazmunan ikkita faktorga birlashdilar. Biz esa ushbu natijalarni xisobga olgan holda birinchi faktorga «Salbiy shaxs xususiyatlari», ikkinchi faktorga «Ijobiy shaxs xususiyatlari» deb nom berdik.

Shuningdek mazkur metodika orqali ham talabalar jinslararo va ular tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tafovutlarga ajratilib, ulardan olingan natijalarning o'rtacha, standart og'ish ko'rsatkichlari va dominant shaxs xususiyatlari aniqlandi.

Yana bir ilmiy farazimizga ko'ra, «Frayburg shaxs so'rovnomasi» metodikasida talabalarning fan sohalari yo'nalishlariga sezgirligi yo'q hisoblanadi. Chunki talabalarning tanlagan ta'lim yo'nalishlari ularning shaxs xususiyatlarini belgilab bermaydi. Talabalar qaysi yo'nalishda tahsil olishidan qat'i nazar shaxs xususiyatlari ularning barchasi uchun xos bo'lgan xarakterning emotsiyalari hisoblanadi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Biz ilgari surayotgan ilmiy farazimizni tadqiqot ishimizning natijalari ham isbotlab berdi. Ya'ni talabalardan olingan natijalar fan sohalariga ajratilib tekshirilganda ular orasidagi farqlar kuzatilmadi. Natijalar ilova tarzida taqdim etib o'tilgan (5 – ilova).

Biroq mazkur metodika orqali talabalarining jinslararo tafovutlariga sezuvchanlik xususiyati borasida fikr yuritdik. Chunki qizlar o'ziga xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, yigitlarga qaraganda asabiy, jizzaki, muvozanatlashmagan, tortinchoq, introvert va ayollarga xos bo'lgan xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Qizlardagi bu kabi farqli xususiyatlarga kundalik hayotimizda ham ko'p guvoh bo'lganmiz.

Bizning mazkur ilmiy farazimiz ilmiy tadqiqot ishimizda o'z tasdig'ini topdi. Talabalardan olingan natijalar jinslararo farqlarga ajratilib ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi SPSS 26.0 versiyasi asosida Mann-Uitni U mezonini orqali tekshirilganda ular orasida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi (2.2.-jadval).

2.2.-jadval


Talaba-yoshlarda shaxs xususiyatlari namoyon bo'lishining jinsiy tafovutlari (Mann-Uitni U mezonini asosida)

Shaxs xususiyatlari	Guruhlar		U	P
	Yigitlar N=116	Qizlar N=193		
Asabiylik	139,8	164,1	9435,0	0,020*
Spontan agressivlik	166,4	148,1	9864,0	0,077*
Depressivlik	141,7	162,9	9660,0	0,043*
Jizzakilik	140,4	163,7	9511,0	0,026*
Muloqotmandlik	158,7	152,7	10763,0	0,569
Muvozanatlashganlik	152,7	145,4	9345,0	0,014*
Reaktiv agressivlik	158,1	153,1	10828,5	0,627
Tortinchoqlik	137	165,7	9116,0	0,005**
Samimiylik	164,1	149,5	10132,5	0,160
Ekstraversiya -introversiya	166,4	148,1	9862,0	0,077*
Emotsional o'zgaruvchanlik	133,9	167,6	8751,5	0,001***
Maskulinizm-feminizm	168,29	168,29	9652,0	0,626

Izoh. * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili natijasida shaxs xususiyatlari bo'yicha yigitlar va qizlar o'rtasida Mann-Uitni U-mezonini asosida sezilarli farqlar aniqlandi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Yigitlar va qizlar o'rtasida shaxs xususiyatlari bo'yicha aniqlangan tafovutlar

Asabiylik shkalasi bo'yicha yigitlar va qizlar o'rtasida (o'rtacha ranglar: 139,8 va 164,1) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=9435,0$; $p \leq 0,05$). Asabiylik shkalasi bo'yicha qizlarning natijalari yigitlarga qaraganda yuqoriroq ekanligi ma'lum bo'ldi. O'rtacha ranglar orqali aniqlangan raqamlarga ko'ra asabiylik qizlar tabiatiga hos bo'lgan xususiyat ekanligi aniqlandi. Bu esa o'z navbatida asabiylik shkalasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan qizlar hayotda sodir bo'ladigan turli xil vaziyat va hodisalarga yigitlarga qaraganda tez asabiylik xususiyatini namoyon etishlaridan darak beradi.

Spontan agressivlik shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 166,4 va 148,1) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=9864,0$; $p \leq 0,05$). Yigitlarda esa qizlarga qaraganda spontan agressivlik xususiyati darajasi yuqori bo'lar ekan. Yigitlardagi spontan agressivlik xususiyati hech qanday sababsiz, odatda qandaydir ichki impulslar ta'sirida paydo bo'ladi. Bu xususiyatga moyillik darajasining yuqori bo'lishi, yigitlar g'azab ta'sirida o'zini yo'qotib qo'yish, o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara olmay qolish ehtimoli yuzaga kelishi mumkin.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Depressivlik shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 141,7 va 162,9) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=9660,0$; $p\leq 0,05$). Qizlarda yigitlarga qaraganda depressivlik, ya'ni tushkunlikka tushish darajasi yuqoriroq bo'lar ekan. Bunga ko'ra, qizlar doim pessimist bo'lishlari va shaxslararo munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar haqida ko'p o'ylashlari mumkin. Bu esa o'z navbatida ularning hayotda tushkun kayfiyatda yurishiga sababchi bo'lishi mumkin. Yaqinlarining baxt-saodati uchun o'zligidan kechishga ham tayyorligi yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin. Ko'pincha, o'zlarini aybdor his qiladilar. Hayotda yashash juda og'ir, barcha narsa kuch talab qiladi va azob uqubatlarni keltirib chiqaradi deb o'ylaydilar. Ulardagi bu xususiyat biror ishda muvaffaqiyatga erishishga katta to'siq bo'lib turishi ehtimoldan holi emas. Bu depressiv qizlar uchun yuqoridagi barcha xususiyatlar xos degani emas. Ularning aksariyati juda vijdonli, mehnatsevar, qo'lidan kelganicha harakat qilishga, o'z kasbiy yoki oilaviy muhitiga g'amxo'rlik qilishga intilishadi.

Jizzakilik shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 140,4 va 163,7) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=9511,0$; $p\leq 0,05$). Qizlar yigitlarga qaraganda jizzakilik xususiyati yuqori bo'lar ekan. Ko'pincha qizlar asabiylashish va ongli fikrlashdan qochish maqsadida jizzakilik xususiyatini namoyon etadilar. Kundalik turmushda yoqimli va yoqimsiz narsalarga sezgirligi juda yuqori bo'ladi. Natijada ular xatti-harakatlari va so'zlari orqali boshqalarga nisbatan norozilik hamda dushmanlik kayfiyatida munosabatda bo'ladilar. Shuning uchun ularni biror-bir xatti-harakatlariga to'siq qo'yilsa tezda jizzaki bo'lib qoladilar.

Muvozanatlashganlik shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 152,7 va 145,4) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=9345,0$; $p\leq 0,05$). Yigitlar qizlarga nisbatan muvozanatlashgan bo'ladi. Muvozanatlashganlik yigitlarning o'ziga xos xususiyati sifatida qaraladi. Ular hayotlarining baxtli va baxtsiz kunlarida ham o'zlarini xotirjam tutadilar. Dushmanlik va norozichilik kayfiyatisiz shaxslararo munosabatlarga kirishadilar. Ya'ni, do'stga va dushmanga birdek munosabatda bo'ladilar. Mag'rurlanmaydilar, aksincha u paydo bo'lgan joyda muvozanatlashganlik

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

hukmronlik qiladi. Kibr, takabburlik va beparvolik sifatleri ulardan yiroq bo'ladi. O'ziga ishonchi baland, stresslarga nisbatan barqaror, hayotga doimo ijobiy ko'z bilan qaraydilar.

Tortinchoqlik shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 137 va 165,7) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=9116,0$; $p\leq 0,01$). Haqiqatan ham qizlarda tabiatan yigitlarga qaraganda tortinchoqlik xususiyatlari yuqori bo'ladi. Ular begona muhitga moslashishga va shaxslararo munosabatlarga kirishishga juda qiynaladilar. Ko'proq yolg'izlikni xush ko'radilar. Atrofidagi insonlar bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladilar. Munosabatlarda ta'sirchan va o'z huquqlarini himoya qila olmaydilar. O'zlariga nisbatan ishonchsiz kayfiyatda bo'ladilar. Uyatchanlik xususiyati ularning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xatti-harakatlarini cheklaydi. Samarali muloqot va aniq fikrlashga xalaqit beradi. Ulardagi bu xususiyat uyatchanlik, yolg'izlik, xavotir va tushkunlik tuyg'ulariga bog'liq.

Ekstraversiya-introversiya shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 166,4 va 148,1) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=9862,0$; $p\leq 0,05$). Yigitlar ko'proq ekstravert, qizlar temperamenti esa introvert tiplariga mansub bo'lar ekan. Unga ko'ra:

Qizlar og'ir, vazmin, ko'ngli nozik, beparvo, do'stlik qoidalariga qat'iy amal qiladigan bo'ladilar. Muloqot doiralari cheklangan, tortinchoq, ko'proq o'zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg'izlikni yoqtiradilar.

Yigitlar esa ko'proq odamlar ichida bo'lishni yoqtirishadi, o'z kechinmalarini ko'proq atrofdagilar bilan baham ko'radilar. Muloqotga kirishuvchan, tanishlar doirasi keng bo'ladi. Odamlarning ishonchini tez qozona oladilar va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil bo'ladilar.

Emotsional o'zgaruvchanlik shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 133,9 va 167,6) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=9862,0$; $p\leq 0,05$). O'n birinchi shkalaga ko'ra, qizlar yigitlardan o'zlarining emotsional o'zgaruvchanligi bilan farqlanar ekan.

Bunga muvofiq, qizlar turli-xil ahamiyatsiz narsalarga ham kayfiyatlari va hissiyotlari juda tez o'zgaruvchan bo'ladilar. Kayfiyatlari beqaror bo'ladi. Ulardagi bu xususiyat asosan, kuchli stress va ta'sirlardan so'ng paydo bo'ladi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Bunga ko'ra qizlar kayfiyatining tez-tez o'zgarib turishi, haddan ortiq biror-bir ish bilan mashg'ul bo'lishi, agressivligi, autoagressivligi va haddan ortiq ko'z yoshlar to'kishi singari holatlar bilan o'g'il talabalardan ajralib turadilar.

2.3. Dindorlik tiplarini tadqiq etish metodikalari va birlamchi ma'lumotlar tahlili

Avvalgi boblarda tahlil etilgan dindorlik nazariyalari ko'pgina olimlarning dindorlikni empirik jihatdan tadqiq etishga bo'lgan qiziqishini yanada orttirdi. Buning natijasida psixologiya fanida diniy yo'nalganlik tiplarini aniqlaydigan metodikalar vujudga kela boshladi. Metodikalarni vujudga kelishiga zamin hozirlagan nazariyalar esa ularning metodologik asosi bo'lib xizmat qilgan.

Metodologik jihatdan dindorlikni empirik o'rganish psixologik himoya mexanizmlarini tadqiq etish singari tadqiqotchilarga burmuncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Chunki bu xususiyatlar insonning e'tiqodiga bog'liq bo'lganligi sababli insonlar o'zlarida mavjud bo'lgan dindorlik ko'rinishlarini oshkor etishni xohlamasligi, metodika savollariga ochiq-oydin fikr bildirishdan bosh tortishlari kabi omillar tadqiqotchilar uchun birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Ushbu qiyinchiliklarni o'z zimmamizga olib, biz ham ilmiy tadqiqot ishimizda insonlarning diniy yo'nalganlik tiplarini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun biz tadqiqot ishimizda shaxsning diniy yo'nalganlik tiplarini aniqlashga qaratilgan bir nechta metodikalardan foydalandik.

Bugungi kunda mamlakatimizning zamonaviy psixologiya fanida e'tiqodning ichki mexanizmlarini ma'lum bir mezonlarga ajratib, ularni izohlovchi tadqiqotlar soni juda ozchilikni tashkil etadi. Mavjud asarlarda dindorlikning faqat bir tomonlama jihatlari yoritilgan. Shu sababli biz diniy yo'nalganlik tiplarining ham, dinning ham psixologik jihatlari yoritib o'tishni maqsad qildik.

Mazkur murakkab vazifani ado etish maqsadida bir nechta diniy yo'nalganlik tiplarini aniqlab beruvchi metodikalardan foydalandik. Ulardan biri G.Olportning «Diniy yo'nalganlik» metodikasi hisoblanadi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Psixologlar azaldan inson hayoti davomida sodir bo'ladigan voqealarni talqin qilishda dinning ahamiyatini bilishga qiziqib kelishgan. Aynan shu qiziqishlar olimlarning metodikalar yaratishlariga turtki bo'lgan. Bunday olimlar qatoriga mashhur amerikalik psixolog G.Olportni misol qilib keltirishimiz mumkin. G.Olport psixologiya fanida insonning ichki va tashqi diniy yo'nalganlik nazariyasi va metodikasini yaratgani bilan ham mashhur olimlardan biri hisoblanadi.

G.Olportning ichki va tashqi diniy yo'nalganlik nazariyasi va metodikasining metodologik asosi:

- U.Djeymsning dinning ichki va tashqi jihatlari nazariyasi;
- E.Fromning avtoritar va gumanistik dindorlik nazariyalari hisoblanadi.

Olportning 1937 yilda nashr qilingan kitobi uning din, dindorlik va diniy yo'nalganlik bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarga qiziqishidan dalolat beradi. Olimning 1950 yilda nashr etilgan «Individ va uning dini» kitobida esa diniy tuyg'ularning bosqichlari keltirib o'tiladi. Ushbu asarda olim dindorlikning yetuk va yetuk bo'lmagan ko'rinishlarga ega ekanligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. 1954 yilda esa ushbu nazariya institutsional va ichki diniy yo'nalganlik tiplariga o'zgaradi. Va nihoyat, 1959 yilga kelib bu ham o'zgarib, ichki va tashqi diniy yo'nalganlik tiplari nazariyasi vujudga keladi.

Shu asnoda, 1959 yildan boshlab zamonaviy psixologiyaga ichki va tashqi dindorlik tiplari tushunchasi kirib keldi. Bu tushuncha fanga G.Olport [93] tomonidan olib kirildi. G.Olport 1967 yilda E.Ros bilan birgalikda o'z nazariyasida doirasida «Olport va Rosning diniy yo'nalganlik so'rovnomasi»ni ishlab chiqadilar [36]. «Diniy yo'nalganlik so'rovnomasi» tuzilish shaklining metodologik asosi sotsiolog G.Lenski [22] metodikasining tuzilishiga asoslanadi.

So'rovnoma jami 20 ta savoldan iborat bo'lib, 1 dan 11 gacha bo'lgan savollar tashqi diniy yo'nalganlik shkalasini aniqlashga qaratiladi. Qolgan 11 dan 20 gacha bo'lgan savollar esa ichki diniy yo'nalganlikni aniqlovchi savollardan iboratdir. Har bir savolga to'rttadan javob variantlari berilgan va ularga ma'lum miqdordagi ballar beriladi (6-ilova).

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Javoblarni qayta ishlash jarayoni har bir mezonga tegishli bo'lgan savollarga berilgan javoblariga qarab umumiy ballar hisoblanadi va ustun diniy yo'nalganlik tiplari aniqlanadi.

Biz ham G.Ollport metodikasidan foydalangan holda talabalarni ta'lim yo'nalishlariga ajratgan holda, ularning diniy yo'nalganlik tiplarini aniqlashga harakat qildik.

Ilmiy farazimizga asosan «Diniy yo'nalganlik so'rovnomasi» bizning muhimimizda jins tafovutlariga nisbatan sezgir emas. Chunki erkaklar va ayollarda ham tashqi, ham ichki diniy yo'nalganlik mavjud bo'lib, ular deyarli bir-biridan farqli jihatlari bilan ajralib turmaydi. Xuddi shuningdek, ilmiy tadqiqot ishimizning natijalari ilmiy farazimizning to'g'ri ekanligini isbotladi (7-ilova).

Ammo, fikrimizcha, «Diniy yo'nalganlik so'rovnomasi» ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fan sohalari sezuvchan hisoblanadi. Chunki ijtimoiy-gumanitar fan sohalari vakillari o'zlarining jamiyatga ta'sirini, foydaliligini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita va avvalambor, ta'lim tizimi orqali namoyish etadilar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning shakllanish xususiyatlari ko'proq falsafiy nazariyalariga borib taqaladi. Shuning uchun fanlarning asosini ko'proq faylasuf olimlarning nazariyalari va tarixiy jarayonlar tashkil etadi. Mazkur fanlarda sub'ekt-ob'ekt emas, balki sub'ekt-sub'ekt munosabatlari ustunlik qiladi.

Shuning uchun ham ijtimoiy-gumanitar fan sohalari talabalar boshqa yo'nalish talabalariga nisbatan o'rganayotgan fanlardan kelib chiqib aniq va tabiiy dalillar asosida isbotlanmagan voqea, hodisa va jarayonlarga ishonishga moyillik darajalari yuqoriroq bo'lishi mumkin. xuddi shuningdek, dinning mohiyatini inson tomonidan isbotlab bo'lmaydigan narsalar, voqea va hodisalar tashkil etadi. Ularga nisbatan bo'lgan ishonch esa ijtimoiy-gumanitar fan sohalari talabalarida aniq va tabiiy fan talabalariga nisbatan yuqori bo'lishi mumkin.

Aniq va tabiiy fanlarda esa sub'ekt-ob'ekt munosabatlari ustunlik qiladi. Mazkur fanlar asosini turli xil vositalar orqali aniq va tabiiy jihatdan o'z isbotini topgan, qo'l

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

bilan ushlab, ko'z bilan ko'ra oladigan nazariyalar va ularning natijasida hosil bo'lgan voqea va hodisalar tashkil etadi.

Mazkur fan sohalari ta'lim oluvchi talabalar ham amaliy jihatdan o'z isbotini topuvchi narsalar, voqea va hodisalarga ishonishga nisbatan moyilliklari yuqori bo'lishi mumkin. Shuning uchun aniq va tabiiy fanlar yo'nalishlarida ta'lim oluvchi talabalar ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda ta'lim oluvchi talabalarga nisbatan diniy yo'nalganliklari past ko'rsatkichlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu ilmiy farazimiz ham ilmiy tadqiqot ishimizda o'z tasdig'ini topdi. Talabalardan olingan natijalar ular ta'lim olayotgan fan sohalari bo'yicha farqlarga ajratilib ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi SPSS 26.0 versiyasi asosida Kruskal-Uollis H mezoni orqali tekshirilganda ular orasida farqli jihatlari kuzatildi (2.3-jadval).


2.3-jadval

Talaba-yoshlarda ichki va tashqi diniy yo'nalganlik tiplarining namoyon bo'lishining ta'lim yo'nalishlariga ko'ra tafovutlari (Kruskal-Uollis H mezoni)

Diniy yo'nalganlik tiplari	Ta'lim yo'nalishlari			H	p
	Ijtimoiy-gumanitar fanlar N=153	Tabiiy fanlar N=71	Aniq fanlar N=85		
Tashqi	147,9	148,6	172,9	4,76	0,092
Ichki	178,2	137,6	127,6	21,06	0,000***

Ko'rsatkichlar qiyosiy tahlilida ichki va tashqi diniy yo'nalganlik bo'yicha ta'lim yo'nalishlari o'rtasida Kruskal-Uollis mezoni ($p=0,05; 0,01; 0,001$) asosida sezilarli farqlar ishonchliligi kuzatildi (2.4-rasm).

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI



2.4-rasm. Talabalar ta'lim yo'nalishlari o'rtasida ichki va tashqi diniy yo'nalganlik tiplari bo'yicha aniqlangan tafovutlar

Ichki diniy yo'nalganlik mezoni bo'yicha (o'rtacha ranglar: 147,9, 148,6 va 172,9) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($H=21,06$; $p \leq 0,05$). Mazkur tafovutlarga ko'ra ijtimoiy-gumanitar yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning ichki diniy yo'nalganligi tabiiy va aniq fanlar yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga qaraganda yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Ya'ni ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi talabalari uchun din motiv va eng yuqori qadriyat hisoblanishi mumkin.

Ehtimol, ular dini boshqa ehtiyojlaridan ustunroq qo'yishlari va diniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda yashashga ko'proq intilsalar, ajab emas. Shu sababli, ular o'z xatti-harakatlarini diniy normalar va qoidalarga bo'ysundirishga harakat qilishlari mumkin va ichki diniy yo'nalganlik bunday talabalarda ajralmas axloqiy sifatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Yu.V.Shcherbatixning «Individual dindorlik tiplarini aniqlash» metodikasi. Bugungi kunda psixologiyada individual dindorlik tiplarini o'rganishning dolzarb muammolari diniy yo'nalganlik jamiyat taraqqiyotida shakllanib borayotgan har bir zamonaviy shaxs uchun xos bo'lgan xususiyat ekanligini ta'kidlaydi. Individual dindorlik – bu Alloh tomonidan yaratilgan dunyoni idrok etishning maxsus paradigmasi mavjudligi bilan shartlangan va murakkab integral ijtimoiy-psixologik xususiyat sifatida tavsiflanadi. Dindorlik tuzilmasi zamirida shaxsning turli xil dindorlik darajalari va tiplariga ega bo'lgan ko'rsatkichlar to'plami tushuniladi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Shuning uchun ham biz zamonaviy shaxs psixologiyasida shakllangan dindorlik tiplari va psixologik himoya mexanizmlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun diniy yo'nalganlik tiplarini aniqlaydigan zamonaviy metodikalardan birini tanlab oldik. Ushbu metodika shaxsning individual dindorlik tiplarini aniqlashga qaratilgan I.F.Myagkov, Yu.V.Shcherbatix, M.S.Kravsovalarning «Individual dindorlik tiplari tuzilishi» nomli metodikasidir.

Olimlarning mazkur metodikani yaratishiga sabab so'ngi yillarda dinning jamoatchilik ongiga ta'siri bir necha marotaba oshganligi va diniy ong sifatida o'rganilishiga qarshi bo'lgan turli xil mafkuraviy taqiqlarni olib tashlanishi bo'ldi. Shu maqsadda 1995 yil Voronej davlat universiteti olimlari deviant xulq-atvor shakllarining psixologik laboratoriyasida dindorlik tiplari tuzilishi bo'yicha test savolnomasi ishlab chiqqanlar. Dindorlik darajalarini o'lchovchi mazkur metodika jami 40 ta savoldan iborat bo'lib, ular

- dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish;
- sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar;
- dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash;
- dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish, «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi;
- dunyoni vujudga keltirgan oliy kuch, ya'ni yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish;
- diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash, dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash kabi 8 ta dindorlik tiplarini o'z ichiga qamrab oladi (8-ilova).

Mazkur metodika shkalalarining barchasi bir qarashda bir xildan anglanishi mumkin. Chunki barcha shkalalar insonning e'tiqodidan kelib chiqqan holda dindorlik tiplari hisoblanadi. Ammo diqqat bilan fikrlab nazar solinsa ular ular o'rtasida sezilarli darajada mazmuniy farqli jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Mazkur shkalalar orasidagi mazmuniy farqli jihatlari bizni «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi va sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar kabi dindorlik tiplari qolganlariga nisbatan alohida bir butunlikni tashkil etadi degan xulosaga kelishimizga sababchi omil bo'ldi.

Buning sababi shundan iboratki mazkur ikkita shkala ham noto'g'ri anglanilgan, ya'ni uyg'unlashmagan dindorlik tiplari hisoblanadi. Shuningdek o'z qarashlarimizni amaliy tasdig'ini toptirish maqsadi bizni talaba-yoshlarning individual dindorlik tiplarini faktorli analizni amalga oshirishga undadi.


Buni qarangki faktorli analiz natijalariga ko'ra talaba-yoshlarning sakkizta dindorlik tiplari jami ikkita fargaga birlashdi (9-ilova).

Yuqorida keltirilib o'tilgan ilmiy asoslarni inobatga olgan holda biz quyida talaba-yoshlarning dindorlik tiplarining faktorli ko'rinishlarini rasm ko'rinishida aks ettirdik (2.5-rasm).

Birinchi omilga tegishli bo'lgan tiplar talaba-yoshlar dindorligining uyg'unlashgan tipini hosil qiladi. Bu esa o'z navbatida talaba-yoshlarda konstruktiv diniy xulq-atvorni (diniy ibodatlarini bajarish, Allohning yagonaligiga iymon keltirish, diniy ehtiyojini qondirish, Qur'oni Karim va hadislarda ma'naviy xulq-atvoriga doir bo'lgan dalillarga imkon qadar amal qilish, boshiga tashvish tushsa, diniy amallarga ko'proq e'tibor qaratish) shakllantiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Nima uchun aynan mazkur mezonlar konstruktiv diniy xulq-atvorni shakllantirishini esa quyidagicha izohlashga harakat qildik.

Inson hayotida psixik apparat tuzilmalarining («Id», «Ego» va «Super-Ego») o'zaro kurashi natijasida psixologik va fiziologik jihatdan emotsional toliqish va zo'riqish holatlari yuzaga keladi. Mazkur tuzilmalar o'rtasida yuzaga keluvchi kurashlarga sabab bo'luvchi asosiy omillar insonni o'rab turuvchi tashqi va ichki muhit hisoblanadi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI



2.5-rasm. Individual dindorlik tiplarining konstruktiv va destruktiv xulq-atvor shakllanishiga ta'siri.

Aynan ular o'rtasida yuzaga keluvchi manfaatli munosabatlar ta'sirida inson turli xil kechinmalarni boshidan kechiradi. Aynan ushbu vaziyatlarda din insonlarga psixoterapevtik vazifani o'tab beradi. Shu boisdan ham inson ma'lum bir ta'sirlar girdobiga tushganda ulardan xalos bo'lish uchun diniy ibodatlar orqali Allohdan yordam so'raydi. Shu yo'l bilan insonlar ruhiy taskin topadilar. Bu insonlarning konstruktiv diniy xulq-atvorini shakllantirishga va tartibga solib turishga xizmat qiladi.

Dindorlikning mazkur tarkibiy elementlari talabalar dindorligining uyg'unlashgan tipini shakllantiradi, bu esa talaba-yoshlardagi Allohga bo'lgan

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

ishonch, Uning marhamatidan umid qilish, ibodat amallarini bajarish, sabr toqatli bo'lish va Allohning taqdiriga rozi bo'lish kabi uyg'unlashgan dindorlik tiplarini shakllantiruvchi sifatlarni rivojlantiradi. Mazkur tiplar tarkibida esa dinning asl mohiyatini anglatuvchi dindorlik xususiyatlari o'z aksini topgan.

Psixologik nuqtai nazardan shaxsning ma'lum narsalarga yoki xususiyatlarga moyillik darajalari ma'lum bir mezonlarga qiyoslanadi. Xuddi shuningdek, insonning dinga nisbatan moyilligi, munosabati uning ichki ehtiyoj sifatida yoki ma'lum bir maqsadlarni ko'zlagan holda tashqi dindorlik xususiyatlarining past yoki yuqoriligiga qarab belgilanadi. Inson ichki ehtiyoj nuqtai nazaridan dinga yo'nalsa, unda mazkur xatti-harakati uchun hech bir mukofot kutmaydi. Uning bu xatti-harakatlari zamiridan biror nima umid qilishlik esa ko'proq tashqi dindorlik belgilariga nisbatan yo'nalganlikdan dalolat beradi. Shuningdek, ichki ehtiyoj tashqi muhit ta'siriga bog'liq bo'lmaydi. Xulq-atvorni identifikatsiyalash holati ham kuzatilmaydi. Mazkur mezondan o'rin olgan bu kabi holat va xususiyatlar insonni ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishiga xizmat qiladi. Barqaror konstruktiv insoniy fazilatlar va xususiyatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Chunki diniy manbalarda keltirilgan haqiqatlar, qadriyatlar insonlarni jamiyat tomonidan ma'qullangan xatti-harakatlarni bajarishga undaydi.

Ikkinchi faktorga tegishli bo'lgan sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar va soxta ilmga qiziqish kabi dindorlik tiplarini «Uyg'unlashmagan dindorlik tiplari» deb nom berdik.

Dindorlikning mazkur tarkibiy elementlari talabalar dindorligining uyg'unlashmagan turini shakllantiradi, bu esa talabalarda sehr-jodu qilishga, «Yomon ko'zlar» va «Issiq-sovuq qilishlar»ga jodugar va afsungarlarning yovuz ruhlar bilan muloqot qila olishiga, insonlarning koinotdan kuch-quvvat va axborot olishga qodiriligiga bo'lgan ishonch, burjlarga asoslangan bashoratlarga ishonch kabi uyg'unlashgan dindorlik tiplarini shakllantiruvchi sifatlarni rivojlantiradi. Shuningdek mazkur uyg'unlashmagan dindorlik tiplari dinning asl mohiyatini buzib ko'rsatib insonlarni sof e'tiqoddan adashtirish ehtimoli yuqori ekanligidan darak beradi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Diniy manbalarda keltirilgan haqiqatlarni ilmiy jihatdan tasniflab beruvchi psixologik adabiyotlarda dinning psixoterapevtik, psixokorreksion va psixokonsultativ xususiyatlari borligi ko'plab keltirilgan. Mazkur xususiyatlar shaxsning ayni vaqtdagi dolzarb muammolarini hal etishga yordam beradi, mukammal darajaga yetishi va uning samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini oshirish va psixopatologik va patopsixologik alomatlarini to'xtatishga yordam beradi. Bu jarayonlar amalga oshishi uchun esa inson dinning asl mohiyatini to'g'ri tushunishi, undagi haqiqatlarga ishonishi va amal qilishi kerak bo'ladi. Shu tartibda insonda ma'naviy xulq-atvor me'yorlari shakllana boshlaydi.

Individual dindorlik tiplarini aniqlash testining metodik asosi Yu.V. Shcherbatixning individual dindorlik nazariyasiga asoslanadi. Ushbu metodika zamonaviy psixologiyada dindorlik tiplarini aniqlovchi yangi metodikalar sirasiga kiradi. Yu.V. Shcherbatix metodikasi yuqorida keltirilib o'tilgan metodikalar kabi uzoq tarixga ega emas. Olim uni yaratish davomida balkim bir nechta olimlarning nazariyalariga tayangan bo'lishi mumkin. Dindorlik tiplari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlarini ko'rib chiqishimiz mobaynida shu narsa aniq bo'ldiki, bugungi kunda ko'plab olimlar ushbu metodikadan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, birorta bir ilmiy tadqiqot ishlarida yoki maqolalarda metodika tarixi va ma'lum bir psixologik testlarning qonun-qoidalariga muvofiqligi to'g'risida juda kam ma'lumotlar keltirilib o'tilganligi bizni ajablantirdi. Bu asos esa tadqiqot ishimizda metodikaning o'rta, standart og'ish, fan sohalari va jinslararo tafovutlarni aniqlash orqali uning ishonchliligini tekshirib ko'rish zaruratini yuzaga keltirdi.

Ilmiy farazimizga asosan «Individual dindorlik tiplarini aniqlash» metodikasi ham «Diniy yo'nalganlik so'rovnomasi» kabi bizning muhitimizda jins tafovutlariga nisbatan sezgir emas. Chunki yigitlar va qizlarda ham individual dindorlik tiplari mavjud bo'lib, ular deyarli bir-biridan farqli jihatlari bilan ajralib turmaydi. Xuddi shuningdek, ilmiy tadqiqot ishimizning natijalari ilmiy farazimizning to'g'ri ekanligini isbotladi (10-ilova).

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Talabalarining dindorlik tiplari ular tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishlariga ajratilib ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi SPSS 26.0 versiyasi asosida Kruskal-Uollis H mezonini orqali ishonch darajasidagi farqlar tekshirildi (2.4-jadval).

2.4-jadval


Talaba-yoshlarda individual dindorlik tiplarining namoyon bo'lishining ta'lim yo'nalishlariga ko'ra tafovutlari (Kruskal-Uollis H mezonini) (n=309)

Individual dindorlik tiplari	Fan sohalari			H	p
	Ijtimoiy gumanitar N=153	Tabiiy fanlar N=71	Aniq fanlar N=85		
Falsafiy	175,6	127,9	140,4	17,57	0,001***
Sirli	164,9	130,8	157,1	7,28	0,026*
Qo'llab-quvvatlanish	171,4	130,16	146,06	12,28	0,002**
Tashqi	170,1	152,7	129,69	11,55	0,003**
«Soxta ilm»ga qiziqish	151,4	152,06	163,86	1,18	0,552
Oliy Kuch	62,0	141,7	153,2	2,69	0,259
Ichki ehtiyoj	165,8	149,7	139,90	5,13	0,066*
Ma'naviy xulq-atvor	158,15	146,13	156,74	0,94	0,622

Izoh: *= $p \leq 0,05$, **= $p \leq 0,01$ ***= $p \leq 0,001$

Tadqiqotdan olingan dastlabki natijalarga ko'ra, talabalarining ta'lim yo'nalishlari tafovutlariga binoan bir nechta individual dindorlik tiplari o'rtasida farqli jihatlar kuzatildi (2.6-rasm).

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI



2.6-rasm. Talabalar ta'lim yo'nalishlari o'rtasida individual dindorlik tiplarini bo'yicha aniqlangan tafovutlar.

«Dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish» shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 175,6, 127,9 va 140,4) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($H=17,57$; $p \leq 0,01$). «Sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar» shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 164,9, 130,8 va 157,1) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($H=7,2$; $p \leq 0,05$). «Dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish» manbai sifatida qarash (o'rtacha ranglar: 171,5, 130,2 va 146,1) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($H=12,2$; $p \leq 0,01$). «Dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish» (o'rtacha ranglar: 170,1, 152,7 va 129,7) shkalasi ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($H=11,5$; $p \leq 0,01$).

«Individual dindorlik tiplarini aniqlash» metodikasining qolgan shkalalari o'rtasida ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarga ko'ra, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil oluvchi talabalar farqlilik aniqlangan barcha shkalalar bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar ta'lim yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda din va unda keltirilgan haqiqatlar borasida cheklanmagan erkin fikrga ega bo'lishlari mumkin. Ularda diniy e'tiqod shakllarining ko'rinishlari aksariyat hollarda ma'lum fanlarni o'zlashtirishida vujudga kelishi tahmin qilinadi.

Dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qaraydilar va ko'proq dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor beradilar. Natijada, hayotda qiyin

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

vaziyatlarga duch kelishganda dindand himoya vositasi sifatida foydalanishga moyil bo'ladilar.

Diniy amallarni ijtimoiy-madaniy an'ana sifatida rasmiy tarzda bajarishlari ham mumkin. Ularda ushbu xulq-atvor xususiyatlarining namoyon bo'lishi jamiyatda ijtimoiy mavqeiini tiklashga va o'z o'rnini egallash uchun qilinayotgan bo'lishi ham mumkin.

Tashqi dindorlik tipi ustun bo'lgan ijtimoiy gumanitar yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarda tabiiy va aniq fanlar yo'nalishi talabalariga nisbatan ma'lum bir vaziyatlarda ko'proq dindorlikning tashqi belgilariga ahamiyat berish ehtimoli bo'lishi mumkin.

Shuningdek, Allohning mavjudligiga va Uning Yagona Zot ekanligiga imon keltiradilar. Ichki dindorlik tipi ustun bo'lgan ijtimoiy gumanitar yo'nalishi talabalariga dinga ichki ehtiyoj sifatida yondoshishga harakat qiladilar. Diniy o'zligini anglaydilar. Mazkur tiplarga yo'nalgan talabalar uchun din motiv va eng yuqori qadriyat hisoblanadilar.

Ular dini boshqa ehtiyojlaridan ustun qo'yishlari va ular bilan uyg'unlikda yashashga harakat qilishlari ehtimoli yuqori hisoblanadi. O'z xatti-harakatlarini diniy normalar va qoidalarga bo'ysundirishga harakat qiladilar.

Ularga xos bo'lgan yana bir xususiyat dini ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash hisoblanadi. Ular diniy me'yorlar ularning jamiyatdagi xatti-harakatlarini, atrofda insonlarga va o'ziga bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar sifatida qarashlari mumkin.

Shuningdek, din ularning hayot prinsiplari, qarashlari va dunyoqarashini belgilab beruvchi qonun-qoidalar jamlanmasi sifatida qarash ehtimolini yuzaga keltiradi.

Smirnovning «Diniy faollik»ni aniqlash metodikasi. «Diniy faollik» B.S. Merlanning «Integral individuallik» va B.A. Vyatkinning «Shaxs faolligi» nazariyalari ta'sirida vujudga kelgan tushuncha hisoblanadi. Mazkur ikkala nazariya asosida

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

psixologiya faniga yangi «Diniy faollik» atamasi kirib kelgan. Mazkur atamani ushbu fan doirasida o'rganilishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- diniy faollikning sotsiologik va diniy yondashuvlardan farqli o'laroq uning psixologik jihatlarini ajratib ko'rsatish;

- diniy faollik faqat dindorlikni tavsiflovchi xususiyat emas, balki sub'ektni Alloh bilan maxsus transsendental aloqaga yo'naltirish istagi ekanligini isbotlash;

- dindorlik fenomenidagi «faollik» toifasi chegaralaridan tashqariga chiqadigan xususiyatlar mavjudligini aniqlash.

B.S. Merlin fikriga ko'ra, integral individuallik «Ochiq tarzda o'zini o'zi rivojlantiradigan va o'zini o'zi boshqaradigan tizim» hisoblanadi. Unda o'ziga xos faollik mavjud bo'ladi. U moddiy va ijtimoiy muhit bilan erkin energiya almashinuvi jarayonida sodir bo'ladi, bu yerda individuallik anglanadi va yaxlitlikka erishadi.

Bunga ko'ra diniy faollik va integral individuallik nuqtai nazaridan inson faolligining eng yuqori darajalaridan biri bo'lgan dinamik shakllanish, sub'ektning ichki va tashqi dunyosining ta'sirida sodir bo'lgan faollik, shaxsning individual xususiyatlari tizimida ma'lum bir joyni egallovchi hodisa sifatida tushuniladi.

«Diniy faollik» shaxsning atrofida haqiqat ob'ektlari bilan o'zaro harakatlarining asosiy sifati, darajasi va o'lchovidir. Shu jumladan B.A. Vyatkinning «Shaxs faolligi» nazariyasiga ko'ra, faollik insonning o'zini o'zi rivojlantiruvchi sub'ekt sifatida hayotda o'zini namoyon etish usulidir. Shuningdek, diniy faollik shaxs psixikasining o'ziga xos keng ko'lamlı tushunchasi sifatida quyidagi nazariyalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- U.Djeyms, S.Groff, R.Leng va A.Masloularning din va maxsus diniy tajribalarga bo'lgan ehtiyoj;

- R.Asadjioli E.Noyman, 3.Freyd va K.Yunglarning din va diniy faolliklar yuzaga kelishining asosini ongsizlik psixikasining markazi, deb anglash;

- Z.Freyd, K.Yung, A.Adler va E.Eriksonlarning nevroitik buzilishlarni yengishning ichki mexanizmi;

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

- E.Fromm, V.Frankl, I.Yalomlarning insonni doimo ilohiy borliq haqiqatlarini izlashga undaydigan yechimi yo'q ekzistensial muammolari.

Shunga ko'ra diniy faollik sub'ektning Alloh bilan o'zaro ilohiy munosabatni amalga oshirishga qaratilgan hamda g'ayritabiiy narsalarga ishonishda yuzaga keladigan diniy kechinmalar, diniy xulq-atvor va xatti-harakatlar hisoblanadi. Diniy faollik murakkab va ko'p komponentli psixologik omil sifatida tavsiflanadi.

1984 yilda A.I.Krupnov faollik modeli asosida quyidagi diniy faollik strukturasi taklif etadi:

- motivatsion komponent – insonni Allohga ibodat qilishga undaydigan ichki sabablar ierarxiyasi;

- dunyoqarash komponenti – dindorlikning ratsional, refleksiv jihatlarini aks ettiruvchi va ma'naviy kechinmalar, inson, dunyoning yaralishi va Alloh hamda U yaratgan narsalar haqidagi tushuncha va tasavvurlarni o'z ichiga oladi.

- Atributli komponent – Alloh bilan bevosita emotsional munosabat o'rnatishga xizmat qiluvchi diniy marosimlar, urf-odatlar va diniy qadriyatlarini o'z ichiga oladi.

- Affektiv natijaviy komponent – shaxsning astenik va stenik kechinmalari orqali Alloh bilan o'zaro emotsional munosabat o'rnatish natijasi hisoblanadi.

Shuningdek, yuqorida keltirib o'tilgan nazariyalar modellari amaliyotda o'z tasdig'ini topishi uchun biz ham o'z ishimizda D.O. Smirnov tomonidan tuzilgan «Diniy faollik» metodikasidan foydalanishga harakat qildik. Mazkur metodikaning nazariy-metodologik asosi B.S. Merlin, B.A. Vyatkin, U.Djeys, S.Groff, R.Leng, A.Maslou, R.Assadjoli E.Noyman, Z.Freyd, K.Yung, K.Yung, A.Adler va E.Eriksonlarning nazariyalari hisoblanadi. Tuzilishining metodologik asosi esa A.I.Krupnovning faollik modeli hisoblanadi.

Mazkur metodika 4 ta subtestdan iborat bo'lib, birinchi subtest 36 ta, ikkinchi, uchinchi, va to'rtinchi subtestlar 11 tadan savollar tarkibidan iborat (11-ilova). Ushbu metodika quyidagi mezonlarni aniqlashga qaratilgan:

- astenik kechinmalar;
- stenik kechinmalar;

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

- dindorlikni anglash ostonasidagi (dindorlikka yetaklovchi) kechinmalar;
- ichki va tashqi dindorlik;

diniy xatti-harakatlar va diniy – tabiiy-ilmiy dunyoqarash.

Ilmiy farazimizga asosan «Diniy faollik» metodikasi ham «Individual dindorlik tiplarini aniqlash» kabi bizning muhitimizda jins tafovutlariga nisbatan sezgir emas. Chunki erkaklar va ayollarda ham individual dindorlik tiplari mavjud bo'lib, ular deyarli bir-biridan farqli jihatlari bilan ajralib turmaydi. Xuddi shuningdek, ilmiy tadqiqot ishimizning natijalari ilmiy farazimizning to'g'ri ekanligini isbotladi (12-ilova).

Tadqiqotda talaba-yoshlarning diniy faolliklarini aniqlash maqsadida ushbu metodikadan foydalanildi. Tadqiqot ishidan olingan natijalarimiz ham bizning yuqorida ta'kidlab o'tgan ilmiy farazimiz to'g'ri ekanligini isbotlab berdi. Ya'ni talabalar tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishlariga ko'ra guruhlarga ajratilib, ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi – SPSS 26.0 versiyasi asosida Kruskal-Uollis H mezonini orqali tekshirilganda ular orasida tafovutlar kuzatildi. Talabalarning tahsil olayotgan tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishlariga ko'ra tafovutli jihatlarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (2.5-jadval).

2.5-jadval

Talaba-yoshlarda diniy faollik tiplarining namoyon bo'lishining ta'lim yo'nalishlariga ko'ra tafovutlari (n=309)


Diniy faollik tiplari	Fan sohalari			H	p
	Ijtimoiy-gumanitar N=153	Tabiiy fanlar N=71	Aniq fan-lar N=85		
Astenik diniy kechinmalar	175,2	137,8	132,8	15,77	0,01**
Stenik diniy kechinmalar	166	149,6	139,6	5,10	0,07
Dindorlikka yetaklovchi kechinmalar	168,2	133	149,5	12,28	0,002**
Diniy kechinmalar	172,3	137,8	138,1	11,42	0,01**

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ichki-tashqi dindorlik motivatsiyasi	168,4	148,8	135,8	7,76	0,02*
Diniy – ilmiy-tabiiy dunyoqarash ustuvorligi	169,5	136,1	144,5	9,18	0,01**
Diniy xulq-atvor	168,5	153,0	132,2	9,08	0,01**

Izoh: *= $p \leq 0,05$, **= $p \leq 0,01$ ***= $p \leq 0,001$

Ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili natijasida diniy faollik tiplari bo'yicha talabalarining ta'lim yo'nalishlari bo'yicha quyidagicha ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi (2.7-rasm.).



2.7-rasm. Talabalarining ta'lim yo'nalishlari o'rtasida diniy faollik tiplari bo'yicha aniqlangan tafovutlar.

Astenik diniy kechinmalar mezoni bo'yicha (o'rtacha ranglar: 175,2, 137,8 va 132,82) farqlar ishonchliligi aniqlandi ($H=15,77$; $p \leq 0,01$). Bunga muvofiq, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil oluvchi talabalar hayotda o'zlarida doimo nomukammallik hissini boshdan kechirishlar mumkin. Buning sababi esa ular o'zlaridagi mavjud kuchlarni ijtimoiy muhitga moslashtira olmaydilar. Alloh qarshisida o'zlarini doimo zaif, nomukammal, aybdor va gunohkor deb biladilar.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil oluvchi talabalar Alloh olidida o'zlarini nomukammal, gunohkor va ojiz bir qul sifatida his-tuyg'ularini namoyon etadilar. Bunday his-tuyg'ular, ko'pincha, insonning axloqiy shakllanishiga turtki beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi va dindorlikning shakllanishida asosiy manba sifatida

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

qaraladi. Aksincha, ularning bu sifatleri salbiy diniy addiksiyani ham keltirib chiqarishi mumkin.

Stenik diniy kechinmalar mezoni bo'yicha (o'rtacha ranglar: 166, 149,6 va 139,6) farqlar ishonchliligi aniqlandi ($H=5,10$; $p \leq 0,05$). Mazkur raqamlar ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil oluvchi talabalar Alloh bilan chuqur his-tuyg'ular orqali munosabatga kirishish ehtimolini beradi. Bunday jarayonda inson ushbu his-tuyg'ular orqali kuch, quvvat, motivatsiya va ilhom oladi. Bu esa insonning hayoti davomidagi juda muhim omillar qatoriga kiradi. Qachon inson tushkun va qiyin vaziyatga tushib qolsa bu kuchlar ularni yana yashashga undashi mumkin.

Dindorlikka yetaklovchi kechinmalar shkalasi bo'yicha (168,2, 133 va 149,5) farqlar ishonchliligi aniqlandi ($H=12,28$; $p \leq 0,01$). Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil oluvchi talabalar stenik va astenik tuyg'ulardan farqli o'laroq, dindorlikni anglash ostonasidagi diniy kechinmalarda ham ustun farqlarni keltirib chiqardi. Unga ko'ra, talabalarda hali dindorlikning mohiyati, uning maqsadi to'liq anglab yetilmagan bo'lishi mumkin. O'zlarini musulmon inson deb biladilar, ammo unda keltirilgan haqiqatlar borasida turli xil qarashlar tizginiga ega bo'ladilar. Ulardagi bu xususiyat o'zgargan diniy ong kechinmalari hisoblanadi.

Diniy-ilmiy-tabiiy dunyoqarash ustuvorligi mezoni ko'ra (o'rtacha ranglar: 169,5, 136,1 va 144,5) farqlar ishonchliligi aniqlandi ($H=9,18$; $p \leq 0,05$). Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil oluvchi talabalar ko'proq diniy teistik dunyoqarashga ega bo'ladilar. Alloh, jannat, do'zax va ruh kabi diniy ramzlarni hayotiy narsalar sifatida e'tirof etadilar. Aksincha uning past ko'rsatkich darajasi tabiiy fan dunyoqarashini, tushunarsiz hodisalarni fan nuqtai nazaridan tushuntirishga moyilligini ko'rsatadi, bunday odamlar diniy ramzlarni sub'ektiv tajribalar mahsuli yoki haqiqat bilan aloqasi bo'lmagan xayoliy tasavvurlar sifatida qabul qilishlari mumkin.

Diniy xulq-atvor shkalasi bo'yicha (o'rtacha ranglar: 168,5, 153 va 132,2) farqlar ishonchliligi aniqlandi ($H=9,18$; $p \leq 0,05$). Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishi talabalarida diniy amallarni amalga oshirishning individual moyillik tajribasi yuqori hisoblanadi. Ularning diniy faoliyatlari zahirida diniy marosimlarda (Juma, janaza va

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Hayit namozlari) qatnashish, ro'za tutish va Hajga ziyoratga borish kabi amallar ustunlik qiladi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin.

1. Shaxs psixologik himoya mexanizmlari javobgarlikdan ozod qiluvchi himoya mexanizmlari, o'zini oqlashga yordam beruvchi himoya mexanizmlari. salbiy hissiyotlardan xalos etuvchi himoya mexanizmlari ko'rinishlari mavjuddir.

2. Shaxs individual dindorlik tiplari uyg'unlashgan va uyg'unlashmagan faktorlarga ajraladi.

3. Talaba-yigitlar va talaba-qizlar himoya mexanizmlarining dindorlik tiplari bilan o'zaro bog'liqlik jihatlari aniqlandi.

5. «Asabiylik», «Depressivlik», «Jizzakilik», «Tortinchoqlik» va «Emotsional o'zgaruvchanlik» talaba-qizlarga xos bo'lgan shaxs xususiyati ekanligi ma'lum bo'ldi;

6. «Spontan agressivlik» va «Muvozanatlashganlik» xususiyatlari esa talaba-yigitlardagi asosiy xususiyat hisoblanadi.

7. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil oluvchi talabalarning tabiiy fanlar va aniq fanlar yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga qaraganda «Ichki diniy yo'nalganlik» ustunlikni keltirib chiqardi.

8. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil oluvchi talabalarda «Dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish», «Sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar», «Dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish sifatida qarash», «Dinning tashqi belgilariga e'tibor berish» va «Dinga ichki ehtiyojsifatida yondashish» kabi dindorlik tiplari ustun ekanligi isbotlandi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

III BOB. PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARI ORASIDAGI BOG'LIQLIKNI EMPIRIK O'RGANISH NATIJALARI

3.1. Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligini o'rganishning amaliy jihatlari

Ilmiy tadqiqot ishlarida ulardan olingan natijalarning o'zaro bog'liqlik xususiyatlari ma'lum bir statistik aloqalar mavjudligidan dalolat beradi. Ko'pincha, ikki xil o'zgaruvchilar o'rtasidagi nazariy-sababiy bog'liqlik tadqiqotchilarni yolg'on intuiativ xulosalar chiqarishga undaydi. Ammo, mazkur o'zgaruvchilar o'rtasidagi amaliy korrelyatsion tahlil ma'lum mezonlar asosidagi bog'liqlik koeffitsientlari o'rtasida statistik aloqalar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa ilmiy tadqiqot ishlarida aniq xulosalar chiqarishga xizmat qiladi hamda tadqiqot ishiga o'zgacha joziba baxsh etadi.

Yuqoridagi boblarda keltirilib o'tilgan nazariyalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, faylasuf olimlardan – Platon, Dekart, Kant va Gegel, Spinoza, psixoanalitiklardan – Z.Freyd, A.Freyd, M.Klyayn va K.Yung, gumanistik psixologlardan – K.Xorney, G.Sallivan, individual, psixologiya asoschisi A.Adler, ekzistensialistlardan – E.Erikson, K.Rojers, V.Frankl, Ye.Bern, R.Plutchik va Kellerman va bir qator rus olimlari o'zlarining nazariyalarida psixologik himoya mexanizmlari shaxsning psixoemotsional sohasi tarkibida joylashishini ta'kidlaganlar. Xuddi shuningdek:

faylasuf olimlardan – I.Kant, V.Gegel, S.Kerkegor;

psixoanalitiklardan – Z.Freyd, A.Freyd, M.Klyayn va K.Yung;

ekzistensialistlardan – E.From, V.Frankl, V.Vunt va bir qator rus olimlari dindorlik va uning tiplari bilan kechuvchi his-tuyg'ularning asosini shaxsning emotsional sohasi zamirida shakllanishini nazarda tutganlar. Hususan, olimlar dindorlik tiplarini ham shaxsning himoya mexanizmlari sifatida qarashganlar.

Bu borada jahon psixologiyasida zamonaviy tadqiqotchilardan I.E. Sokolovskaya [57] dindor shaxslar va psixologik himoya mexanizmlarining o'zaro aloqasini o'rgangan. A.Zeinalizade, N.Sobhi-Gharamaleki, A.Hojjat, B.Alian [94] kabi

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

olimlar o'spirinlarda diniy yo'nalganlik va himoya mexanizmlarining o'zaro bog'liqligini tadqiq etgan. A.Tracy, Prout, H.W.Gottdiener, A.Camargo va S.Murphy kabi olimlar diniy koping va psixologik himoya mexanizmlarining o'zaro bog'liqligini o'rgangan.

Ushbu tadqiqot ishida esa talabalarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari o'rtasida o'zaro bog'liqliklar bir nechta metodikalar orqali o'rganildi.

Psixologik tadqiqot natijalarini o'rtacha qiymat bo'yicha tahlil qilish talabalarning ma'lum ko'rsatkichlarini toifalariga ko'ra qiyosiy hamda to'fovutli tomonlarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Biroq ularning ichki munosabatlari va rivojlanish qonuniyatlari esa ochiq qoladi. Shuni inobatga olgan holda tadqiqot metodikalari natijalari va mezonlarining ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiyasini aniqlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Talabalarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining korrelyatsion bog'liqliklarini aniqlash uchun R.Plutchik va G.Kellermanning «Hayot stili indeksi» va Yu.V.Shcherbatixning «Individual dindorlik tiplarini aniqlash» metodikalaridan foydalanildi. R.Plutchik va G.Kellerman mezonlari Yu.V.Shcherbatixning dindorlik tiplari bilan o'zaro aloqalarini keltirib chiqarishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot ishimizda bu borasidagi aniq empirik ma'lumotlar quyidagi jadvalda aks etgan (3.1.-jadval).

3.1-jadval

Talaba-yoshlarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari (n=309)

Himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari	Falsa-fiy	Sirli	Qo'llab-quvvatlanish	Tashqi	«Sox-ta ilm»	Oliy kuch,	Ichki	Ma'na-viy xulq-atvor
Siqib chiqarish	-0,173**	-0,027	-0,108	-0,081	0,068	-0,146*	-0,049	-0,038
Regressiya	0,04	0,115*	-0,038	0,047	0,047	-0,01	0,093	0,051
O'rnini to'ldirish	0,005	0,188**	-0,008	0,061	0,077	0,056	0,102	0,083
Rad etish	0,053	0,017	-0,063	0,03	0,043	0,019	0,029	0,086
Proeksiya	0,148**	-0,015	0,064	0,058	0,02	0,122*	0,144*	0,150**

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Kompen-satsiya	-0,009	0,137*	-0,008	0,074	0,138*	-0,006	0,084	0,077
Giperkom-pensatsiya	0,188**	0,105	0,074	0,116*	0,055	0,095	0,08	0,145*
Ratsionali-zatsiya	0,087	0,074	0,072	0,083	0,069	-0,013	0,148**	0,091

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$.

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi natijalarga ko'ra, talabalarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari o'rtasida ham musbat, ham manfiy korrelyatsion bog'liqliklar aniqlandi.

Bunga ko'ra olingan ma'lumotlar salbiy hissiyotlardan xalos qiluvchi himoya mexanizmlaridan bo'lgan siqib chiqarish uyg'unlashgan dindorlik tiplaridan dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish ($r = -0,173$; $r \leq 0,01$) va dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish ($r = -0,146$; $r \leq 0,05$), mezonlari bilan manfiy korrelyatsion munosabatlar aniqlandi.

Ushbu raqamlarning mazmuni shundan iboratki, dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish va dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish kuchli namoyon bo'lgan talabalarda siqib chiqarish himoya mexanizmi past darajada shakllangan bo'lar ekan. Boshqacha qilib aytilsa, siqib chiqarish himoya mexanizmi kuchli namoyon bo'lgan talabalarda dinning asl mohiyatini tushunmaslik, dinga falsafiy yondasha olmaslik, tor doirada fikrlash va maishiy hayotdagi shaxsiy muammolariga o'ralashib qolish kabi salbiy kechinmalar va psixologik holatlar ko'proq namoyon bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Javobgarlikdan ozod qiluvchi himoya mexanizmlaridan biri Regressiya uyg'unlashmagan dindorlik tipi bilan ($r = 0,115$; $r \leq 0,05$), musbat bog'liqligi aniqlandi. Bu ko'rsatkichga ko'ra, talabalar «Ego»si qo'rquv, noqulayliklar va ko'ngilsiz voqealar ta'sirlariga duchor bo'lganda rivojlanishning ilk davrlariga, ya'ni intensional, oral, anal va fallik bosqichlaridan biriga qaytish jarayoni yuz berishi mumkin. Bunga ko'ra individni tarbiyalash jarayonida yuqoridagi bosqichlardan biridagi tarbiya jarayonida uzilish sodir bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Ushbu bosqichlar bola tug'ilgandan boshlab besh-olti yoshlargacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Barchaga ma'lumki, ushbu yosh davrida atrofdagi olamdan tashqari bizga noma'lum bo'lgan.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

bevosita his qilib bo'lmaydigan alohida boshqa bir dunyoning mavjudligiga. sehr-joduga, afsungarlar va jodugarlar mavjudligiga bo'lgan xayoliy ishonch bo'ladi. Mazkur ishonch esa ularda asossiz qo'rquv manbai bo'lib xizmat qiladi. Qo'rquvdan himoyalaniş ularni regressiya himoya mexanizmidan foydalanishga undaydi. Bu esa shaxsni Haqiqiy diniy haqiqatlar va harakatlar yuzasidan realistik fikrlashlardan yiroqlashishga majbur etadi. Chunki regressiya himoya mexanizmi transfer xayollar va orzularda ro'y beradi.

Javobgarlikdan ozod qiluvchi himoya mexanizmlaridan biri o'rmini to'ldirish ham uyg'unlashmagan dindorlik tipi bilan ($r=0,188$; $r \leq 0,01$) musbat bog'liqligi aniqlandi. Mazkur raqamlar bizga, shaxs ijtimoiy doiralarda ixtilof tug'dirayotgan impulsarlardan himoyalanişda namoz o'qib Allohdan ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishni so'rashga, din to'g'ri deb topgan yo'nalish orqali harakat qilib mushkullardan xalos bo'lishga irodasi yetmasligi yoki tushunmasligini ishora qiladi. Shu sababli boshiga tushgan musibatlardan forig' bo'lish uchun folbinlarga murojaat qilish orqali uyg'unlashmagan diniy amallarni bajarishlari mumkin.

O'zini oqlashga yordam beruvchi himoya mexanizmlaridan proeksiya dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish ($r=0,148$; $r \leq 0,01$), dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvcı zotning mavjudligini tan olish ($r=0,122$; $r \leq 0,05$) va diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash ($r=0,144$; $r \leq 0,05$) va dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash ($r=0,150$; $r \leq 0,01$) kabi uyg'unlashgan dindorlik tiplari bilan uzviy aloqadorliklar aniqlandi. Mazkur dindorlik tiplari kuchli namoyon bo'lgan talabalarda proeksiya himoya mexanizmining yuqori darajasi shakllangan bo'lar ekan.

Shuningdek «Ego»ning diniy impluslari proeksiyasi ro'y berayotganda diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, diniy o'zlikni anglash, diniy ilmlar va ma'naviy xulq-atvor me'yorlariga zid keluvchi o'zidagi mavjud kamchiliklarni boshqa bir mo'min bandaga ko'chirishlari mumkin. Shaxs ko'pincha ijobiy impulsardan ko'ra salbiy diniy impulsarni ko'proq proeksiya qiladi. Shunday qilib, salbiy impulslar proeksiya qilinganda quyidagicha holatlar ro'y ehtimoli bo'ladi:

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

– agressiv diniy impulslar proeksiya qilinganda olam tajovuzkordek tuyuladi. Individ o'zi qilmoqchi bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshira olmasa, o'zgalar bu ishlarni bajarayotgani uchun ularning xatti-harakatlarini qoralaydi. Ularga tajovuzkor munosabatda bo'ladi. Bu kabi holatlar, ayniqsa toqatsizlikda va fanatizmida ko'proq o'z aksini topishi mumkin.

– oral diniy impulslar proeksiya qilinganda inson boshiga tushgan ko'ngilsizliklar sababli olam g'am-tashvishlar manbaiga aylanishi mumkin. Ammo, boshiga tushgan g'am-qayg'ular uchun o'zida aybdorlik hissini boshidan kechirmaydi.

Salbiy hissiyotlardan xalos qiluvchi himoya mexanizmlaridan kompensatsiya sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar ($r=0,137$; $r \leq 0,05$) va «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi ($r=0,138$; $r \leq 0,05$) kabi uyg'unlashmagan dindorlik tiplari bilan o'rta darajada o'zaro musbat aloqadorlikni vujudga keltirdi.

Yuqoridagi raqamlarning tavsifi shuki, talabalar ijtimoiy doiralarda ixtilof tug'dirayotgan impulsardan himoyalaniş yoki o'zida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida haqiqiy diniy xatti-harakatlarni bajarish o'rninga uyg'unlashmagan dindorlik tiplariga murojaat qilishga sababchi omillardan biri bo'lishi mumkin. Xususan ruhiy zo'riqishlar uyg'unlashgan dindorlik tiplariga emas balki uyg'unlashmagan dindorlik tiplariga faoliyatini ko'chirishi jarayoni yuz berishi mumkin. Bu esa ijtimoiy doiralarda sezilarli darajada xavf-hatar tug'dirmasligi ham mumkin.

Giperkompensatsiya himoya mexanizmi dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish ($r=0,188$; $r \leq 0,01$) va dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish ($r=0,116$; $r \leq 0,05$) singari uyg'unlashgan dindorlik tiplari bilan musbat bog'liqlik aniqlandi.

Ushbu asosga ko'ra, giperkompensatsiya kompensatsiya himoya mexanizmidan farqli o'laroq talabalar ixtilof tug'dirayotgan impulsardan yoki gunohlari tufayli yuzaga kelgan ruhiy zo'riqishlardan himoyalaniş bilvosita ichki dindorlikdan ko'ra tashqi dindorlik sifatlariga e'tibor qaratish ehtimolini beradi. O'zlarini bu borada

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

boshqalardan ustun qo'yishga harakat qiladilar. Shuningdek, ularda qondirilmagan diniy ehtiyojlarni ongsiz ravishda diniy marosimlarda ishtirok etish orqali qondirib, men boshqalardan ko'ra dindorroqman degan noto'g'ri tushuncha va tasavvurlar shakllanishi ham mumkin. Shu sababli, dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish tipi yuqori bo'lgan talabalarda giperkompensatsiya himoya mexanizmi ta'sirida diniy amallarni yuzaki tarzda bajarib o'zini boshqa mo'minlardan ustun qo'yishga moyilligi ehtimoli yuqori bo'lishligidan darak beradi. Bu esa talabalarga va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ratsionalizatsiya himoya mexanizmida diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash dindorlik tipi bilan ($r=0,148$; $r \leq 0,05$) musbat korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi. Bunga ko'ra, asl motivlar anglanmagan, haqiqiy bo'lmagan motivlarga aylanadi. Ya'ni, intensional diniy xohishlar ratsionalizatsiya qilinganda, boshiga tushgan ko'ngilsizlar sababli olam g'am-tashvishlar manbaiga aylanadi. Zero, bunda inson o'zini aybdor his qilmaydi. Bu ko'rgiliklarni barchasini sababchisi uning taqdirida deb biladi.

Buning ijobiy va salbiy jihatlari ham bor. Ijobiy tomondan, inson ushbu aybdorlik hissini boshidan kechirgan bilan bunda taqdirni ayblamaydi, balki bu jarayonda o'zining xatti-harakatlarini tahlil qilib, kamchiliklarini tuzatishga harakat qiladi. Tushkunlikka tushmaydi aksincha, yana faoliyatda davom etadi. Salbiy jihatdan esa, olam ularni idrok etmayotgandek tuyuladi. Natijada, diniy haqiqatlar buzilib idrok etiladi. Qo'rquv paydo bo'ladi va jamiyatdan o'zoarini olib qocha boshlaydi.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

3.2. Shaxs xususiyatlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqlik jihatlari

Ma'lumki, talabalik davri o'ziga-o'zi baho berish va tahlil qilish davri hisoblanadi. O'ziga-o'zi baho berish ideal «Men» bilan haqiqiy «Men»ni taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayon esa shaxs rivojlanishida o'ziga xos qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa, ularda asabiylik, gressivlik, depressivlik, jizzakilik, muvozanatlashganlik, tortinchoqlik, samimiylik va ekstrovert-introvertlik va emotsional o'zgaruvchanlik kabi shaxs xususiyatlariga ta'sir etadi.

E.Erikson fikriga ko'ra, talabalik davri shaxs rivojlanish taraqqiyotidagi inqiroz davri bo'lib, bir qator shaxs xususiyatlari va individual shaxsga oid tanlanmalar atrofiga qurilgan bo'ladi. Agar shaxs ushbu davrda yuzaga keluvchi muammolarni hal eta olmasa psixologik yaqinlikdan va shaxslararo munosabatlardan qochish, vaqt tuyg'usining xiralashishi, hayotiy rejalarni tuza olmaslik, ulg'ayishdan va o'zgarishlardan qo'rqish, samarali ijodiy qobiliyatlarning eroziyasi, o'z ichki resurslarini safarbar qila olmaslik holatlari ro'y berishi mumkin.

Shuningdek, ular mazkur yosh davrlarida jo'da ko'p muammoli diniy va dunyoviy savollarga duch keladilar hamda ularga javob izlashga harakat qiladilar. Bu savollarga to'g'ri javobni topishda turli hil manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommabop, badiiy adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televideniya bo'lib hisoblanadi. Buning natijasida esa ularda diniy va dunyoviy dunyoqarash shakllari o'zgara boshlaydi. Natijada anglangan diniy qadriyatlar ustunligi shakllanadi. Anglangan diniy qadriyatlar ma'lum bir diniy yo'nalganlik tiplarining shakllanishiga olib keladi.

Shaxs xususiyatlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligi xalqaro miqyosdagi ilmiy tadqiqot ishlarida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, Gholamreza Khoynezhad, Ali Reza Rajaei va Ahmad Sarvarazemy kabi olimlar diniy e'tiqodlar va shaxs xususiyatlarining aloqadorlik jihatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan.

I.V. Afasenko talabalarining individual dindorlik tiplari va shaxs xususiyatlarining o'zaro aloqadorligini tadqiq etgan. L.V.Gustova o'smirlarning

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

individual dindorlik darajalari va shaxs xususiyatlari borasida tadqiqot ishlari olib borgan.

Talaba-yoshlar psixikasida yuzaga keluvchi mazkur o'zgarishlarni inobatga olgan holda, biz shaxs xususiyatlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqlik xususiyatlarini aniqlashga harakat qildik. O'zaro bog'liqlik xususiyatlarini aniqlashda Frayburgning «Shaxs so'rovnomasi» va Yu.V. Shcherbatixning «Individual dindorlik tiplari» so'rovnomasidan foydalandik. So'rovnoma natijalari quyidagi jadvalda aks etgan (3.2-jadval).


3.2-jadval

Talaba-yoshlarning shaxs xususiyatlari va dindorlik tiplarining korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari (n=309)

Xususiyatlar va tiplar	Fal	Sir	Tas	«Soxta ilm»	Oliy kuch	Ichki	Ma'naviy
Asabiylik	0,013	0,189**	-0,018	0,228**	-0,091	0,036	0,089
Spontan agressivlik	-0,069	0,130*	-0,132*	0,137*	-0,156**	-0,050	0,046
Depressivlik	-0,043	0,124*	-0,062	0,152**	-0,068	-0,027	0,052
Jizzakilik	0,016	0,154**	-0,063	0,137*	-0,082	0,040	0,086
Muloqotmandlik	0,153*	-0,028	0,053	-0,008	0,067	0,048	0,021
Muvozanatlashganlik	0,014	-0,054	-0,010	-0,052	0,119*	0,023	0,134*
Samimiylik	0,175*	0,056	0,154**	0,103	0,046	0,103	0,138*
Ekstraversiya-introversiya	0,102	0,022	0,028	0,124*	0,035	0,147*	0,096
Emotsional o'zgaruvchanlik	0,014	0,173**	-0,025	0,170**	-0,035	0,006	0,063
Maskulizm-feminizm	0,001	-0,128*	0,002	-0,030	-0,012	0,138*	-0,032

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi umumiy ko'rsatkichlar natijalariga ko'ra, talabalarning shaxs xususiyatlari va dindorlik tiplari o'rtasida ham salbiy, ham ijobiy korrelyatsion bog'liqlikni aks ettiruvchi holatlar aniqlandi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Dindorlik tiplarining salbiy emotsional xususiyatlar va ijobiy shaxsiy fazilatlar rivojlanishiga ta'siri.

Asabiylik shaxs xususiyati sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar ($r=0,189$; $r \leq 0,01$) va «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra, har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi ($r=0,228$; $r \leq 0,01$) kabi uyg'unlashmagan dindorlik tiplari bilan yuqori musbat bog'liqlik yuzaga keldi. Ya'ni, talabalarning uyg'unlashmagan dindorlik tiplariga yo'nalganligining ortib borishi bilan ularda asabiylik xususiyatining ham ortib borishi ro'y berishi mumkin. Natijada talabalar o'z xatti-harakatlarini ongli boshqarish qobiliyatidan mahrum bo'lishlari va haqiqiy diniy amallarni bajarish o'rniga sehrli dunyo va «Soxta ilm»ga bo'lgan qizishlari ortib boradi. Ularda:

- uyg'unlashmagan diniy amallarni bajarish va uning zamirida yuzaga kelgan gunoh ishlar uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olmaslik;

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

- qilgan yomon amallarini tan olmay ularni boshqa birovlariga ag'darish;

- hayotida yuzaga kelgan qiyin vaziyatlarni bartaraf etishda muqobil

yo'lni topa olmasdan dinimizdagi uyg'unlashmagan diniy amallar orqali ularga munosib yechim topishga harakat qilish singari salbiy diniy xulq-atvor namunalarini shakllantirish holatlarini kuzatishimiz ham mumkin.

Spontan agressivlik shaxs xususiyati ham sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar ($r=0,130$; $r\leq 0,05$) va «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra, har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi ($r=0,137$; $r\leq 0,05$) kabi uyg'unlashmagan dindorlik tiplari bilan musbat bog'liqlik yuzaga keldi. Ammo, dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash ($r=-0,132$; $r\leq 0,05$) va dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvcchi zotning mavjudligini tan olish ($r=-0,156$; $r\leq 0,05$) kabi uyg'unlashgan dindorlik tiplari bilan manfiy bog'liqlik yuzaga keldi. Boshqacha qilib aytilsa, uyg'unlashmagan dindorlik tiplari kuchli namoyon bo'lgani sari spontan agressivlik shaxs xususiyati ham ortib boradi. Aksincha uyg'unlashgan dindorlik tiplarining ortib borishi esa spontan agressivlik xususiyatining past darajada namoyon bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Bizning fikrimizcha, talabalarining bu kabi soxta e'tiqodlarga yo'nalganligining sabablaridan biri ham ulardagi mavjud spontan agressivlik xususiyati tufayli bo'lishi mumkin. Chunki bu xususiyat talabalarni o'z xatti-harakatlarini ongli boshqarish qobiliyatidan mahrum eta boshlashi ularni haqiqiy diniy e'tiqodlar qolib, soxta e'tiqodiy amallarga ishonishlariga zamin yaratishi ham mumkin. Ammo, tashqi va Allohni yagona ekanligini tan oluvchi dindorlik tipiga yo'nalgan talabalarda spontan agressivlik ustun shaxs xususiyati sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki dinimizda Alloh insonlarni g'azablanishdan va uning ta'sirida biror-bir nojo'ya xatti-harakatni oshirishdan qaytargan. Bu borada Muhammad (s.a.v) «G'azabdan saqlaning, chunki g'azab odamzot ichida yonib turgan bir cho'g'dir. Sizlardan biringiz g'azablanganingizda ko'zlari qizarib, tomirlari bo'rtib chiqqanini ko'rmadingizmi? Agar qay biringiz o'zida g'azab alomatlarini sezsa, yotib olsin yoki o'tirib olsin»

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

deganlari rivoyat qilinadi. Mazkur tip vakillari ularga hayoti davomida amal qilib yashashlari sababli ham ularda spontan agressivlik ustun shaxs xususiyati bo'lmasligi mumkin.

Depressivlik xususiyati sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar ($r=0,124$; $r\leq 0,05$) va «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra, har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi ($r=0,152$; $r\leq 0,01$) kabi uyg'unlashmagan dindorlik tiplari bilan bog'liqlik yuzaga keldi. Natijalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sirli dunyoning mavjudligiga va «Soxta ilm»ga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar dindorlik tiplariga mansub talabalarda asabiylashish va spontan agressivlik xususiyatlari mavjudligi aniqlandi. Demak, mazkur xususiyatlar ta'siri insonlarda depressiya holatining vujudga kelishiga zamin hozirlashi mumkin. Aynan shuning uchun ham ikkkala dindorlik tiplarida ham depressiv shaxs xususiyati bilan o'zaro bog'liqlik yuzaga kelishi mumkinligidan darak beradi.

Jizzakilik shaxs xususiyati ham sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar ($r=0,154$; $r\leq 0,01$) va «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishining ($r=0,137$; $r\leq 0,05$) dindorlik tiplari bilan musbat bog'liqlik yuzaga keldi. Ushbu dindorlik tipiga moyilligi bor talabalardagi xayoliy ta'sirlarga nisbatan asossiz qo'rquv ularni jizzakilik xususiyatini shakllantirishi mumkin. Buning sababi ularning xayollaridagi sirli va sehrli dunyoda yashash xavfli, tabiiylik zanjirlari uzilgan va odamlar ustidan tushunarsiz mavjudodlarning hukmronligi bo'ladi.

Muloqotmandlik shaxs xususiyatining dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashuvchi dindorlik tipi bilan ($r=0,153$; $r\leq 0,01$) musbat bog'liqlik aniqlandi. Talabalarda dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashuv oshgani sari shaxslararo munosabatlarda muloqotmandlik xususiyati ham ortib borishi mumkin.

Muvozanatlashganlik xususiyati bilan dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvcchi zotning mavjudligini tan olish ($r=0,119$; $r\leq 0,05$) va dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash ($r=0,134$; $r\leq 0,05$) kabi dindorlik tiplari bilan musbat korrelyatsiya berdi. Mazkur tipga mansub talabalar

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

muvozanatlashganlik xususiyatini ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarashlari ham mumkin. Hayotiy keskin vaziyatlarga nisbatan o'zida chidamlilikni shakllantirishga harakat qiladi. O'ziga ishonchi baland, stresslarga nisbatan barqaror, hayotga ijobiy ko'z bilan qaraydi. O'zini Allohning bir o'jiz bandasi sifatida e'tirof etadi. Baxtli va baxtsiz damlarida ham Alloh peshonasiga bitgan taqdiridan rozi bo'lib yashaydi. Hayotga doimo ijobiy nigoh bilan qarashga harakat qiladi.

Samimiylik xususiyati dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashuvchi dindorlik tipi bilan ($r=0,175$; $r\leq 0,01$.) dinga qo'llab-quvvatlash va taskin topish manbai sifatida qarash ($r=0,154$; $r\leq 0,05$.) va dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash ($r=0,131$; $r\leq 0,05$.) kabi uyg'unlashgan dindorlik tiplari bilan bog'liqlik aniqlandi. Hayotda mazkur dindorlik tipiga mansub talabalar juda samimiy munosabatda bo'lishga harakat qiladilar. Chunki dinimiz o'zgalarga so'z bilan ham, ish bilan ham ozor yetkazmasdan doimo samimiy munosabatda bo'lishga chorlaydi. Ehtimol, shu bilan ular o'zlarini himoya qilishlari mumkin.

Ekstraversiya-introversiya tiplari «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi ($r=0,124$; $r\leq 0,05$.) va diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash ($r=0,147$; $r\leq 0,01$.) dindorlik tiplari bilan bog'liqlik aniqlandi.

Yuqoridagi raqamlarning izohi shu bilan aniqlanadiki, ekstroversiya tipiga mansub xususiyatlari ta'sirlari sabab talabalarda diniy amallarni bajarishda qat'iylik va ishonch yetishmasligi mumkin. Diniy dunyoqarash o'zgaruvchan bo'ladi. Taqdiri borasida burjlarga asoslangan bashoratlarga qisman bo'lsa-da ishonadilar. O'z diniy kechinmalarini atrofdagilar bilan baham ko'rishni yaxshi ko'radilar.

Introversiya tipiga mansub talabalar ekstroversiya tipiga mansub talabalardan ko'ra kuchli diniy e'tiqodga ega bo'lishlar mumkin. Diniy o'zligini anglagan holda e'tiqod bilan bog'liq amallarni bajarishlari borasida, ekstravertlarga nisbatan ustun turishlari ehtimoli ham yo'q emas. Ko'pincha, botiniy kechinmalarini atrofdagilar bilan baham ko'rishni xush ko'rmaydilar. Atrofdagilar bilan e'tiqodidan kelib chiqqan holda munosabatga kirishadilar. Shuning uchun ular insonlar davrasida bo'lishdan

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

o'zlarini olib qochishga harakat qiladilar. Diniy addiksiya mazkur tip vakillariga xos bo'lgan jarayon bo'lishi ham mumkin.

Emotsional o'zgaruvchanlik sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar ($r=0,173$; $r\leq 0,01$.) va «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra, har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi ($r=0,170$; $r\leq 0,01$.) dindorlik tiplari bilan yuqori musbat bog'liqlik yuzaga keldi. Emotsional o'zgaruvchan shaxs xususiyati ustuvor bo'lgan talabalar dinni noto'g'ri idrok etishi sababli his-tuyg'ularini barqaror ushlab tura olmaydilar. Aksincha, kayfiyati tez-tez o'zgarib turadi va ularni boshqara olmaydi.

Maskulinizm-feminizm sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar tipi bilan ($r=-0,128$; $r\leq 0,05$.) manfiy va diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash tipi bilan ($r=0,138$; $r\leq 0,05$.) musbat bog'liqlik aniqlandi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillarga tayangan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

spontan agressivlik, reaktiv agressivlik, jizzakilik, depressivlik va samimiylik kabi salbiy shaxs xususiyatlari bir vaqtning o'zida ikkilamchi himoya mexanizmlari ham hisoblanadi;

salbiy shaxs xususiyatlarining uyg'unlashmagan dindorlik tiplari bilan o'zaro aloqador hisoblanadi;

Insonlar shaxs xususiyatlaridan va dindorlik tiplaridan himoya mexanizmi sifatida ham foydalanadilar.

3.3. Psixologik himoya mexanizmlari va diniy faollik tiplarining bog'liqlik jihatlari

Toboro taraqqiy etib borayotgan jamiyatimizda diniy omilning ijtimoiy hayotdagi o'rni juda muhim hisoblanadi. Chunki din insoniyat mavjudligi va ruhiy olamining barcha jabhalarini qamrab oladi. Insonni Yagona bir kuchga sig'inishga va g'ayritabiiy kuchlar hamda ob'ektlar borligiga e'tiqod qilishga undaydi. E'tiqodning bu ko'rinishlari esa insondan ma'lum bir diniy faollik va kechinmalarni talab qiladi va

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

turli xil kechinmalar bilan bog'liq bo'ladi. Mamlakatimizda esa bu kabi diniy hodisalarning ko'rinishlarini va ular bilan bog'liq psixologik xususiyatlarni empirik tadqiqotlar asosida o'rganish ma'lum bir muammolar bilan bog'liqdir. Ushbu muammolardan biri ularning bir-biri bilan bog'liqligini aniqlaydigan metodikalari yetishmasligidir.

Ushbu tushunmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida ilmiy tadqiqot ishimizning ikkinchi bobida biz psixologik himoya mexanizmlarini va diniy faollik va kechinmalar tiplarini talabalarning jinslararo tafovutlari va ta'lim olayotgan fan sohalari o'rtasidagi farqli va farqsiz jihatlarini aniqladik edik. Ammo, ular o'rtasidagi ichki sababiy bog'liqlik xususiyatlari bizga noaniqligicha qoldi. Shuning uchun, biz ushbu paragrafda Plutchik va Kellermanning «Hayot stili indeksi» metodikasi va D.O. Smirnovning «Diniy faollik» metodikalari orqali talabalarning himoya mexanizmlari, diniy kechinmalari va diniy faolliklari o'rtasida korrelyatsion bog'liqligini aniqlaymiz va ularni izohlab beramiz (3.3-rasm).

3.3-jadval

Talabalarning psixologik himoya mexanizmlari va diniy faollik tiplarining o'zaro korrelyatsion bog'liqligi (n=309)

Himoya mexanizmlari va diniy faollik tiplari	Astenik diniy kechinmalar shkalasi	Stenik diniy kechinmalar shkalasi	Ishki-tashqi dindorlik motivatsiyasi	Diniy-ilmiy-tabiiy dunyoqarash ustuvorligi	Diniy xulq-atvor
Siqib chiqarish	-0,173**	-0,027	0,068	-0,146*	-0,049
Regressiya	0,040	0,115*	0,047	-0,010	0,093
O'rni to'ldirish	0,005	0,061	0,077	0,056	0,102
Proeksiya	0,148**	-0,015	0,020	0,122*	0,144*
Kompensatsiya	-0,009	0,137*	0,138*	-0,006	0,084
Giperkompensatsiya	0,188**	0,105	0,055	0,095	0,080
Ratsionalizatsiya	0,087	0,000	0,069	-0,013	0,148**

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Mazkur jadvalga muvofiq, himoya mexanizmlari quyidagi diniy kechinmalar va faolliklar bilan bog'liq.

Astenik diniy kechinmali talabalar qilgan gunoh amallarini tan oladilar ammo ularni siqib chiqarib yuborishda bir qator to'sqinliklarga duch keladilar ($r=0,173$; $r \leq 0,01$). O'zlarini gunohkor, o'jiz bir banda ekanliklarini tan oladilar. Mazkur gunohlarni kechirilishini so'rab doimo toat-ibodatda yurishga harakat qiladilar. Ularda giperkompensatsiya ($r=0,188$; $r \leq 0,01$) himoya mexanizmi ustunlik qilib, toat-ibodat orqali o'z kamchiliklarining o'rnini to'ldiradilar va shu bilan o'zlarini boshqalardan ustun qo'yishga harakat qiladilar.

Shu bilan birga diniy-ilmiy-tabiiy dunyoqarashda yuqori ko'rsatkichga ega talabalarda diniy teistik dunyoqarash ustun bo'ladi. Ulardagi mavjud e'tiqod shakli ratsional bo'lib, do'zax, jannat, ruh va Xudo haqiqatda mavjudligini tan oladilar. Ularning mavjudligini siqib chiqarmaydilar. Ularni yanglish idrok etmaydilar va bu borada ma'lum bir cheklovlar vujudga kelmaydi ($r=0,146$; $r \leq 0,01$).

Stenik diniy kechinmali talabalarda mayllar noqulaylik, yoqimsiz hislar tug'dirgan paytda taraqqiyotning ilk bosqichlariga qaytish ro'y beradi. Shuning uchun mazkur talabalar yosh bola ota-onasi oldida o'zini o'jiz his qilgandek diniy ibodatlar va marosimlar chog'ida Allohga nisbatan chuqur his-tuyg'ularni namoyon etadilar. Yosh bola ota-onasiga tayanib kuch va quvvat olgani kabi talabalar ham ibodat chog'ida his-tuyg'ular orqali kuch-quvvat, motivatsiya va ilhom oladi. Bu esa normal regressiya hisoblanadi ($r=0,115$; $r \leq 0,05$).

Astenik diniy kechinmalar ($r=0,148$; $r \leq 0,01$), diniy-ilmiy-tabiiy dunyoqarash ustuvorligi ($r=0,122$; $r \leq 0,05$) va diniy xulq-atvor xususiyatlarini ($r=0,144$; $r \leq 0,05$) o'zida mujassam etgan talabalarda proeksiya ustun himoya mexanizmlaridan biri hisoblashi mumkin ekan. Bunga ko'ra, talabalar bezovtalik tug'diruvchi gunoh ishlarini, ibodat va diniy marosimlarni ado etishdagi kamchiliklarni onsi ravishda boshqa odamlarga ko'chiradilar. Ya'ni, ular qilayotgan bu ishlarini go'yoki boshqa

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

odamlar ham qiladi, deb o'ylaydilar. Ayniqsa, mazkur holat toqatsizlik va fanatizmga o'z aksini topadi.

Stenik diniy kechinmalar ($r=0,137$; $r \leq 0,05$.) va tashqi dindorlik motivatsiyasi ustun talabalarda bu kechinmalar ortgani sari kompensatsiya himoya mexanizmi ham ortib boradi. Bunga ko'ra, talabalar o'zida mavjud kamchiliklarini yashirish yoki ulardan himoyalaniq maqsadida Allohga nisbatan chuqur his-tuyg'ularni namoyon etishga va dindorlikning tashqi belgilariga amal qilishga e'tibor qaratadi. Talabalar shu orqali o'zlaridagi noqulaylik hislaridan xalos bo'lishga moyil bo'ladilar.

Ushbu tahlillardan anglashimiz mumkinki, shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va diniy faolliklar tiplari ham bir-biri bilan o'zaro bog'liq holatlar ekan. Ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi bizga talabalar diniy xulq-atvori mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari o'zaro bog'liqligini, har qanday dindorlik tipiga mansub talabalarda o'ziga xos bo'lgan himoya mexanizmi turlari bo'lishini yoki har qanday himoya mexanizmi ustun talabalarda ma'lum bir dindorlik tiplariga mansub bo'lishini isbotladi.

3.4. Himoya mexanizmlari dindorlik tiplarini belgilovchi omil sifatida

Ilmiy tadqiqot ishimizning o'z oldiga qo'yilgan asosiy vazifasi shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligini aniqlashdan iborat edi. Shu madsadga ko'ra, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarimizdan olingan natijalar ikkala tipning o'zaro bog'liq ekanligini tasdiqladi. Biroq ilmiy izlanishlar natijalari bizni shaxsning psixologik himoya mexanizmlari dindorlik tiplarini belgilovchi omil hisoblanishi mumkin, degan xulosaga kelishga majbur etdi. Farazimizni ilmiy jihatdan asoslash zarurati bizni bir nechta ilmiy va diniy adabiyotlarni tahlil qilishimizga sabab bo'ldi.

A.Freyd nazariyasiga ko'ra, individda psixologik himoya mexanizmlarining paydo bo'lishi quyidagi yosh davrlariga to'g'ri keladi:

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

- uch yoshgacha bo'lgan bolalarda rad etish, proektsiyalash va taqlid qilish himoya mexanizmlarining ko'rinishlari kuzatiladi;

- uch yoshida esa bolada siqib chiqarish, kompensatsiya va intellektualizatsiya himoya mexanizmlari shakllanadi.

- kichik maktab yoshi davrida ratsionalizatsiyaning yetuk bo'lmagan ko'rinishlari rivojlana boshlaydi.

- jinsiy identitlik shakllanishi natijasida esa sublimatsiya himoya mexanizmi harakat qila boshlaydi.

A.Freyddan tashqari M.Klyayn ham himoya mexanizmlari borasida o'z tadqiqot ishlarini olib bordi. U bola rivojlanishining dastlabki bosqichlariga katta e'tibor qaratdi. A.Freyddan farqli o'laroq, u bola tug'ilgandan boshlab himoya mexanizmlaridan foydalana boshlaydi degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, individ uyg'un hayot kechirishi uchun salbiy qarama-qarshiliklarga nisbatan ijobiy tajribalarning shakllanishi shaxsning himoya mexanizmlaridan ko'ra muhimroqdir.

Shaxslarda diniy e'tiqodning shakllanishi ham ularning rivojlanish bosqichlariga borib taqaladi. Bu borada R.Goldman birinchilardan bo'lib bolalarda diniy e'tiqod shakllanish xususiyatlarini o'rgangan. Olim nazariyasiga ko'ra:

- 5-7 yoshda diniy e'tiqodning ilk ko'rinishlari paydo bo'la boshlaydi;

- 10 yoshda din borasida ikki xil tushunchaga ega bo'ladi. Ya'ni, bola diniy tomondan Alloh mavjudligini tan oladi, ammo zehni uni agar Alloh mavjud bo'lsa, U qaerda degan savolga javob topishga undaydi;

- 13 yoshdan boshlab bolalarning diniy tafakkuri rivojlana boshlaydi. U endi diniy hodisalarni yaxshi tushunib yeta boshlaydi.

D. Elkidning tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra:

- 5-7 yoshda diniy e'tiqod shakllarining ilk ko'rinishlari namoyon bo'la bolaydi;

- 7-9 yoshdan boshlab bolada diniy identitlik qobiliyati barqaror rivojlana boshlaydi.

- 10-12 yoshli bolalik davri diniy denominatsiyaning idrok etishning yangi darajasiga o'tish bilan belgilanadi. Buni yangicha diniy fikrlash bosqichi, deb ham

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

atash mumkin. Bu yoshdagi bolalar kuchli ishonchiga tayanib o'zlarida shakllangan diniy identitlik namoyon bo'lishini izlashga intiladilar. Aynan shu yoshdan «Din» tushunchasini qabul qiladilar.


Shuningdek, olim fikriga ko'ra, bola rivojlanishining har bir bosqichi diniy amallarni bajarish va marosimlarda ishtirok etish tajribasini egallash uchun zamin hozirlaydi. Bu esa bola aqliy rivojlanishi va tajribasining o'zaro harakatiga bog'liq bo'ladi.

Xuddi shuningdek, islom dinida ham balog'at yoshiga yetgan davrdan boshlab ularga amallariga qarab savob va gunoh yozilishini Alloh iroda etgan. Mazkur ilmiy tushunchamiz asosini ko'plab diniy manbaalarda uchratishimiz mumkin. Demak, shaxslarda diniy e'tiqod psixologik himoya mexanizmlariga nisbatan kech shakllanishi mumkin.

Shunday qilib, biz psixologik himoya mexanizmlarining shaxs xulq-atvoriga ta'siri xususiyatlaridan kelib chiqib ular dindorlik tiplarini vujudga keltiruvchi omil bo'lishi mumkinligini taxmin qildik. Shu maqsadda himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari metodikalari bo'yicha olingan (309 nafar) ma'lumotlar SPSS dasturining 26.0 versiyasi orqali faktorli tahlil natijalari amalga oshirildi (13-ilova).

Faktorli tahlil, psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari keltirilgan tadqiqot natijalari aniqlandi. Mazkur natijalarni esa quyidagi rasmda aks etganligini guvohi bo'lishimiz mumkin (3.2-rasm).

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI



3.2-rasm. Dindorlik tiplarining konstruktiv va destruktiv psixologik himoya mexanizmlari bilan determinasiyalanganligi

Faktorli tahlil natijalariga ko'ra, o'zini oqlashga yordam beruvchi himoya mexanizmlaridan proeksiya, giperkompensatsiya va ratsionalizatsiya diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash, dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish, dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish, dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish, dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash kabi uyg'unlashgan dindorlik tiplari musbat ishorali yuqori faktor yuklanishlariga ega bo'lganliklarini ko'rish mumkin (mos ravishda: 0,710, 0,653, 0,623, 0,613, 0,574, 0,534, 0,480, 0,460, 0,364). Bu raqamlar proeksiya, giperkompensatsiya, ratsionalizatsiya kabi himoya mexanizmlari shaxslarda uyg'unlashgan dindorlik tiplarining vujudga kelishida sezilarli ta'sir ko'rsatishini va ularni vujudga keltiruvchi omillar ekanligini ifoda etishidan darak berishi mumkin. Bu natijalarni yuqoridagi korrelyatsion ko'rsatgichlarda o'z aksini topgan (3.1-jalval).

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Bunga muvofiq, proeksiya ibtidoiy himoya mexanizmi hisoblanib, u bir nechta dindorlik tiplarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi (3.4-jadval). Tadqiqot ishining natijalarida ham proeksiya talabalarda mavjud bo'lgan ustun himoya mexanizmi ekanligi aks etgan. Chunki proeksiya himoya mexanizmi orqali shaxslar gunohga yetaklovchi amallar va aybdorlik uyg'otuvchi motivlarga qarshi turadi. Mazkur motivlar tashqi olamga ko'chiriladi va o'zlaridagi salbiy xatti-harakatlarini anglamaydi, aksincha ularni ongsiz ravishda atrofdagi ob'ekt va subektlarga proeksiya qiladi. Boshqalardan kamchiliklar va nuqsonlar qidira boshlaydi. Natijada ko'pchilik insonlar juda ko'p gunoh ishlar qiladi, degan o'yda voqelik buzib idrok etila boshlaydi. Tashqi olamni o'zlariga yovuzlashtirish ehtimolini beradi.

Giperkompensatsiya himoya mexanizmining dindorlik tipdaridagi ko'rinishi quyidagicha tavsiflanadi. Inson o'zidagi bir mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ongsiz ravishda ma'lum bir dindorlik tipiga yo'naladi. Bundan asosiy maqsad chin dildan ibodatda bo'lish emas, balki kamchiliklarini berkitish uchun dinni vosita qilib olish. Misol uchun, dindan ilmi kuchli bo'lmagan inson o'zining bu kamchiligini bartaraf etish maqsadida tashqi dindorlik xususiyatlarini oshirib yuboradi. ID shu asnoda diniy impulslarni qondirishga urinadi.

Ratsionalizatsiyani himoya mexanizmi boshqalaridan asl motivlar anglanmagan haqiqiy bo'lmagan motivlarga aylanishi, intellektual oqlashi, ekzistensial o'z-o'zini himoya qilish maqsadida yuzaga kelishi, mafkura ratsionalizatsiya asosiga qurilganligi kabi sifatlari bilan ajralib turadi.

Shuningdek, ratsionalizatsiya himoya mexanizmi ustun talabalar xavf tug'diruvchi impulslardan «Ego»siga putur yetkazmaslik maqsadida ularning qadrini aqliy ravishda juda oshirib yoki aksincha tushirib yuboradi. Qolgan himoya mexanizmlarida esa bu kabi jarayon yuz bermaydi.

Shuningdek, psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari keltirilgan tadqiqot natijalarida ham uyg'unlashmagan dindorlik tiplarining shakllanishiga javobgarlikdan ozod qiluvchi himoya

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

mexanizmlari ta'sir ko'rsatganini guvohi bo'ldik. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin.

Javobgarlikdan ozod qiluvchi himoya mexanizmlaridan regressiya va o'rni to'ldirish uyg'unlashmagan dindorlik tiplariga sezilarli ta'sir ko'rsatib ularni vujudga keltiruvchi omil ekanligi ma'lum bo'ldi. Bunga ko'ra, «Ego» qo'rquv, noqulayliklar va ko'ngilsiz voqealar ta'sirlariga duchor bo'lganda rivojlanishning ilk davrlariga, ya'ni intensional, oral, anal va fallik bosqichlaridan biriga qaytish jarayoni yuz berishi mumkin. Barchaga ma'lumki, ushbu yosh davrida atrofdagi olamdan tashqari bizga noma'lum bo'lgan, bevosita his qilib bo'lmaydigan alohida boshqa bir dunyoning mavjudligiga, sehr-joduga, afsungarlar va jodugarlar mavjudligiga bo'lgan xayoliy ishonch bo'ladi. Mazkur ishonch esa ularda asossiz qo'rquv manbai bo'lib xizmat qiladi. Qo'rquvdan himoalanish ularni regressiya himoya mexanizmidan foydalanishga undaydi. Bu esa shaxsni haqiqiy diniy haqiqatlar va harakatlar yuzasidan realistik fikrlashlardan yiroqlashishga majbur etadi.

O'rni to'ldirish himoya mexanizmi ustun shaxslarda ijtimoiy doiralarda itilof tug'dirayotgan impulslar yuzaga kelganda unga haqiqatan taalluqli kishidan, predmetlar va e'tiqodlardan uning o'rni bosuvchi (ramziy ma'noda, shuningdek, kam tahdid tug'diruvchi sifatida idrok etiluvchi) boshqa bir insonlar, predmetlar va e'tiqodlarga ko'chirilishi mumkin. Shu boisdan sof diniy haqiqatlar va harakatlar orqali o'z ehtiyojlarini qondira olmasliklari natijasida uyg'unlashmagan dindorlik sari borib diniy ehtiyojlarini o'rni to'ldirish ehtimoli yuzaga keladi.

Himoya mexanizmlari deb nomlanuvchi ikkinchi faktordagi raqamlar diqqat bilan kuzatilsa kompensatsiya, o'rni to'ldirish, regressiya va siqib chiqarish himoya mexanizmlari musbat ishorali yuqori faktor yuklanishlariga ega bo'lganliklarini ko'rish mumkin (mos ravishda: 0,592, 0,590, 0,589 va 0,389). Bu raqamlar kompensatsiya, o'rni to'ldirish, regressiya va siqib chiqarish himoya mexanizmlari dindorlik tiplarini shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaslik ehtimoli mavjud ekanligidan darak beradi. Bu himoya mexanizmlarining bir-biri bilan faqatgina sababiy bog'liqliklari mavjuddir. O'z o'rni savol tug'ilishi mumkin nima uchun yuqoridagi

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

faktorli analizda mazkur himoya mexanizmlari bitta faktorga birlashmadi? Chunki yuqorida biz faqat psixologik himoya mexanizmlarini o'zinigina faktorli analiz qilganmiz va natijada ularning barchasi mazmuniy jihatdan o'zaro faktorlarga birlashgan. Mazkur jadvalda esa biz dindorlik tiplariga ta'sir etuvchi psixologik himoya mexanizmlarini aniqlash maqsadida ularning ikkalasini ham faktorli analiz qilganmiz. Natijada esa dindorlik tiplari shakllanishiga ta'sir etmaydigan faktorlar ya'ni kompensatsiya, o'rnini to'ldirish, regressiya va siqib chiqarish himoya mexanizmlari o'z-o'zidan sababiy bitta faktorga birlashganini guvohi bo'lib turibmiz. Shuning uchun ham biz bu faktorga himoya mexanizmlari deb nom berdik. Qoleversa barcha himoya mexanizmlari bitta bu ham bo'lsa siqib chiqarish hisoblanadi. Qolgan barcha himoya mexanizmlari (sublimatsiya va ratsionalizatsiyadan tashqari) uning turli xil ko'rinishdagi shakllari hisoblanadi. Kompensatsiya, o'rnini to'ldirish va regressiya himoya mexanizmlarida ham barcha mayl uyg'otuvchi impulslar siqib chiqariladi. Faqat bular turli xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Misol uchun:

- Kompensatsiya himoya mexanizmida inson o'zidagi mavjud kamchiliklar tufayli kelib chiqadigan ruhij zo'riqishlarni boshqa sifatlarini rivojlantirish orqali siqib chiqaradi;

- O'rnini to'ldirish – ijtimoiy doiralarda ixtilof tug'dirayotgan impulslarga (odatda, agressiv), unga haqiqatan taalluqli kishidan uning o'rnini bosuvchi (ramziy ma'noda, shuningdek, kam tahdid tug'diruvchi sifatida idrok etiluvchi) boshqa bir insonga ko'chirish orqali siqib chiqaradi.

- Regressiya – mayllar noqulaylik, yoqimsiz hislar tug'dirgan paytda taraqqiyotning ilk bosqichlariga qaytish orqali ularni siqib chiqaradi. Aynan shuning uchun, talabalar ularni bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lgan himoya mexanizmlari sifatida qaragan.

Uyg'unlashmagan dindorlik tiplari deb ataluvchi uchinchi faktor raqamlariga diqqat bilan nazar tashlansa, sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar va «Soxta ilm»ga qiziqish dindorlik tiplari bir-birlari bilan musbat ishorali yuqori faktor yuklanishlariga ega bo'lganliklarini ko'rish mumkin (mos ravishda:

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

0,801 va 0,665). Bunga muvofiq, faktorli analiz tahlili talabalar bergan javoblariga ko'ra, bu dindorlik tiplarini uyg'unlashgan dindorlik tiplari emas, balki uyg'unlashmagan e'tiqodlarga yo'nalgan dindorlik tiplari ekanligini aniqlab berdi.

Yuqorida keltirilib o'tilgan tadqiqot ishining natijalaridan kelib chiqib quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Uyg'unlashgan dindorlikning pastligi oqibatida shakllanuvchi uyg'unlashmagan dindorlik tiplari shaxsda salbiy emotsional xususiyatlarning kuchliroq namoyon bo'lishiga olib keladi.

2. Shaxsiy javobgarlikdan ozod qiluvchi, o'zini oqlashga yordam beruvchi hamda salbiy hissiyotlardan xalos etuvchi himoya mexanizmlari uyg'unlashgan va uyg'unlashmagan dindorlik tiplarini determinatsiyalovchi muhim omillar hisoblanadi.

3. Uyg'unlashmagan dindorlik tiplari «Asabiylik», «Spontan agressivlik», «Depressivlik», «Jizzakilik», «Emotsional o'zgaruvchanlik» kabi shaxs xususiyatlari bilan o'zaro aloqador ekanligi ma'lum bo'ldi.

4. «Astenik diniy kechinmalar» va «Diniy-ilmiy-tabiiy dunyoqarash ustuvorligi» kabi diniy faollik tiplari «Siqib chiqarish» himoya mexanizmi bilan teskari aloqadorlik aniqlandi.

5. «Proeksiya», «Kompensatsiya», «Giperkompensatsiya» va «Ratsionalizatsiya» himoya mexanizmlari «Astenik diniy kechinmalar», «Diniy-ilmiy-tabiiy dunyoqarash ustuvorligi», «Diniy xulq-atvor» va «Ichki-tashqi dindorlik motivatsiyasi» kabi diniy faollik tiplari bilan o'zaro bog'liq.

XULOSA

«Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligi» mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Uyg'unlashgan dindorlik tiplari asosan «dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish», «dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash», «dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish», «dunyoni yaratuvchi Zotning mavjudligini tan olish», «diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj» kabi diniy qadriyatlarni o'z ichiga olib konstruktiv diniy xulq-atvorni shakllantiruvchi muhim omil bo'lsa, uyg'unlashmagan dindorlik tarkibiga «sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqod», «soxta ilm»ga qiziqish», ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil «bid'at» amallarga ishonch-e'tiqodlarning ustunlik qilishi kabilar kirib, destruktiv diniy xulq-atvorni shakllanishiga zamin hozirlaydi.

2. «Sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqod», «soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi kabi uyg'unlashmagan dindorlik tiplari shaxsda asabiylik, jizzakilik, tortinchoqlik kabi salbiy psixoemotsional xususiyatlarining ortishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanisa, aksincha «dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish», «dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash», «dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish», «dunyoni yaratuvchi Zotning mavjudligini tan olish», «diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj» kabi uyg'unlashgan dindorlik tiplari ijobiy shaxsiy fazilatlar shakllanishiga olib keladi.

3. Faktorli tahlil natijalariga ko'ra «o'rmini to'ldirish», «regressiya» kabi himoya mexanizmlari shaxsiy javobgarlikdan ozod qilish funksiyasini bajarsa, «giperkompensasiya», «proeksiya» va «rasionalizasiya» o'zini oqlashga yo'naltirilgan himoya mexanizmlari bo'lib hisoblanadi. «Rad etish», «kompensasiya» va «siqib

chiqarish» himoya mexanizmlari esa insonni salbiy hissiyotlardan xalos etish funksiyasini bajaradi.

4. O'zini oqlashga yo'naltirilgan himoya mexanizmlari («proeksiya», «giperkompensasiya», «rasionalizasiya») uyg'unlashgan dindorlik tiplarining («dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish», «dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash», «dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish», «dunyoni yaratuvchi Zotning mavjudligini tan olish», «diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj» va «dinga ma'naviy xulq-atvor namunasi sifatida qarash») shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq shaxsiy javobgarlikdan ozod qilishga qaratilgan himoya mexanizmlari («o'rmini to'ldirish», «regressiya») uyg'unlashmagan dindorlik tiplarini («sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqod», «soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi») shakllantiruvchi omil bo'lib hisoblanadi.

5. Psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lish xususiyatlari bilan talabalarning ta'lim yo'nalishlari orasida bog'liqlik mavjud emas. Biroq psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishida jins tafovutlari yaqqol kuzatildi. Ya'ni talaba-yigitlarga insonni salbiy hissiyotlardan xalos etuvchi himoya mexanizmi («siqib chiqarish») ko'proq xos bo'lsa, talaba-qizlarda shaxsiy javobgarlikdan ozod qilishga («regressiya») va o'zini oqlashga yo'naltirilgan («proeksiya», «giperkompensasiya») himoya mexanizmlari ustunlik qiladi.

6. Uyg'unlashgan dindorlik tiplarining («dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish» va «Oliy kuch, ya'ni Yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish») shaxsda yuqori darajada namoyon bo'lishi insonni salbiy hissiyotlardan xalos etuvchi («siqib chiqarish») himoya mexanizmining past darajalari bilan bog'liq. Boshqacha aytilsa, salbiy hissiyotlardan xalos etuvchi, ya'ni «siqib chiqarish» himoya mexanizmining yuqori darajada namoyon bo'lishi shaxsda uyg'unlashgan dindorlik tiplarining shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Olingan tadqiqot natijalari va ular yuzasidan shakllantirilgan umumiy xulosalar asosida quyidagi **amaliy tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

1. Yoshlarda psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari namoyon bo'lishining yosh, jins va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga tayangan holda oilada farzandlarning diniy dunyoqarashini tarbiyalashga jiddiy e'tibor berish lozim. Yoshlarning diniy dunyoqarashlarida turli og'ishlarning oldini olish maqsadida har xil yosh davrlarida diniy tarbiyani amalga oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va ko'rsatmalar ishlab chiqish, ko'p nusxada chop etish va har bir mahalla, har bir oilaga tarqatish maqsadga muvofiq.

2. Yoshlarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar bo'yicha aniqlangan ilmiy tadqiqot natijalaridan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash bo'yicha ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni mahalla va oila institutlarida keng joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Psixologiya ta'lim yo'nalishlari talabalarida psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarini aniqlashga qaratilgan psixologik testlar tuzish ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar faoliyat olib borishini yo'lga qo'yish muhim. Bu esa milliy muhitga moslashtirilgan psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqish va jahon tajribasida mavjudlarini moslashtirish bilan bog'liq muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi.

4. Din psixologiyasi va etnopsixologiya fanlarining o'quv dasturlariga psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari bilan bog'liq mavzularni kiritish maqsadga muvofiq.

5. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi amaliyotchi psixologlarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari doirasida bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda shakllantirib borish talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida ularning faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6. Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarini aniqlaydigan metodikalarni tuzish texnologiyasi bo'yicha jahon psixologiyasi tajribalarini o'zlashtirish va ularga tayangan holda psixolog mutaxassislar tayyorlashda

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

«Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari» kursini joriy etib, mazkur yo'nalishdagi psixologik tashxis metodikalarini qo'llash bo'yicha o'quv mashg'ulotlar dasturini shakllantirish lozim.

Olingan tadqiqot natijalari va ular yuzasidan shakllantirilgan umumiy xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Yoshlarda psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari namoyon bo'lishining yosh, jins va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga tayangan holda oilada farzandlarning diniy dunyoqarashini tarbiyalashga jiddiy e'tibor berish lozim. Yoshlarning diniy dunyoqarashlarida turli og'ishlarning oldini olish maqsadida har xil yosh davrlarida diniy tarbiyani amalga oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va ko'rsatmalar ishlab chiqish, ko'p nusxada chop etish va har bir mahalla, har bir oilaga tarqatish maqsadga muvofiq.

2. Yoshlarning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari o'zaro bog'liqligi bo'yicha aniqlangan ilmiy tadqiqot natijalaridan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash bo'yicha ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni mahalla va oila institutlarida keng joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Psixologiya ta'lim yo'nalishlari talabalarida psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarini aniqlashga qaratilgan psixologik testlar tuzish ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar faoliyat olib borishini yo'lga qo'yish muhim. Bu esa milliy muhitga moslashtirilgan psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqish va jahon tajribasida mavjudlarini moslashtirish bilan bog'liq muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi.

4. Din psixologiyasi va etnopsixologiya fanlarining o'quv dasturlariga psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari mavzularini kiritish maqsadga muvofiq.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

5. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi amaliyotchil psixologlarning mazkur mavzular doirasida bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda shakllantirib borish talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida ularning faoliyat samaradorliklarini oshirishga xizmat qiladi.

6. Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarini aniqlaydigan metodikalarni tuzish texnologiyasi bo'yicha jahon psixologiyasi tajribalarini o'zlashtirish va ularga tayangan holda psixolog mutaxassislar tayyorlashda «Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari» kursini joriy etib, mazkur yo'nalishdagi psixologik tashxis metodikalarini qo'llash bo'yicha o'quv mashg'ulotlar dasturini shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» 28.01.2022 ПФ-60-сон <https://lex.uz/docs/5841063>
2. 2018 йил 16 апрелдаги «Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 16.04.2018. ПФ-5416-сон <https://lex.uz/docs/3686277>
3. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 5 июльдаги «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Қонун ЎРҚ-699-сон. 05.07.2021. <https://lex.uz/docs/5491534>

II. Monografiyalar, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

4. Анцыферова Л.И. К психологии личности как развивающейся системы // Психология формирования и развития личности. – М.: Изд-во МГУ. 1981. – 368 с.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

5. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. – М.: Издательство Академические проект, 2011 г. – 240 с.
6. Анцыферова Л.И. Личность в трудных жизненных условиях: переосмысливание, преобразование ситуаций и психологическая защита // Психологический журн. Т. 15. 1994. №1. – с.18.
7. Абрамова М.А. Фактор религиозности в системе мотивации поведения индивида: автореф. дис....канд. филос. наук :09.00.13 / Абрамова Маргарита Александровна. – М., 2001. – с.26
8. Ахмедов Б. «Такво: тушунча ва таъриф». – Т.: «Ўзбекистон халқаро ислом академияси», 2021. – 88 б.
9. Афанасенко И.В. Особенности структуры индивидуальной религиозности и связанных с нею личностных свойств у студентов разнопола // Северо-Кавказский психологический вестник № 12.2. 2014 – с.31-33.
10. Айрапетова А.Г. Личностные особенности, формирующие религиозные предубеждения молодежи / дис....канд.наук. Т.: 2017. – 177 с.
11. Бурлакова Н. С. Детский психоанализ: школа Анны Фрейд / Н. С. Бурлакова, В. И. Олешкевич. – Москва: «Академия», 2005. – 50 с.
12. Бассин Ф.В. О «силе Я» и «психологической защите» / Ф. В. Бассин // Вопросы философии. – 1969. – № 2. – с.118-125.
13. Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека / Ф. Б. Березин. – Л., 1988. – 270 с.
14. Братусь Б. С., Вера как общепсихологический феномен сознания человека Б. С. Братусь, Н.В. Инина // Вестн.Моск.ун-та. Сер.14, Психология. – 2011. – №1. – с. 25-38.
15. Багишев А.В. Понятие либидо в психоанализе Лакана / Cogito. Вып.3: Исследования по проблемам структурного психоанализа Жака Лакана. Сб.статей / Сост. О.Н. Бушмакина, С.Ф. Сироткин. - Ижевск. 2000. – с. 62-68.
16. Бассин Ф.В., Бурлакова М.К., Волков В.Н. Проблема психологической защиты // Психологический журнал. -1988. - Т. 9. - № 3. - с. 78-86.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

17. Бодров В.А. Профессиогенетический подход к проблеме формирования профессионала//Психология субъекта профессиональной деятельности/Под ред. А.В. Брушлинского, А.В. Карпова. – М. – Ярославль: ДИА-пресс, 2001. – с.54-71.
18. Бодалев А.А. Формирование личности – актуальная проблема комплексного психолого-педагогического исследования/Психолого- педагогические проблемы взаимодействия учителя и учащихся. М., 1980, – с. 6-9.
19. Брушлинский А.В. О критериях субъекта и его деятельности// Психология субъекта профессиональной деятельности/Под ред. А.В. Брушлинского, А.В. Карпова. – М. – Ярославль: «ДИА-Пресс», 2001. – с.5-23.
20. Бодров В.А. Профессиогенетический подход к проблеме формирования профессионала // Психология субъекта профессиональной деятельности/Под ред. А.В. Брушлинского, А.В. Карпова. – М. – Ярославль: ДИА-пресс, 2001. – с.54-71.
21. Вассерман Л.И. Ерышев, О.Ф. Клубова, Е.Б. «Психологическая диагностика индекса жизненного стиля» Пособие для психологов и врачей// Санкт-Петербург 2005. –54 с.
22. Восковская Л.В. «О религиозной ориентации православных христиан»//Православный ученый в современном мире программа II международной научной конференции. В-2013.
23. А.Ф.Гавриленков. Социология и социальная работа 34 Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия Социальные науки, 2008, № 1 (9), с. 34-38
24. Густова Л.В. Исследование взаимосвязи индивидуального уровня религиозности и личностных качеств//Журнал Современные проблемы науки и образования. - 2012.-№3].
25. Джуманиязова М.Х. Талабалар диний дунёкарашининг ижтимоий психологик хусусиятлари. М.Х.Джуманиязова: дисс... афтореферат псих.ф.д (PhD). – Т., 2020. – 24 б.;

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

26. Джеймс У. Многообразие религиозного опыта. – СПб.: Изд-во «Андреев и сыновья», 1992. – 418 с.
27. Давыдов В.В., Зинченко В.П. Принцип развития в психологии// Вопросы философии. – 1980. – № 12. – С. 47-60.
28. Джидарьян И.А. Удовлетворенность жизнью и выбор стратегий поведения в трудных жизненных ситуациях // Психологическое обозрение, 1997. № 2 (5). – С. 37-41.
29. Зейгарник, Б. В. Патопсихология М.: Издательство Московского университета, 1986. – 200 с.
30. Кинодо Ж.М. Читая Фрейда изучения трудов Фрейда в хронологической перспективе/Пер с. фр. – М.: Когито-Центр, 2014. – 416 с.
31. Кузанский Н. Об ученом незнании. Антология мировой философии. М.:Мысль, 1969. Т. 2. – С. 70.
32. Карвасарский Б.Д. Неврозы / Б.Д. Карвасарский. – М.: Медицина, 1990. – 577 с.
33. Казанцева, Т. А. Вера как социально-психологический феномен и его суггестивный механизм формирования : автореф дисс.... канд. психол. наук : 19.00.05 / Татьяна Алексеевна Казанцева. – М., 2007. – 24 с.
34. Котенева А.В. Защитные механизмы личности, гендер и тип темперамента//Наука и школа.-2010. № 4. – 159 с.
35. Карпов А.Б. «Механизмы психологической защиты и стратегии преодоления в переходный период от подросткового к юношескому возрасту»//дис. Автореферат, Москва – 2006, общ. 28 с.
36. Карасева С.Г. Шкурова Е.В. «Многомерный кроссконфессиональный подход к исследованию религиозности в Беларуси: Актуальность и Концептуализация»//Социология. 3/2012.
37. Крылова А.А., Маничева С.А под ред., Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии– 2-е изд., доп. и перераб. – СПб., 2003. – 560 с.

38. Лапкина Е.В. Психологическая защита и совладание: защитная система личности// Ярославский педагогический вестник – 2011 – № 2. – Том II (Психолого-педагогические науки). – 232 с.
39. Мазиллов, В. А. Методологические проблемы психологии в начале 21 века / В. А. Мазиллов // Психологический журнал – 2006. – Т.27. № 1 – С. 23-34.
40. Мухаммад З.К. Иймон кушининг икки каноти. Т.: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2000 йил. Б 47.
41. Московичи. С.М. Творящая богов/С. Московичи. – М.: Центр психологии и психотерапии, 1998. – 560 с.
42. Мягков, И.Ф. Ю.В.Шчербатих, М.С.Кравцова Психологический анализ уровня индивидуальной религиозности //»Психологический журнал», Т. 17, №6. 1996. – С.119-122.
43. Никольская, И. М. Психологическая защита у детей / И. М. Никольская, Р. М. Грановская. – СПб.: Речь, 2010. – 352 с.
44. Никольская И.М. Практика исследования неосознаваемых психических процессов у детей младшего школьного возраста // Психологическая газета. 1997.№ 3. – С.8-9
45. Очилдиев А., Рахимжонов Д. Диншунослик асослари ўқув кўлланма Н.: Тошкент ислом университети, Т.: 2013, 320 Б.
46. Осипов А.И. Путь разума в поисках Истины. – М.: Изд. Сретенского монастыря, 2004. – 433 с.
47. Платонов, К. К. Психология религии / К. К. Платонов. – М.,1967. – 215 с.
48. Пантилеев С.Р., Е.Ю.Жилина Методика диагностики защитных механизмов личности// вестн. Моск. ун-та. Сер . 14. Психология. 2009. № 1. – С. 96.
49. Райгородский Д.Я. Самосознание и защитные механизмы личности: Хрестоматия. Самара: «Бахрах-М», 2000. – с. 656.
50. Спиркина Е. А. Фрейд З.- основатель психоанализа (к 150 летию со дня рождения)//Психологический журнал, No.006 Vol.27. 2006. – 5 с.

51. Салливан Г.С. Интерперсональная теория в психиатрии/ Г.С.Салливан. – М.: Изд-ва «КСИ», «Ювента», 1999. – 352 с.
52. Садриддинов С.Р. «Педагогик фаолият тизимида психологик химоя (ижтимоий-психологик жихат)»/дисс... PhD.: 19.00.05/ Садриддинов Сухроб Рустамжонович. – Т., 2019.
53. Слободчиков, В. И. Христианская психология в системе психологического знания / В. И. Слободчиков // Психология. Журнал Высшей школы экономики. – 2007. –4 т. – № 2. – С. 90-97.
54. Сулейманов Т.Ф., «Религия и мораль: общее и особенное»// cyberleninka.ru. С. 70-79 (Эътибор қилинган сана 23.03.2021.)
55. Сувакпит., Д.Г. « Особенности индивидуальной религиозности Тувинцев зрелого возраста, исповедующих буддизм», Научный журнал «Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири», №2. – 2017.
56. Смирнов, Д.О. Религиозная активность в структуре интегральной индивидуальности: дисс...канд.псих.наук. Пермь 2001. С. 104.
57. Соколовская И.Э. Механизмы психологических защит в связи с религиозностью личности//Мир науки, культуры, образования. № 4 (47) 2014
58. Тулупьева Т.В. психологическая защита и особенности личности в юношеском возрасте дисс. – М.: РГБ, 2003. –176 с.
59. Тобалов, Ю. П. Совладание с трудными жизненными ситуациями у верующих : автореф. дисс. канд. психол. наук / Юрий Петрович Тобалов. – М., 2004. – 34 с.
60. Титов Р.С. Психология. Интернализация религиозности и ее диагностика в теории самодетерминации // Журнал Высшей школы экономики. 2013. Т. 10. № 2. – С. 138.
61. Титов Р.С., Концепция индивидуальной религиозности Г.Олпорта: понятие религиозных ориентаций // Культурноисторическая психология 1/2013. – С.2-3
62. Угринович Д.М.. Психология религии / Д. М. Угринович. – М. : Политиздат, 1986. – 352 с.

63. Фрейд А. Психология Я и защитные механизмы, М.: Педагогика 1993. –17 с.
64. Фрейд З. Введение в психоанализ: Лекции / З.Фрейд: авторы
Очерка о Фрейде Ф.В. Бассин и М.Г. Ярошевский. — М.: «Наука». 1989. — 456 с.
65. Фрейд А. Психология «Я» и защитные механизмы. — М.: «Педагогика-Пресс», 1993. —144 с.
66. From. E. To have or to be? / From E.. — London.«New York», 2008. — с. 203.
67. Фрейд А. «Психология «Я» и защитные механизмы». — М.: «Педагогика-Пресс», 1993. —144 с.
68. Фрейджер Р., Личность. Теории, упражнения, эксперименты:
энциклопедия / Фрейджер Р., Фейдимен Д.; пер. с англ. Е. Будагов, М. Васильева,
В. Кучерявкин и др. — 6 междунар. изд. — Санкт-Петербург; Москва: Прайм-
Еврознак: «Олма-Пресс», 2004. — 608 с.
69. Фромм Э. Душа человека / Э. Фромм. — Москва. «Республика», 1992. — 430 с.,
70. Фромм Э. Бегство от свободы / Э. Фромм. — М.: «Прогресс», 1990. — С. 272.
71. Фрейд З. Психопатология обыденной жизни//Психология бессознательного. — М.: Просвещение, 1989. — С. 269
72. Фрейд А. Введение в детский психоанализ. Норма и патология детского развития. «Я» и механизмы защиты: Сборник. — Минск: 000 «Попурри», 2004. — 448 с.
73. Фрейд З. Психология бессознательного. — М.: «Просвещение», 1989. — 448 с.
74. Хорни К. Невротическая личность нашего времени: самоанализ. — М.: «Прогресс-Универс», 1993. — 480 с.
75. Хьелл, Л., Зиглер, Д. Теории личности основные положения, исследования и применение / Л. Хьелл, Д. Зиглер; пер. С. Мелневской и Д. Викторовой. — СПб.: «Питер-Пресс», 1997.
76. Шошин Б.П. Пути концептуализации бессознательного// Бессознательное: Сб. статей. Новочеркасск: Сагуна. 1994. Т. 1. — С. 26-35.

77. Юнг К. Г. О психологии восточных религий и философий/К. Г. Юнг. — М., 1994. — 253 с.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

78. Simon B. «Ego. drives. and the dynamics of internal objects»//Frontiers in psychology, published: 01 July 2014. volume 5. — 70-78 p.
79. Baitenova N. Zh., Demeuova A.A. «S. Freud on religion as a sublimation of the unconscious»// KazNU Bulletin. Religious studies series. № 3. 2015. — 7 p.
80. Melvin A. Kimble, Susan H. McFadden. Aging, spirituality, and religion. — USA, 1995. — 479 p.
81. Ralph W. Hood Jr., Bernard Spilka, Bruce Hunsberger, & Richard Gorsuch. The psychology of religion: an empirical approach. — New York, London: The Guilford Press, 1996. — 546 p.
82. Plutchik R., Kellerman H., Conte H.R. A structural theory of ego defenses and emotions // Izard C. Emotions in personality and psychopathology. — New York: Plenum Press, 1979. — 257 p.
83. Cramer P. The development of defense mechanisms: theory, research, and assessment. — New York: Springer-Verlag, 1991. — 251 p.
84. Allport G.W., Ross J.M. Personal religious orientation and prejudice. // Journal of Personality and Social Psychology. 1967. V. 5. № 4. — 432-443 p.
85. Batson C.D., Schoenrade P.A. Measuring Religion as Quest: 1) Validity Concerns // Journal for the Scientific Study of Religion, Vol. 30, No. 4 (Dec., 1991). — 430-447 p.
86. Kragh U., Smith G. Percept-genetic analysis. *Gleerup*, 1970. — 480 p.
87. Titelman D., Nilsson A. «Are siblings of schizophrenic individuals psychologically disturbed? A perceptgenetic inquiry». *Acta Psychiatrica Scandinavica*, 1992. Vol. 86, No. 5. — Pp. 411-417. <https://doi.org/10.1111/j.1600-0447.1992.tb03289.x>
(Мурожаат қилинган сана 11.03.2021).

88. Kragh U. The Defense Mechanism Test: A new method for diagnosis and personnel selection // Journal of applied psychology. 1960. Vol. 44. № 5. – P. 303. <https://doi.org/10.3109/08039489309104112>. (Murojizat kilingan sana 5.10.2020).
89. Lee K.A., Vaillant A.G. E. A Q-sort approach to identifying defenses. Ego Mechanisms of Defense: A Guide for Clinicians and Researchers. 1992. – P. 217.
90. Andrews G., Singh M., Bond M. The Defense Style Questionnaire. Journal of Nervous and Mental Disease, 1993. – Pp. 246-256. <https://doi.org/10.1097/00005053-199304000-00006>. (Murojizat kilingan sana 10.11.2020).
91. Plutchik, R. R. Keflelian and H.Coute. A structural theory of ego defenses and emotions): EJsard «Emotions hi personality and psychopathology». N.Y., 1979. – p. 229-257.
92. Ricardo P, Carla Fernanda Ferreira-Rodrigues, Lucas de Francisco Carvalho «Cattell's Personality Factor Questionnaire (CPFQ): Development and Preliminary Study// Paidéia (Ribeirão Preto) vol.24 no.57 Ribeirão Preto Jan./Apr. 2014.
93. Francis L.J., Jewell A., Robbins M. The relationship between religious orientation, personality, and purpose in life among an older Methodist sample // Mental Health, Religion & Culture. 2007. V. 13. № 7-8.
94. A.Z.tari, N.Sobhi-Gharamaleki, A.Hojjat, B.Alian. Relationship Between Religious Orientation and Defense Mechanisms in adolescents//Procedia-Social and Behavioral Sciences 114 (2014). – 287-290 p.
95. Prout T.A., W.H.Gottdiener, A.Camargo, S. Murphy «The relationship between defense mechanisms and religious coping using a new two-factor solution for the Defense Style Questionnaire-40»//Published Online:4 Sep 2018 <https://doi.org/10.1521/bumc.2018.82.3.224>. (Murojizat kilingan sana: 22.04.2021).
96. Khoynzhad G., A.R. Rajaei, A. Sarvarazemy Basic Religious Beliefs and Personality Traits//Iranian Journal of Psychiatry Spring: 7(2). – 82-86 p.

IV. Internet manbalar

97. <https://studopedia.ru>
98. psycabi.net
99. www.miu.by
100. www.dissercat.com
101. lex.uz

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ilovalar

1-ilova

R.Plutchik va G.Kellermannning shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini aniqlaydigan «Hayot stili indeksi» metodikasi

TEST YO'RIQNOMASI: Ushbu test savolnomasi turli shaxs xususiyatlarini aks ettiruvchi 92ta fikr-mulohazadan iborat. Har bir mulohazani diqqat bilan o'qing. Ularda aks ettirilgan hayotiy vaziyatlarda vujudga keladigan his-tuyg'ular, xatti-harakatlar va reaksiyalar sizga tegishli bo'lsa, «Ha» (1), agar bu xislatlar sizga xos bo'lmasa, «Yo'q» (0) javobini berib, tegishli raqamni aylana ichiga olishingiz kerak bo'ladi.

№	Fikr-mulohazalar	Ha	Yo'q
1	Men bilan til topishish juda oson	1	0
2	Atrofimdagi men bilgan insonlardan ko'ra ko'proq uxlayman	1	0
3	Hayotimda doimo kimgadir o'xshab yurishni xohlaganman	1	0
4	Agar men davolanayotgan bo'lsam, har bir muolajaning maqsadini bilishga harakat qilaman	1	0
5	Biror narsani xohlasam, unga erishishni kutishga sabrim chidamaydi	1	0
6	Men tez qizarib ketaman.	1	0
7	Mening eng katta yutuqlarimdan biri bu o'zimni nazorat qila olishimdir	1	0
8	Ba'zan mushim bilan devorni qattiq urgim keladi	1	0
9	Tez jahlim chiqadi	1	0
10	Olomon orasida kimdir meni turtib yuborsa, uni urib o'ldirgim keladi	1	0
11	Tushlarimni kamdan-kam eslab qolaman	1	0
12	Boshqalarga buyruq beradigan odamlar mening g'azabimni keltiradi	1	0
13	Ko'pincha hijolat bo'lib o'zimni noqulay his qilaman	1	0
14	O'zimni juda adolatli odam deb hisoblayman	1	0
15	Qanchalik ko'p narsaga ega bo'lsam, shunchalik o'zimni baxtiyor his etaman	1	0
16	Xayolan har doim atrofdagilarning diqqat markazida bo'laman	1	0
17	Oila a'zolarimning uyda ochiq-sochiq kiyingan holda yurishlari haqida hatto o'ylasam ham ko'nglim g'ash bo'ladi.	1	0
18	Odamlar meni maqtanchoq deb hisoblaydilar	1	0
19	Agar kimdir mendan yuz o'g'irsa, o'z jonimga qasd qilish fikri pavdo bo'ladi	1	0
20	Aksariyat odamlar menga havas qilib, qovil qoladilar	1	0
21	Ba'zan jahlim chiqqanda biror narsani urgim yoki sindirgim keladi.	1	0
22	G'iybatchi odamlar juda ham g'ashimni keltiradi	1	0
23	Men doimo hayotning yaxshi tomoniga e'tibor beraman	1	0
24	O'z tashqi ko'rinishimni o'zgartirish uchun ko'p kuch sarflayman.	1	0
25	Ba'zan atom bombasi butun dunyoni yo'q qilib yuborishini xohlayman.	1	0
26	Hech kim haqida o'z nuqtai nazarimga tayanib oldindan xulosa chiqarmayman.	1	0
27	Odamlar gohida o'ta jizzaki bo'lib qolishimni aytishadi.	1	0
28	Odamlar orasida o'zini g'avritabiy tutadigan kishilar g'ashimni keltiradi.	1	0
29	Yomon niyat qiluvchi insonlarni mutlaqo yoqtirmayman.	1	0
30	Men har doim bilib-bilmay biror kishini xafa qilib qo'ymaslikka harakat qilaman.	1	0
31	Men kam vig'laydigan insonlar toifasiga kiraman.	1	0

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

32	Nazarimda men juda ko'p sigaret chekaman.	1	0
33	O'zimga tegishli bo'lgan narsadan judo bo'lish men uchun juda qiyin.	1	0
34	Odamlarning yuzini yaxshi eslab qola olmayman.	1	0
35	Ba'zan men o'z jinsiy a'zolarimni qo'zg'atib lazzatlanishdan (masturbatsiya bilan shug'ullanishdan) o'zimni tiyolmayman.	1	0
36	Yangi tanishlarimning familiyalarini eslab qolishim qiyin.	1	0
37	Agar kimdir menga xalaqit bersa, buni o'ziga bildirmayman, balki boshqa kishiga shikoyat qilaman.	1	0
38	Garchi men haqligimni bilsam ham, boshqa odamlarning fikrlarini tinglay olaman.	1	0
39	Odamlar hech qachon mening jonimga tegmaydi.	1	0
40	Qisqa vaqt bo'lsa ham bir joyda o'tirish men uchun qiyin.	1	0
41	Bolalik vaqtlarimdan eslay oladigan xotiralarim kam.	1	0
42	Men uzoq vaqt davomida boshqa odamlarning salbiy xislatlarini payqamayman.	1	0
43	Behuda g'azablanmasdan barcha narsalarni xotirjam o'ylab ko'rgan ma'qul deb hisoblayman.	1	0
44	Atrofdagilar meni o'ta ishonuvchan odam deb o'ylaydilar.	1	0
45	Janjal orqali o'z maqsadlariga erishadigan odamlar menda yoqimsiz hissiyotlarni vujudga keltiradi	1	0
46	Yomon narsalarni unutishga harakat qilaman	1	0
47	Men hech qachon optimistligimni yo'qotmayman	1	0
48	Safarga chiqayotganimda albatta har bir ishni rejalashtirib olaman.	1	0
49	Ba'zida biror kishiga nisbatan haddan ortiq g'azablanganimni sezaman.	1	0
50	Biror nima men aytgandek bo'lmasa, xafa bo'lib tushkunlikka tushaman.	1	0
51	Biror kishi bilan bahslashganimda uning fikrlaridagi xatolarni ko'rsatish menga zavq bag'ishlavdi.	1	0
52	Biror kimsa o'z xatti-harakatlari bilan menga muammo tug'dirsa, uni hal etishga bema'lol kirishaman.	1	0
53	Beadab kinofilmlar meni haddan ortiq g'azablantiradi.	1	0
54	Hech kim menga e'tibor bermay qo'ysa, xafa bo'laman.	1	0
55	Atrofdagilar meni befarq odam deb o'ylashadi.	1	0
56	Qaror qilib bo'lgandan keyin ham ushbu qarorimning to'g'riligidan shubhalanaman.	1	0
57	Agar mening qobiliyatlarimga kimdir shubha bilan qarasa, unga ataylab o'z qobiliyatlarimni ko'rsataman.	1	0
58	Men mashina haydayotganimda ko'pincha boshqa avtomobilni turtib yuborgim keladi.	1	0
59	Ko'pincha odamlarning xudbinliklari mening jahlimni chiqaradi.	1	0
60	Dam olishga ketayotganimda ko'pincha o'zim bilan biror bir yumush olib boraman.	1	0
61	Ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari mening ko'nglimni aynitadi.	1	0
62	Men ko'pincha timoqlarimni chaynayman.	1	0
63	Boshqalar nazdida men muammolardan qochuvchi insonman	1	0
64	Spirtili ichimliklar ichishni yaxshi ko'raman.	1	0
65	Beadab hazil-mutoviybalardan jahlim chiqadi.	1	0
66	Men ba'zida ko'ngilsiz voqealar va narsalar haqida tush ko'raman.	1	0
67	Menga mansabparast insonlar voqmayvdi	1	0
68	Men ko'p volg'on gapiraman	1	0

**SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI**

69	Pornografik tasvirlardan jirkanaman	1	0
70	Hayotimdagi ko'ngilsizliklar ko'pincha o'z xarakterimning yomonligidan kelib chiqadi	1	0
71	Men ikkiyuzlamachi va soxta insonlarni mutlaqo yoqtirmayman	1	0
72	Xafsalam pir bo'lganida ko'pincha tushkunlikka tushaman	1	0
73	Fojeali voqea va hodisalar to'g'risidagi xabarlar meni hayajonga solmaydi.	1	0
74	Biror bir yopishqoq va shilimshiq narsaga tekkanimda etim jimirlab ketadi.	1	0
75	Yaxshi kayfiyatda bo'lgan paytlarimda o'zimni yosh boladek tutishim mumkin.	1	0
76	Nazarimda men ko'pincha odamlar bilan arzimagan narsalar ustida behuda bahslashaman.	1	0
77	Marhumlar meni «bezovta qilmaydilar».	1	0
78	Maqtanib o'zini ko'rsatadigan odamlar meni juda g'azablantiradi.	1	0
79	Ko'pchilik odamlar mening g'ashimni keltiradi.	1	0
80	Begona joyda hammomdan foydalanish men uchun azoblidir.	1	0
81	Beadab so'zlarni aytish men uchun juda qiyin.	1	0
82	Boshqa insonlarga nisbatan ishonchim yo'qolsa, ko'nglim g'ash bo'ladi.	1	0
83	O'zga jins vakillari meni o'ziga jalb qiluvchi inson deb hisoblashlarini xohlayman.	1	0
84	Menda boshlagan ishlarimni hech qachon yakunlay olmayman, degan taassurot mavjud.	1	0
85	Men har doim chiroyliroq ko'rinish uchun yaxshi kiyimlar kiyishga harakat qilaman.	1	0
86	Mening axloqiy qarashlarim ko'pchilik tanishlarimnikidan afzalroqdir.	1	0
87	Bahs-munozaralarda suhbatdoshlarimdan ko'ra ko'proq mantiqiy fikr yuritaman.	1	0
88	Men axloqsiz odamlardan uzogroq yuraman.	1	0
89	Agar meni kimdir kafa qilsa qattiq jahlim chiqadi.	1	0
90	Men tez-tez kimnidir sevib qolaman.	1	0
91	Boshqalar nazdida men haddan tashqari betaraf insonman.	1	0
92	Qonga belangan odamni ko'rganimda xotirjamlikni saqlayman.	1	0

N	Himoya mexanizmlari	Himoya mexanizmlari tarkibiga kiruvchi savollar	n
1	Siqib chiqarish	6, 11, 31, 34, 36, 41, 55, 73, 77, 92	10
2	Regressiya	2, 5, 9, 13, 27, 32, 35, 40, 50, 54, 62, 64, 68, 70, 72, 75, 84	17
3	O'rni to'ldirish	8, 10, 19, 21, 25, 37, 49, 58, 76, 89	10
4	Rad etish	1, 20, 23, 26, 39, 42, 44, 46, 47, 63, 90	11
5	Proeksiya	12, 22, 28, 29, 45, 59, 67, 71, 78, 79, 82, 88	12
6	Kompensatsiya	3, 15, 16, 18, 24, 33, 52, 57, 83, 85	10
7	Giperkompensatsiya	17, 53, 61, 65, 66, 69, 74, 80, 81, 86	10
8	Ratsionalizatsiya	4, 7, 14, 30, 38, 43, 48, 51, 56, 60, 87, 91	12

$$S = k/n * 100\%$$

S – psixologik himoya mexanizmlarining foizlardagi ko'rsatkichi;

k – mavjud shkalalar bo'yicha ijobiy javoblar miqdori;

n – shkalalardagi savollar soni.

2-ilova

Talabalar-yoshlar «Himoya mexanizmlari»ning faktor tahlili natijalari

**SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI**

Himoya mexanizmlari	Faktorlar		
	Javobgarlikdan ozod qiluvchi himoya mexanizmlari	O'zini oqlashga yordam beruvchi himoya mexanizmlari	Salbiy hissiyotlardan xalos qiluvchi himoya mexanizmlari
O'rni to'ldirish	0,828		
Regressiya	0,821		
Giperkompensatsiya		0,805	
Proeksiya		0,741	
Ratsionalizatsiya		0,636	
Rad etish			0,744
Kompensatsiya			0,609
Siqib chiqarish			0,525

3-ilova

Frayburg shaxs so'rovnomasi

TEST YO'RIQNOMASI: Mazkur test savolnomasi shaxs xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi 114ta fikr-mulohazadan iborat. Ushbu fikr-mulohazalar Sizing xulqingiz, xatti-harakatlarigiz, odamlarga bo'lgan munosabatingiz, dunyoqarashingiz va shu kabi fazilatlarigizga mos keladimi? Agar shunday moslik bor deb hisoblasangiz, «Ha» (1), aks holda esa, «Yo'q» (0) javobini aylana ichiga olishingiz lozim bo'ladi.

№	Fikr-mulohazalar	Ha	Yo'q
1	Men yuqoridagi yo'riqnomani diqqat bilan o'qib chiqdim va hamma savollarga ro'y-rost javob berishga tavgorman.	1	0
2	Quvnoq kechalar, ziyofatlar va mehmondorchiliklarda vaqtimni chog' o'tkazishni yoqtiraman.	1	0
3	Biror kishi bilan tanishishim uchun suhbat mavzusini topish qiyinligi menga xalaqit beradi.	1	0
4	Tez-tez boshim og'rib turadi.	1	0
5	Ba'zida chakkam dukillashini va bo'ynim atrofida tomir urishini his qilaman.	1	0
6	Men tezda o'zimni yo'qotib qo'yaman, ammo darhol o'zimni qo'lga olaman.	1	0
7	Ba'zida beadab latifalarga xandon otib kulaman.	1	0
8	Men biror narsa haqida so'rashdan tortinaman, bilishim kerak bo'lgan narsani boshqa yo'l bilan bilishni afzal ko'raman.	1	0
9	Xonaga kirganimda xonadagilar menga e'tibor bermasliklariga amin bo'lsam, u yerga kiraslikni afzal ko'raman.	1	0
10	Qo'limga nima tushsa, sindirib tashlaydigan darajada asabiytlashishim mumkin.	1	0
11	Atrofdagilar menga e'tibor qarata boshlashsa, o'zimni noqulay his qilaman.	1	0
12	Ba'zan mening yuragim to'xtab-to'xtab urayotganini yoki aksincha, ko'ksimdan otilib ketgudek shiddat bilan ura boshlaganini his qilaman.	1	0
13	Xafagarchilikni kechirish mumkin deb o'ylamayman.	1	0
14	Jahlgah jahil bilan javob qaytarish kerak deb hisoblamayman va har doim shunga amal qilaman.	1	0
15	O'tirgan joyimdan birdaniga o'rnimdan tursam, ko'z oldim qorong'ulashib, boshim aylana boshlaydi.	1	0

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

16	Meni muvaffaqiyatsizliklar ta'qib etmaganida hayotim qanchalik yaxshiroq bo'lishi mumkinligi haqida deyarli har kuni o'ylayman.	1	0
17	O'z xatti-harakatlarimda insonlarga to'liq ishonish kerakligi haqidagi fikrga tayanmayman.	1	0
18	O'z manfaatlarimni himoya qilish zarurati tug'ilib qolsa, jismoniy kuch ishlatishdan ham qaytmayman.	1	0
19	Eng zerikarli insonlar davrasining ham kayfiyatini ko'tarib, bemalol xursand qila olaman.	1	0
20	Men tez hijolat bo'laman.	1	0
21	Agar mening ishimni yoki o'zimni tanqid qilishsa, bundan aslo xafa bo'lmayman.	1	0
22	Ko'pincha qo'l va oyoqlarim sovuq qotishi yoki uvishishini his qilib turaman.	1	0
23	Boshqa kishilar bilan muloqot qilayotganimda o'ng'aysizlanaman.	1	0
24	Ba'zida hech bir sababsiz tushkunlikka tushib, o'zimni baxtsiz his qilaman.	1	0
25	Ba'zida hech bir ish bilan shug'ullanishga xohishim bo'lmaydi.	1	0
26	Gohida juda og'ir ish bajargandek menga havo yetishmayotganini his qilaman.	1	0
27	Nazarimda, hayotimda juda ko'p ishlarni noto'g'ri qilgandekman.	1	0
28	Ko'pincha boshqalar mening ustimdan kulayotgandek tuyuladi.	1	0
29	Uzoq o'ylab o'tirmay bajariladigan topshiriqlarni yoqtiraman.	1	0
30	O'z takdirimdan unchalik rozi bo'lmasligimga yetarli asoslarim bor deb hisoblamayman.	1	0
31	Ko'pincha ishtaham bo'lmaydi.	1	0
32	Bolaligimda ota-onam yoki o'qituvchilarim boshqa bolalarni jazolashganlarida quvonganman.	1	0
33	Odatda men qat'iyatliman va tez harakat qilaman.	1	0
34	Har doim ham rost gapni gapirmayman.	1	0
35	Kimdir yoqimsiz holatdan chiqishga harakat qilayotganini qiziqish bilan kuzataman.	1	0
36	O'z fikrini qat'iy turib himoya qilish uchun har qanday vositadan foydalanish mumkin deb hisoblayman.	1	0
37	O'tmishda bo'lib o'tgan voqealardan unchalik tashvishlanmayman.	1	0
38	Mushtlashish orqali isbotlash mumkin bo'lgan biror narsaning mavjudligini tasavvur ham qilolmayman.	1	0
39	Men bilan janjallashish yo'llarini qidirayotgan odam bilan uchrashishdan qochmayman.	1	0
40	Ba'zida o'zimni hech narsaga yaroqsizdek his qilaman.	1	0
41	Men doimiy ravishda qandaydir zo'riqish his qilaman va o'zimni bo'shashtirishga qiynalaman.	1	0
42	Ko'pincha ko'krak qafasim ostida qandaydir og'riqlar va qorin sohamda har xil yoqimsiz hissiyotlar paydo bo'lganini his qilaman.	1	0
43	Agar mening do'stimni biror kishi xafa qilsa, men undan o'ch olishga harakat qilaman.	1	0
44	Belgilangan vaqtdan kech qolgan paytlarim bo'lgan.	1	0
45	Hayotim davomida hayvonlarga negadir ozor berib qo'ygan paytlarim bo'lgan.	1	0
46	Eski tanishim bilan uchrashganimda shu qadar xursand bo'lamanki, u bilan darhol quchoqlashib ko'rishim keladi.	1	0

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

47	Men biror narsadan qo'rqsam og'zim qurib, qo'l-ovog'im itray boshlaydi.	1	0
48	Ko'p hollarda menda shunday kayfiyat bo'ladi, iloji bo'lsa, hech narsani ko'rmasam, eshitmasam devman.	1	0
49	Agar uyquna yotsam, bir necha daqiqadan so'ng uxlab qolaman.	1	0
50	Boshqalarning xato-kamchiliklarini ko'rsatish menga rohat bag'ishlaydi.	1	0
51	Ba'zida maqtanib turaman.	1	0
52	Jamoat tadbirlarida faol qatnashaman.	1	0
53	Ko'pincha men yoqtirmagan kishi bilan uchrashib qolmaslik uchun yuzimni boshqa tomonga o'girishimga to'g'ri keladi.	1	0
54	O'zimni oqlash uchun ba'zan allanarsalarni o'ylab topgan holatlarim bo'lgan.	1	0
55	Men deyarli har doim harakatdaman va faolman.	1	0
56	Ko'p hollarda men gapirayotgan gaplar suhbatdoshlarimga haqiqatdan ham qiziqarli ekanligidan shubhalanib qolaman.	1	0
57	Ba'zida birdan terlab ketayotganimni sezib qolaman.	1	0
58	Agar biror kishidan qattiq jahlim chiqsa, uni urib yuborishim ham mumkin.	1	0
59	Kimningdir menga yomon munosabatda bo'lishi meni unchalik tashvishlantirmaydi.	1	0
60	Odatda tanishlarimga e'tiroz bildirishga qiynalaman.	1	0
61	Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan biror muvaffaqiyatsizlik haqida hattoki o'ylaganimda ham hayajonlanib, tashvishlanaman.	1	0
62	Tanishlarimning hammasini ham yaxshi ko'rman.	1	0
63	Mening xayolimga aytish uyat hisoblanadigan fikrlar ham kelib turadi.	1	0
64	Negadir ba'zan boshqalar hayratlanadigan narsalarni buzgim keladi.	1	0
65	Har qanday odamdan biror narsani iltimos qilishdan ko'ra unga buyruq berish va majburlashni afzal ko'raman.	1	0
66	Ko'p hollarda men qo'l va oyoqlarimni bezovtalik bilan harakatlantiraman.	1	0
67	Oqshomlari bo'sh vaqtlarimni quvnoq davralarda o'tkazishdan ko'ra o'zim sevgan ishlar bilan shug'ullanishni afzal ko'raman.	1	0
68	Tanishlarim davrasida o'zimni uydagidek tutmayman.	1	0
69	Ba'zida o'ylamasdan shunday fikrni aytib yuboramanki, u haqida gapirmasdan jim turgan ma'qulroq.	1	0
70	Hatto tanishlar davrasida ham diqqat markazida bo'lishdan qo'rqaman.	1	0
71	Yaxshi tanishlarim juda kam.	1	0
72	Gohida shunday paytlar bo'ladi, yorqin chiroq, yorqin ranglar, kuchli shovqin menda juda yoqimsiz, og'riqli hissiyotlarni uyg'otadi, vaholanki, bu narsalar boshqalarga unaka ta'sir ko'rsatmaydi.	1	0
73	Ko'pincha menda tanishlar davrasida kimnidir xafa qilish yoki jahlini chiqarish istagi paydo bo'ladi.	1	0
74	Ba'zan hayotda boshimga tushishi mumkin bo'lgan har xil yoqimsiz holatlarni tasavvur qilsam, bu dunyoga kelmaganim yaxshi edi, deb o'ylayman.	1	0
75	Agar kimdir meni qattiq xafa qilsa, albatta mendan o'ziga tegishlisini oladi.	1	0
76	Jahlimni chiqarishsa, aytadigan gaplarimdan uyalmayman.	1	0
77	Suhbatdoshimni esankiratib, noqulay ahvolga solib qo'yadigan savol yoki javobni berish menga yoqadi.	1	0
78	Zudlik bilan bajarishim zarur bo'lgan ishlarimni keyinga qoldirgan vaqtlarim bo'lgan.	1	0
79	Latifalar yoki kulgili voqealarni hikoya qilishni yoqtirmayman.	1	0

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

80	Ba'zan kundalik qiyinchiliklar va g'am-tashvishlardan o'zimni yo'qotib qo'yaman.	1	0
81	Men nomaqbul qilmishlarim bilan hijolat bo'lgan bir tanishlar davrasidagi odam bilan nogahon uchrashib qolsam, o'zimni qanday tutishni bilmay qolaman.	1	0
82	Afsuski, hayotda hatto arzimagan narsalarga ham vazohat bilan munosabat bildiradigan insonlar toifasiga kiraman.	1	0
83	Katta jamoa oldida so'zga chiqishdan tortinaman.	1	0
84	Mening kayfiyatim tez-tez o'zgarib turadi.	1	0
85	Men atrofdegilarning ko'pchiligidan ko'ra tezroq charchayman.	1	0
86	Agar men biror narsadan kuchli hayajonlansam yoki asabiylashsam, buni butun tanam bilan his qilaman.	1	0
87	Xayolimga xiralik bilan kirib kelaveradigan yoqimsiz o'y-fikrlardan bezor bo'lib ketaman.	1	0
88	Afsuski, oilada ham, tanishlarim davrasida ham meni tushunishmaydi.	1	0
89	Agar bugun men odatdagidan kamroq uxlasam, ertasiga o'zimni dam olgandek his qila olmayman.	1	0
90	O'zimni shunday tutishga harakat qilamanki, atrofdegilar meni norozi qilishdan go'rqsinlar.	1	0
91	O'z kelajagimga ishonaman.	1	0
92	Ba'zan men atrofimdagilardan kimningdir kayfiyati yomon bo'lishiga sababchi bo'lganman.	1	0
93	Boshqalarning ustidan kulishdan qaytmayman.	1	0
94	Juda sergap insonlar toifasiga kiraman.	1	0
95	Men hamma narsaga ancha yengil qaraydigan kishilar toifasidanman.	1	0
96	O'smiriligimda taqiqlangan mavzularga qiziqqanman.	1	0
97	Gohida negadir yaxshi ko'rgan kishilarimning dilini og'ritganman.	1	0
98	Atrofimdagiarning qaysarliklari tufayli ko'pincha ular bilan kelisha olmayman.	1	0
99	O'z qilmishlarimdan ko'pincha vijdonim qiynaladi.	1	0
100	Men ko'p hollarda parisonxotir bo'laman.	1	0
101	Men nafratlanadigan insonning omadsizlikka uchraganidan xafa bo'lganimni eslay olmayman.	1	0
102	Ko'p hollarda boshqalardan juda tez ranjiyman.	1	0
103	Ba'zida o'zim kutmagan holda unchalik tushunmagan, bilmagan narsalarim haqida ishonch bilan gapira boshlayman.	1	0
104	Ko'pincha kayfiyatim shunchalik yomon bo'ladiki, har qanday bahona tufayli portlab ketishga tayyor bo'laman.	1	0
105	Ko'pincha o'zimni charchagan va lanj his qilaman.	1	0
106	Men odamlar bilan suhbatlashishni yaxshi ko'raman va har doim tanish va notanish kishilar bilan gaplashishga tayyorman.	1	0
107	Afsuski, ko'p hollarda men odamlarga shoshma-shosharlik bilan baho beraman.	1	0
108	Odatda men ertalab yaxshi kayfiyatda turaman va ko'pincha hushtak chala boshlayman yoki xirgoyi qilaman.	1	0
109	Hatto uzoq mushohadalardan so'ng ham muhim muammolarni hal qilishda o'zimga nisbatan to'liq ishonchni his qilmayman.	1	0
110	Biror kishi bilan bahslashayotganimda shunday bo'ladiki, negadir o'z raqibimdan ko'ra balandroq ovozda gapirishga harakat qilaman.	1	0

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

111	Umidsizlik va ko'nglimning sovish holatlari menda u qadar kuchli va uzoq davom etuvchi kechinmalarni vujudga keltirmaydi.	1	0
112	Menda to'satdan lablarimni tishlay boshlaydigan yoki tirnoqlarimni g'ajiy boshlaydigan holatlar bo'lib turadi.	1	0
113	Yolg'iz qolgan paytlarimda o'zimni nihoyatda baxtiyor his etaman.	1	0
114	Ba'zida shunchalik zerikib ketamanki, hamma bir-biri bilan urishib qolishini xohlab qolaman.	1	0

No	Mezonlarning nomi	Savollar soni	Javob «xa»	Javob «yo'q»
I	Asabiylilik	17	4,5,12,15,22,26,31,41,42,57,66,72,85,86, 89,105	49
II	Spontan agressivlik	13	32, 35, 45, 50,64,73,77, 93,97,98, 103, 112, 114	99
III	Depressivlik	14	16,24,27,28,30,40,48,56,61,74,84,87,88, 100	—
IV	Jizzakilik	11	6,10,58,69,76,80,82,102,104,107, 110	—
V	Muloqotmandlik	15	2, 19,46,52,55,94,106	3,8,23, 53,67,71,79,113
VI	Muvozanatlashganlik	10	14,21,29,37,38,59,91,95,108,111	—
VII	Reaktiv agressivlik	10	13,17,18,36,39,43,65, 75,90, 98	—
VIII	Tortinchoqlik	10	9, 11,20,47,60,70,81, 83,109	33
IX	Samimiylik	13	7,25,34,44,51,54,62,63,68,78,92,96, 101	—
X	Ekstraversiya-introversiya	12	2,29,46,51,55,76,93, 95, 106, 110	20,87
XI	Emotsional o'zgaruvchanlik	14	24, 25, 40, 48, 80, 83, 84, 5,87,88, 102, 112, 113	59
XII	Maskulinizm-feminizm	15	18,29,33,50,52,58,59, 65,91, 104	16,20,31,47, 84

Talabalar-yoshlar «Shaxs xususiyatlar»ning faktor tahlili natijalari

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Shaxs xususiyatlari	Faktorlar	
	Salbiy shaxs xususiyatlari	Ijobiy shaxs xususiyatlari
Emotsional o'zgaruvchanlik	0,886	
Depressivlik	0,836	
Jizzakilik	0,814	
Asabiylik	0,788	
Tortinchoqlik	0,704	
Spontan agressivlik	0,670	
Reaktiv agressivlik	0,440	
Samimiylik		0,653
Ekstraversiya-introversiya		0,785
Maskulinizm-feminizm		0,743
Muvozanatlashganlik		0,589
Muloqotmandlik		0,545

5 - ilova
«Frayburg shaxs so'roynomasi» metodikasi asosida talabalar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot ishi natijalarining «Kruskal-Uolles H-mezonni» bo'yicha fan sohalari tafvutlarining ko'rsatkichlari

Himoya mexanizmlari	Guruhlar			H	P
	Ijtimoiy-gumanitar fanlar N=153	Tabiiy fanlar N=71	Aniq fanlar N=85		
Asabiylik	165,3	135,9	152,5	5,38	0,06
Spontan agressivlik	160,8	148,9	149,7	1,30	0,52
Depressivlik	162,3	146,0	149,3	2,09	0,35
Jizzakilik	163	138,7	154,3	3,63	0,16
Muloqotmandlik	153,3	156,6	156,8	0,11	0,94
Muvozanatlashganlik	148,5	165,3	158,1	1,91	0,38
Reaktiv agressivlik	151,8	157,7	158,4	0,38	0,82
Tortinchoqlik	158,7	153,1	149,9	0,58	0,74
Samimiylik	164,0	141,5	150,2	3,45	0,17
Ekstraversiya-introversiya	159,8	146,5	153,6	1,13	0,56
Emotsional o'zgaruvchanlik	164,4	143,5	147,7	3,48	0,17
Maskulinizm-feminizm	150	167,2	153,9	1,85	0,39

Izoh: * - $p \leq 0,05$; ** - $p \leq 0,01$; *** - $p \leq 0,001$.

6-ilova

G.Ollportning «Ichki va tashqi diniy yo'nalganlik» metodikasi

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

TEST YO'RIQNOMASI: Quyida keltirilgan har xil diniy va ijtimoiy qarashlarga nisbatan Siz qo'llab-quvvatlaydigan yoki ko'proq qo'shiladigan munosabatlarni belgilashingiz so'raladi. Taqdim etilgan variantlarning hech biri sizning fikr-mulohazalaringizni ifodalagan taqdirda o'zingizga yaqinrog'ini belgilang. Bu yerda «o'g'ri» va «noto'g'ri» javoblar mavjud emas. Ushbu mulohazalar har xil davrlarda turli diniy va nodiniy e'tiqodga ega bo'lgan insonlar tomonidan bildirilgan. Tez va e'tibor bilan ishlang. Ko'p o'ylamasdan javob bering. Ba'zi savollar yoki mulohazalar sizga o'ta shaxsiy, chuqur pinhoni tuyg'ularingizga tegishli bo'lib tuyulishi mumkin. Ularga imkon qadar samimiy javob berishga harakat qiling va tegishli javob variantining tartib raqamini aylana ichiga oling. Unutmang, Sizning har bir savolga bergan javoblaringiz hech kimga oshkor qilinmaydi, natijalar umumlashtirilgan ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi.

Diniy va ijtimoiy qarashlar	Javob variantlari			
1. Din, eng avvalo, g'amgin va baxtsiz damlarida menga ruhiy xotirjamlik baxsh etadi.	1) mutlaqo qo'shilmayman	2) qisman qo'shilmayman	3) qisman qo'shilaman	4) to'liq qo'shilaman
2. Men masjidida namoz o'qiyman, chunki bu menga jamiyatdagi mavqeimni mustahkamlashimga yordam beradi.	1) mutlaqo noto'g'ri	2) qisman noto'g'ri	3) qisman to'g'ri	4) juda ham to'g'ri
3. Namoz o'qishdan maqsad hayotiy xotirjam va baxtli hayotni ta'minlashdan iborat.	1) mutlaqo qo'shilmayman	2) qisman qo'shilmayman	3) qisman qo'shilaman	4) to'liq qo'shilaman
4. Modomiki odob-axloqim butun bo'lib, durust hayot kechirar ekanman, nimaga e'tiqod qilishim unchalik muhim emas.	1) mutlaqo qo'shilmayman	2) qisman qo'shilmayman	3) qisman qo'shilaman	4) to'liq qo'shilaman
5. Garchi dindor bo'lsam-da, diniy tartib-qoidalarning kundalik hayotimga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaslikka intilaman.	1) mutlaqo noto'g'ri	2) qisman noto'g'ri	3) qisman to'g'ri	4) juda ham to'g'ri
6. Masjidga borishning afzalligi shundaki, u yerdagilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish, tanish-bilish orttirish mumkin.	1) mutlaqo qo'shilmayman	2) qisman qo'shilmayman	3) qisman qo'shilaman	4) to'liq qo'shilaman
7. Men dindor inson bo'lsam-da, hayotimda undan ham jiddiyroq narsalar talaygina ekanligini his qilaman.	1) mutlaqo qo'shilmayman	2) qisman qo'shilmayman	3) qisman qo'shilaman	4) to'liq qo'shilaman
8. Meni namoz o'qishga o'rgatishgan, shuning uchun ham namoz o'qiyman.	1) mutlaqo noto'g'ri	2) qisman noto'g'ri	3) qisman to'g'ri	4) juda ham to'g'ri
9. Dinga qiziqishimning asosiy sababi shundan iboratki, masjidida men o'z vaqtimni qanday o'tkazish ma'qul ekanligini o'rganaman.	1) mutlaqo noto'g'ri	2) qisman noto'g'ri	3) qisman to'g'ri	4) juda ham to'g'ri
10. Ba'zan ijtimoiy va iqtisodiy farovonligimni ta'minlash uchun diniy e'tiqodlarimdan voz kechishimga to'g'ri keladi.	1) mutlaqo qo'shilmayman	2) qisman qo'shilmayman	3) qisman qo'shilaman	4) to'liq qo'shilaman
11. Namoz o'qishning asosiy vazifasi ruhiy taskinlik va himoyalanganlik hissini ta'minlashdan iborat.	1) mutlaqo qo'shilmayman	2) qisman qo'shilmayman	3) qisman qo'shilaman	4) to'liq qo'shilaman

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

12. Men dinni barcha kundalik ishlarimga to'liq singdirishga intilaman.	1) to'liq qo'shilaman	2) qisman qo'shilaman	3) qisman qo'shil-mayman	4) mutlaqo qo'shil-mayman
13. Men juda ko'p hollarda Allohning, ilohiy kuchning mavjudligini his etaman.	1) juda ham to'g'ri	2) qisman to'g'ri	3) qisman noto'g'ri	4) mutlaqo noto'g'ri
14. Mening diniy e'tiqodlarim haqiqatan ham hayotiy falsafamni belgilaydi.	1) juda ham to'g'ri	2) qisman to'g'ri	3) qisman noto'g'ri	4) mutlaqo noto'g'ri
15. Men yolg'iz qolganda qiladigan duolarim xuddi jamoa bilan namoz o'qiganimda qiladigan duolarim kabi mushoxada va hissiyotlar bilan yo'g'rilgandir.	1) deyarli har doim	2) odatda	3) ba'zan	4) deyarli hech qachon
16. Agar har xil noqulay vaziyatlar to'sqinlik qilmasa, men masjidida namoz o'qishga boraman.	1) haftada bir martadan ko'proq	2) taxminan haftada bir marta	3) oyida ikki-uch marta	4) oyida bir martadan kam
17. Agarda masjidida Qur'oni karimni o'rganuvchilar jamoasi hamda musulmonlar jamiyati tashkil qilingan bo'lsa, va men ulardan biriga a'zo bo'lganimda:	1) albatta, Qur'oni karimni o'rganuvchi-lar jamoasini tanlagan bo'lardim	2) ehtimol, Qur'oni karimni o'rganuvchi-lar jamoasini tanlagan bo'lardim	3) ehtimol, musulmon-lar jamiyatini tanlagan bo'lardim	4) albatta, musulmon-lar jamiyatini tanlagan bo'lardim
18. Din men uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki hayotning mazmun-mohiyatiga aloqador bo'lgan ko'plab savollarimga javob beradi.	1) to'liq qo'shilaman	2) qisman qo'shilaman	3) qisman qo'shil-mayman	4) mutlaqo qo'shil-mayman
19. Men o'z iymon-e'tiqodlarimga mos kitoblarni o'qiyman.	1) ko'pincha	2) vaqti-vaqti bilan	3) kamdan-kam	4) hech qachon
20. Muayyan vaqtlarimni diniy mushohada yuritishga bag'ishlash men uchun muhim ahamiyat kasb etadi.	1) menda bunday holat hech qachon bo'lmaydi	2) menda bunday holat kamdan-kam bo'ladi	3) ba'zan menda shunday bo'lib turadi	4) menda ko'pincha shunday bo'ladi

Natijalarni qayta ishlash va talqini

So'rovnoma natijalari ikkita shkala, ya'ni:

- tashqi diniy yo'nalganlik;

- ichki diniy yo'nalganlik bo'yicha qayta ishlanadi. So'rovnoma 20 ta mulohaza bo'lib, ulardan to'qqizta ichki diniy yo'nalganlik (I), 11 ta mulohaza esa tashqi diniy yo'nalganlikni (E) baholashga mo'ljallangan. Natijalarni qayta ishlashda ichki va tashqi diniy yo'nalganlik bo'yicha ballar yig'indisi hisoblab topiladi.

Ballarni qayta ishlashda ichki va tashqi dindorlik shkalalarning ballari yig'iladi. Dindorlik indeks qiymati ichki va tashqi dindorlikka mansublar guruhiga bo'linadi. Shuningdek, izchil bo'lmagan diniy va nodiniy guruhlar aniqlanadi. Metodika shunday xususiyatga egaki, u diniy

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

yo'nalganlikni aniqlashga nisbatan ancha sezgir bo'lib, u qanday dinga qo'llanilishiga qaramay, tiplar bir xil o'zaro munosabatga ega.

Izchil ichki diniy yo'nalganlikka mansub insonlarga taalluqli mulohazalar shkalalar bo'yicha tashqi yo'nalganlikka aloqador mulohazalar bilan mos kelmaydi.

Izchil diniy yo'nalganlikka ega bo'lmagan sinaluvchilar ichki yo'nalganlik shkalasi bo'yicha tashqi yo'nalganlik ko'rsatkichiga nisbatan 12 ball kam to'playdi.

Tashqi diniy yo'nalganlikning yuqori qiymati: dinni o'zining shaxsiy maqsadlarida foydalanishga moyil. Dinning qadriyat sifatida ikkinchi darajalidir. Bu toifa diniy yo'nalishdagi insonlar dinning foydali ekanligini har xil-ishonchni ta'minlashi va taskin berishi sotsial munosabat, status va o'zini o'zi oqlash kabi sabablar bilan bog'laydi. Diniy muassasalarga tashrif etish, bayramlarda qatnashish ular uchun o'zlarini basavlat qilib ko'rsatish, turmush tarzining umumqabul qilgan munosabatlariga sodiq qilib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ichki diniy yo'nalganlikning past darajasi. Dinning ustuvorlik roliga past baho beriladi. Boshqa ehtiyojlar esa ancha ahamiyatli bo'lib, diniy ko'rsatmalar bilan ziddiyatga ega. Quyi darajali ichki diniy yo'nalganlikka mansub insonlarda sabr-toqatlilik, rahm-shafqat, empatiya tuyg'ulari ancha past bo'ladi.

7-ilova

Talaba yoshlarda ichki va tashqi dindorlik tiplari namoyon bo'lishining jinsiy tafovutlari (Mann-Uitni U mezonida)

Diniy yo'nalganlik tiplari	Jinslar		U	P
	Yigitlar N=116	Qizlar N=193		
Tashqi dindorlik	156,9	153,9	1097	0,77
Ichki dindorlik	146,6	160,1	1021	0,19

Izoh: * - p ≤ 0,05; ** - p ≤ 0,01; *** - p ≤ 0,001.

8-ilova

TEST YO'RIQNOMASI: Quyida sizning dindorlik tiplaringizni aniqlashga yaratilgan mulohazalar taqdim etiladi. Sizdan ushbu mulohazalarning har birini diqqat bilan o'qib, ularga nisbatan «Ha» (2), «Yo'q» (0) va «Bo'lishi mumkin» (1) javoblaridan birini tanlab, tegishli raqamni aylana ichiga olib chiqish so'raladi.

№	Savollar	Yo'q	Bo'lishi mumkin	Ha
1	Dindorlik - insoniyat yaratilgandan buyon unga abadiy berilgan xususiyat ekanligi to'g'rimi?	0	1	2
2	Siz atrofigimdagi olamdan tashqari bizga noma'lum bo'lgan, bevosita his qilib bo'lmaydigan alohida boshqa bir dunyoning mavjudligini tan olasizmi?	0	1	2
3	Siz ibodat qilib ilohiy kuchlardan yordan so'rab murojaat qilib ko'rganmisiz?	0	1	2
4	Ibodat chog'ida va undan tashqari tasbeh yigirib turasizmi?	0	1	2
5	Sizning fikringizcha, ilm va din o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish mumkinmi?	0	1	2
6	Siz, shaytonni to'laqonli yenga olmaganingiz uchun Alloh cheksiz qudratga ega emas deb o'ylaysizmi?	0	1	2

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

7	Masjidda chin dildan namoz o'qishga ehtiyoj sezasizmi?	0	1	2
8	«Kishi o'z nafsinı do'stini teragandan ham qattiqroq tergab turmaguncha, yeyish-ichishi va kiyimi (haloldan yo haromdan ekani)ni bilmaguncha, taqvodordlardan bo'la olmaydi». Imom Termiziy tomonidan rivoyat qilingan ushbu hadisga bir umr amal qilgan bo'larmidingiz?	0	1	2
9	Siz ateistlarning «Bilimsizlik diniy e'tiqodni kuchaytiradi, bilimlilik esa uni vayron qiladi» degan fikriga qo'shilasizmi?	0	1	2
10	Schr-joduga ishonasizmi?	0	1	2
11	Siz oddiy insonning boshiga kulfat va musibatlar tushganida din – eng yaxshi taskin beruvchi kuch deb hisoblaysizmi?	0	1	2
12	Uyingizda Qur'on, tasbeh yoki joynamozlar bormi?	0	1	2
13	Siz telepatiyaga, ya'ni bir inson masofadan turib o'z fikrlarini boshqa insonga uzatishiga ishonasizmi?	0	1	2
14	Yaxshilik mukofot bilan, yovuzlik esa jazo bilan yakun topishi haqidagi oliy haqiqatga ishonasizmi?	0	1	2
15	Iymon-e'tiqodingiz sizni qiziqtirgan diniy sohadagi masalalarga javob topishingizga yordam beradimi?	0	1	2
16	Faqat ta'lim muassasalarida diniy ta'lim berish orqaligina bolalarda ma'naviy va axloqiy sifatlarini shakllantirish mumkin deb hisoblaysizmi?	0	1	2
17	Insonlarga din zarardan ko'ra ko'proq foyda keltiradi, deyish mumkinmi?	0	1	2
18	Siz jodugar va afsungarlarning, ya'ni yovuz ruhlar bilan muloqot qila oladigan insonlarning borligini tan olasizmi?	0	1	2
19	Siz islom dinidagi «Alloh taolo yaxshi ko'rgan bandasiga dard berishi, zero bu musibatlar odamni sabr-toqatli bo'lishga o'rgatishi va oxiratda bu azoblar uchun ko'plab ajrlar yozilishi» haqidagi fikrga qo'shilasizmi?	0	1	2
20	Siz yangi tug'ilgan chaqaloqning qulog'iga albatta azon aytilishi kerak, deb hisoblaysizmi?	0	1	2
21	Sizningcha insonlar koinotdan kuch-quvvat va axborot olishga qodirmi?	0	1	2
22	Sizningcha «Olam o'z-o'zidan paydo bo'lmagan uni yaratgan qandaydir bir Zot mavjud bo'lishi mumkin» degan fikr to'g'rimi?	0	1	2
23	Muhim ishlarni boshlashingizdan oldin yoki yaqin kishilaringiz og'ir dardga chalinganda Xudodan najod so'rab ibodat qilganmisiz?	0	1	2
24	Ateist va xudosiz kishilar yuksak darajadagi ma'naviyat sohiblari bo'lishi mumkinmi?	0	1	2
25	Inson jismonan vafot etganidan so'ng undagi ruh o'lmasligiga ishonasizmi?	0	1	2
26	Insonga «ko'z tegishi» mumkinligiga ishonasizmi?	0	1	2
27	Imom-domlalar o'z ma'ruzalarida (mas., pand-nasihatlarda, nikoh o'qiganida) takrorlab turadigan «Allohning bandalari...» iborasi sizda norozilik hissini vujudga keltiradimi?	0	1	2
28	Toat-ibodatning qabul bo'lishi libosga bog'liq deb o'vlaysizmi?	0	1	2
29	Burjlarga asoslangan bashoratlarga ishonasizmi?	0	1	2

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

30	Inson taqdiri azaldan belgilab qo'yilganligi va inson uni o'zgartirishga qodir emasligi rostmi?	0	1	2
31	Siz o'zingizni chin qalbdan taqvodor inson deb hisoblaysizmi?	0	1	2
32	Sovet davrida dindan chekinish jamoatchilik ma'naviyatini vayron qilgan deb hisoblaysizmi?	0	1	2
33	Insonlar xudoning borligini tasdiqlashlari yoki inkor etishlarida olimlarning roli bor deb hisoblaysizmi?	0	1	2
34	Oldingizdan qora mushuk o'tib ketsa, omadsizlikka duch kelishingiz mumkinligi haqidagi fikr sizda paydo bo'ladimi?	0	1	2
35	Ateistlarning «Xudoga sig'inish insonning o'z kuchiga ishonmasligi bilan bog'liq bo'lib, uning zaifligidan dalolat beradi» degan fikrlari to'g'rimi?	0	1	2
36	Namoz o'qib turasizmi?	0	1	2
37	Sizning fikringizcha, o'zga insonlarning quvvatini so'rib olishga qodir, kuchli manfiy biomyaydon sohibi bo'lgan «energetik vampirlar» mavjudmi?	0	1	2
38	Erdagi tabiatning go'zalligi, uyg'unligi va mukammalligini ko'rganingizda ushbu mukammallik ortida bir Yaratuvchi Zot turgan bo'lishi mumkinligi haqidagi fikr miyangizga keladimi?	0	1	2
39	Ro'za tutish shunchaki sog'lomlashtiruvchi parhez emas, balki undan ancha kengroq, muhimroq mazmun-mohiyatga ega deb hisoblaysizmi?	0	1	2
40	Bugungi jamiyatda din, hech bo'lmaganda, ma'naviyat va odob-axloq me'yorlarini saqlab turganligi uchun ham kerak, deb hisoblaysizmi?	0	1	2

Dindorlik darajalarini o'lchovchi mazkur metodika jami 40 ta savoldan iborat bo'lib 8 shkaladan iborat. Mazkur sakkizta shkalaning har birida 5 tadan savollar berilgan bo'lib, ushbu savollarga sinoluvchilarning o'zi «Ha», «Bo'lishi mumkin» yoki «Yo'q» deyilgan javob variantlaridan birini tanlab javob beradi. Shkalalarning yuqori darajasi 10 ball, past darajasi esa 1 ballni tashkil etadi.

Javoblarni belgilash varaqasi

1	2	3	4	5	6	7	8										
x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y
9	10	11	12	13	14	15	16										
x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y
17	18	19	20	21	22	23	24										
x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y
25	26	27	28	29	30	31	32										
x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y
33	34	35	36	37	38	39	40										
x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y	x	b	y

Olingan natijalar sakkiz turdagi individual dindorlik tiplariga ajratiladi:

1. Dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish (dindorlikning gnoseologik ildizlari va idealistik falsafaga moyillik)

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

2. Sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar
3. Dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash
4. Dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish
5. «Soxta ilm»ga qiziqish, ya'ni sir-asrorli hodisalarni izohlashda aniq bilimdan ko'ra har xil e'tiqodlarning ustunlik qilishi
6. Dunyoni-vujudga keltirgan oliy kuch, ya'ni yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish
7. Diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash
8. Dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash

9-ilova

Talabalar-yoshlar «Individual dindorlik tiplari»ning faktor tahlili natijalari

Dindorlik tiplari	Faktorlar	
	Uyg'unlashgan dindorlik tiplari	Uyg'unlashmagan dindorlik tiplari
Taskin topish	0,792	
Ichki ehtiyoj	0,772	
Yaratuvchi zotning mavjudligi	0,710	
Falsafiy konsepsiya	0,695	
Tashqi belgilar	0,651	
Ma'naviy xulq-atvor me'yori sifatida qarash	0,451	
Sehrli dunyo		0,834
«Soxta ilm»		0,823

10-ilova

Talaba yoshlarda individual dindorlik tiplari namoyon bo'lishining jinsiy tafovutlari (Mann-Uitni U mezonida)

Individual dindorlik tiplari	Jinslar		H	P
	Yigitlar N=116	Qizlar N=193		
Dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish	153,1	156,1	10974,5	0,76
Sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar	141,9	142,8	9679	0,74
Dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash	157	153,8	10961,5	0,75

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish	144,6	161,2	9991,5	0,10
«Soxta ilm»ga qiziqish	137,2	140,7	9131	0,83
Dunyoni vujudga keltirgan oliy kuch, ya'ni yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish	153	156,2	10960	0,75
Diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash	156,2	154,3	11051	0,84
Dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash	149	158,6	10497	0,35

Izoh: * - $p \leq 0,05$; ** - $p \leq 0,01$; *** - $p \leq 0,001$.

11-ilova

D.O.Smirnovning «Diniy faollikni o'lash metodikasi»

I SUBTEST YO'RIQNOMASI: Ushbu test ikki qismdan iborat bo'lib, har bir qismda berilgan jadvallarda savollar va javob variantlari taqdim etilgan. Mazkur jadvallarda bir qancha diniy e'tiqodlar va ijtimoiy qarashlar ifodalangan jumlarlar sizning hukmingizga havola etiladi. Jadvalning har bir qatorida berilgan A va B variant jumlarini diqqat bilan o'qib, ularni o'zaro taqqoslang va quyidagi javob variantlaridan birini tanlang:

1. A variantiga to'liq qo'shilaman
2. A variantidan ko'ra B varianti ma'qulroq
3. B variantidan ko'ra A varianti ma'qulroq
4. B variantiga to'liq qo'shilaman

I-qism

Diniy va ijtimoiy qarashlar	A variantiga to'liq qo'shilaman	A variantidan ko'ra B varianti ma'qulroq	B variantidan ko'ra A varianti ma'qulroq	B variantiga to'liq qo'shilaman
1. Diniy e'tiqodim...: A) mening barcha kundalik ishlarimga singib ketishiga harakat qilaman; B) mening kundalik hayotimga ta'sir qilmastligiga harakat qilaman.	1	2	3	4
2. Men, asosan: A) qiziqqanim uchun diniy bayramlarda qatnashganman; B) dunyoqarashimdan kelib chiqib diniy bayramlarda qatnashganman.	1	2	3	4

**SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI**

3. Men ko'pincha tasodifan (hattoki ko'chada, ishda va h.) Allohga murojaat qilaman: A) to'g'ri; B) noto'g'ri.	1	2	3	4
4. Men: A) har doim Alloh haqida o'ylab yuraman; B) muammolarga duch kelganimda Allohni eslayman.	1	2	3	4
5. Hayot mazmuni to'g'risidagi savollarimga javob izlasam: A) diniy asarlarga murojaat murojaat qilaman; B) ushbu muammo bo'yicha xilma-xil qarashlarni qamrab olgan kitoblarga murojaat qilaman.	1	2	3	4
6. A) mening hayotimda dindan ko'ra muhimroq narsalar bor; B) din - hayotimning muhim qismi.	1	2	3	4
7. Men: A) chorasiz va ilojisiz qolganimda, alohida vaziyatlarda Allohga murojaat qilaman; B) har doim Allohga murojaat qilaman, chunki bu men uchun tabiiy holdir.	1	2	3	4
8. Allohga iymon keltirishim uchun yetarli bo'lgan dalillar yetishmaydi. A) ha B) yo'q	1	2	3	4
9. Namoz o'qishning asl maqsadi: A) ruhiy muvozanatlashganlik holatiga erishish; B) Alloh bilan muloqotda bo'lish.	1	2	3	4
10. Umuman olganda, din: A) insonga erkinlik baxsh etadi; B) baribir insonning erkinligini chegaralaydi.	1	2	3	4
11. Men: A) shunchaki qiziqqanim uchun masjidida namoz o'qiyman; B) Allohga murojaat qilish istagimni anglaganim uchun masjidida namoz o'qiyman.	1	2	3	4

2-qism

Diniy va ijtimoiy qarashlar	A variantiga to'liq qo'shilaman	A variantidan ko'ra B varianti ma'qulroq	B variantidan ko'ra A varianti ma'qulroq	B variantiga to'liq qo'shilaman
1. Xudo mavjudmi? A) ha B) yo'q	1	2	3	4
2. Din - bu: A) eskilik sarqiti; B) Allohga qovushtiruvchi yo'l.	1	2	3	4

**SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI**

3. Do'zax va Jannat mavjudmi? A) haqiqatda mavjud B) insonlar tasavvurida mavjud	1	2	3	4
4. Diniy e'tiqod: A) voqelikning noto'g'ri idrok etilishiga olib keladi; B) dunyodai butun haqiqatni ko'rishga yordam beradi.	1	2	3	4
5. «Qur'on», «Injil» kabi Muqaddas kitoblar: A) insonlar tomonidan yozilgan; B) Alloh tomonidan nozil qilingan.	1	2	3	4
6. Allohning hamma yerda mavjudligi - bu: A) ishonch, afsona; B) haqiqat	1	2	3	4
7. Ka'batulloh bu: A) Allohning uyi; B) odamlar tomonidan ilohiylashtirilgan uy.	1	2	3	4
8. Diniy marosimlarning asosiy maqsadi: A) odamlar Xudoning mavjudligini his qilishlari uchun; B) soxta «g'ayritabiiylikni» vujudga keltirish uchun.	1	2	3	4
9. Inson namoz o'qiyotganida: A) aslida o'zi bilan o'zi suhbatlashadi; B) Alloh taolo uni eshitadi.	1	2	3	4
10. Agar inson chin ko'ngildan Allohga ishonsa: A) Alloh unga albatta yordam beradi; B) Alloh unga yordam berayotgandek tuyuladi, lekin aslida bu soxta tasavvurdan boshqa narsa emas.	1	2	3	4
11. Zam-zam suvi: A) inson qalbi va tanasi uchun shifobaxsh xususiyatlarga egadir; B) shifobaxsh ekanligi haqidagi tasavvurlar xurofotdan boshqa narsa emas.	1	2	3	4

2 SUBTEST YO'RIQNOMASI: Ushbu testing har bir savoliga nisbatan to'rttadan javob varianti (1, 2, 3, 4) taqdim etilgan. Sizga mos keladigan javob variantini tanlang va tegishli raqamni aylana (O) ichiga olib, berilgan variantlardan birini belgilang.

Savollar	Javob variantlari			
1. Diniy mavzudagi suhbatlarda qanchalik ko'p ishtirok etasiz?	1) juda ko'p	2) ba'zan	3) kamdan-kam	4) hech qachon
2. Siz diniy tadbirlarda, marosimlarda, jamoat bilan o'qiladigan namozlarda qatnashib turasizmi?	1) doimiy ravishda	2) muntazam emas	3) kam hollarda	4) hech qachon

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

3. Diniy e'tiqodingizga ko'ra ro'za tutasizmi?	1) doimiy ravishda	2) harakat qilaman	3) bir marta urinib ko'rganman	4) hech qachon
4. Diniy kitoblarni mutolaa qilasizmi?	1) har kuni	2) muntazam emas	3) ahyon-ahyonda	4) yo'q
5. Muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy savollar bilan e'tiqodli kishilarga murojaat qilasizmi?	1) doimiy ravishda	3) ba'zan	3) bir-ikki marta murojaat qilganman	4) yo'q.
6. Boshqa odamlarga Alloh to'g'risida gapirganmisiz? Dinga da'vat qilganmisiz?	1) ko'pincha	2) ba'zan	3) bir-ikki marta gapirganman	4) yo'q
7. Diniy ulamolarning ma'ruzalarni eshitasizmi?	1) ha, doimiy ravishda	2) ha, lekin muntazam emas	3) ba'zan	4) hech qachon
8. Diniy qo'shiqlar va nashidalarni tinglaysizmi?	1) ha, doimiy ravishda	2) ha, lekin muntazam emas	3) ba'zan	4) hech qachon
9. Bahs-munozaralarda o'z diniy qarashlaringizni himoya qilishingizga to'g'ri kelganmi?	1) ha, juda ko'p hollarda	2) ha, ko'pincha	3) ba'zan	4) hech qachon
10. Diniy e'tiqodingizga ko'ra muayyan taomlarni tanovul qilishdan saqlanasizmi?	1) ha	2) harakat qilaman	3) saqlanishga urinib ko'rganman	4) yo'q
11. Siz (uyda yoki masjidida) namoz o'qiyasizmi?	1) ha, doimiy ravishda	2) ha, lekin muntazam emas	3) ba'zan	4) hech qachon

12-ilova

Talaba yoshlarda «Diniy faollik» tiplari namoyon bo'lishining jinsiy tafovutlari (Mann-Uitni U mezonida asosida)

Individual dindorlik tiplari	Jinslar		H	P
	Yigitlar N=116	Qizlar N=193		
Astenik diniy kechinmalar shkalasi	146,3	160,3	10179	0,18
Stenik diniy kechinmalar	158,6	152,8	9679	0,58
Dindorlikka yetaklovchi kechinmalar	149,8	158,1	10593	0,42
Diniy kechinmalar	149,3	158,4	10529	0,38
Ichki-tashqi dindorlik motivatsiyasi	154,7	155,2	11158,5	0,96
Diniy – ilmiy-tabiiy dunyoqarash ustuvorligi	149,3	158,4	10537,5	0,36
Diniy xulq-atvor	162,3	150,6	10348,5	0,26

Izoh: * – p ≤ 0,05; ** – p ≤ 0,01; *** – p ≤ 0,001.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

13-ilova

Psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining faktorli tahlil jadvali

Himoya mexanizmlari va dindorlik tiplari	Faktorlar		
	Dindorlik tiplari va ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik himoya mexanizmlari	Himoya mexanizmlari	Uyg'unlashmagan dindorlik tiplari
Diniy e'tiqodga bo'lgan ichki ehtiyoj, ya'ni diniy o'zligini anglash	0,710		
Dinga qo'llab-quvvatlanish va taskin topish manbai sifatida qarash	0,653		
Dinga falsafiy konsepsiya sifatida yondashish	0,623		
Dunyoni vujudga keltirgan Oliy kuch, ya'ni Yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish	0,613		
Dindorlikning tashqi belgilariga e'tibor berish	0,574		
Proeksiya	0,534		
Giperkompensatsiya	0,480		
Dinga ma'naviy xulq-atvor me'yorlari namunasi sifatida qarash	0,460		
Ratsionalizatsiya	0,364		
Kompensatsiya		0,592	
O'rmini to'ldirish		0,590	
Regressiya		0,589	
Siqib chiqarish		0,399	
Rad etish			
Sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar			0,801
«Soxta ilm»ga qiziqish,			0,665

SHUKUROV RUSTAM ESHONKULOVICH

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK
TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

(MONOGRAFIYA)

Muharrir: N.A.Akbarov
Texnik muharrir va sahifalovchi: A.M.Quchqorov
Nashrga ruxsat etildi: 20.12.2025
Qog'oz bichimi 60x84/16. Hajmi 8.5 b.t.
"Times New roman" garniturasida chop etildi.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №12-7/2025
"Innovative Academy RSC" bosmaxonasida chop etildi
Toshkent sh., Amir Temur shohko'chasi, 120/30
Innovative Academy RSC, 2025 y.

SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA DINDORLIK TIPLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Ushbu monografiyada shaxsning psixologik himoya mexanizmlari va dindorlik tiplarining o'zaro bog'liqligi nazariy hamda empirik jihatdan tadqiq qilindi. Tadqiqot jarayonida himoya mexanizmlarining shaxs xulq-atvoridagi namoyon bo'lish xususiyatlari, diniy ong va dindorlik tiplarining shakllanish omillari, ularning o'zaro ta'sir qonuniyatlari psixologik va sotsiologik yondashuvlar asosida ilmiy tahlil qilindi. Monografiya psixologiya, dinshunoslik va sotsiologiya yo'nalishlarida ilmiy izlanish olib borayotgan mutaxassislar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida psixologiya, pedagogika va diniy-ma'rifiy tarbiya fanlarini o'qitishda foydalanish uchun qo'llanma sifatida ahamiyatlidir.



9789910096495